



Et docere et discere servitute legis

O'ZBEKISTON TERGOVCHISI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI

№1 (12) 2026

ILMIY — AMALIY YURIDIK JURNALI

СЛЕДОВАТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА

научно-практический юридический журнал

THE INVESTIGATOR OF UZBEKISTAN

scientific – practical law journal



www.proacademy.uz
ISSN 3093-8910

JURNAL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI RAYOSATINING 2023-YIL 31-MARTDAGI
335-SONLI QARORI BILAN ILMIY NASHRLAR RO'YXATIGA KIRITILGAN





№1 (12) 2026

O'ZBEKISTON

TERGOVCHISI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI

Bosh muharrir:

Yevgeniy Kolenko

Mas'ul kotib:

Farhodjon Nazarov

Tahrir kengashi:

Nig'matilla Yo'ldoshev

Baxriddin Valiyev

Salom Samadov

Muzaffar Egamberdiyev

Richard Djoys

Tahrir hay'ati:

Halim Boltayev

Baxtiyor Po'latov

Faxri Raximov

Muzaffarjon Mamasiddiqov

Uyg'un Nigmadjanov

Jahongir Maksimov

Vahobjon Karimov

Adham Odinayev

Baxtiyor Kayumov

Muxtaram Radjapova

Xurshid Karimov

Alisher Hidoyatullayev

Istam Astanov

Aziz Xikmatov

Rustam Kabulov

Baxrom Axrorov

Rustam Zufarov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2023-yil 23-martda 070684-sonli guvohnoma bilan olingan. Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 31-martdagi 335-sonli qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini nashr qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. Jurnalda chop etilgan materiallardan foydalanilganda "O'zbekiston tergovchisi" jurnalidan olingan deb ko'rsatilishi shart. Tahririyat taqdim etilgan materiallarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan.

Manzil:

100190, Toshkent shahri,

Rixsiliy ko'chasi, 9-uy

veb-site: www.proacademy.uz

e-mail: publish@proacademy.uz

Sahifalovchi:

J. ABDUQAHHOROV

Buyurtma №278-23. Adadi 507

Jurnal «Credo Print» MCHJ kitob

fabrikasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 160.

Tel.: 71 234-44-01/05.

www.credoprint.uz

Mundarija/Oглавление/Table of contents

J. IBROHIMOV	Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar kriminalistik tavsifining o'ziga xos xususiyatlari (terrorizمنى moliyalashtirish jinoyati misolida)	3
F. MIRZAYEV	Правовой статус субъектов первичного финансового мониторинга в системе противодействия отмыванию доходов в Республике Узбекистан	10
T. KENJAYEV	Теоретико-правовые основы антикоррупционной экспертизы нормативно-правовых актов и их проектов	14
D. MUSAYEV	Contemporary issues of the forensic characteristics of drug smuggling	23
S. ESANALIYEV	Jinoyat protsessining birinchi instansiya sudlarida ish yuritishning protsessual asoslarini takomillashtirish masalalari	30
A. PO'LATOV	Ayrim toifadagi shaxslarni so'roq qilishning o'ziga xos xususiyatlari	35
F. GAFUROV	Bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda kriminalistik ekspertizalarning o'rni	42
K. MUSASHAYXOV	Квалификация коррупционных преступлений в сфере спорта	49
A. AXLIMIRZAYEV	Bojxona organlarida surishtiruv instituti va uni takomillashtirish masalalari	53
B. YARASHEV	Sud tergovining adolatligini ta'minlashda himoya institutini takomillashtirish masalalari	57
D. MIRZAXODJAYEV	Giyohvandlik va psixotrop moddalar noqonuniy aylanmasi jinoyatlarining kriminalistik tavsifi	63
G'. NABIYEV	Jinoyat protsessida ekspert vakolatlarining huquqiy chegaralari va ularni qonunchilikda mustahkamlash masalalari	67
S. IBADULLAYEV	Xorijiy mamlakatlarning jinoyat-huquqiy masalalarida sudlanganlik holati va mustaqil huquqiy institut sifatida o'ziga xos xususiyatlari	72
O'. BAHODIROV	O'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatlarini tergov qilishda xorijiy tajribani O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etish masalalari	78
M. YULDASHEV	Bojxona organlaridagi korrupsiya: qarshi kurashish vositalari, usullari va so'nggi tendensiyalar	85



Jamshid IBROHIMOV,
DXX Tergov boshqarmasi xodimi,
yuridik fanlar doktori (DSc)

TERRORIZM BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR KRIMINALISTIK TAVSIFINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (terrorizmni moliyalashtirish jinoyati misolida)

ANNOTATSIYA. Maqolada terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar sirasiga kiruvchi terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining kriminalistik tavsifining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, terrorizmni moliyalashtirishda jinoyat izlarini to'rt guruhga ajratilgan holda tergov qilish maqsadga muvofiqligi ilgari surilgan. Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatida jinoyatchi shaxsining kriminalistik tavsifi ochib berilgan. Shu bilan birga, terrorizmni moliyalashtirishda elektron dalillarni tezda aniqlash va ularga huquqiy baho berish mazkur jinoyatning hozirgi kundagi dolzarb masalasi ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются особенности криминалистической характеристики преступления финансирования терроризма, которое относится к преступлениям, связанным с терроризмом. В частности, выдвинута целесообразность расследования факта выделения четырех групп следов преступлений при финансировании терроризма. Раскрыта криминалистическая характеристика личности преступника в преступлении финансирования терроризма. Вместе с тем, отмечается, что оперативное выявление и правовая оценка электронных доказательств финансирования терроризма является актуальной проблемой данного преступления на сегодняшний день.

ABSTRACT. The article analyzes the features of the criminalistic characterization of the crime of financing terrorism, which refers to crimes related to terrorism. In particular, the expediency of investigating the fact of identifying four groups of traces of crimes in the financing of terrorism has been put forward. The criminalistic characteristics of the criminal in the crime of financing terrorism have been revealed. At the same time, it is noted that the prompt identification and legal assessment of electronic evidence of financing of terrorism is a pressing problem of this crime today.

Kalit so'zlar: terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar, kriminalistik tavsif, terrorizmni moliyalashtirish, tergov tusmoli, jinoyatchi shaxsining kriminalistik tavsifi.

Ключевые слова: преступления, связанные с терроризмом, криминалистическая характеристика, финансирование терроризма, следственная гипотеза, криминалистическая характеристика личности преступника.

Key words: crimes related to terrorism, forensic characteristics, financing of terrorism, investigative hypothesis, forensic characteristics of the criminal's personality.

Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi deganda, tipik kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy xavfli faoliyatni ochish, tergov qilish va oldini olishda qo'llaniladigan, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat belgilari to'g'risida gi ma'lumotlar tizimi tushuniladi.

Jinoyatlarni tergov qilish uslubiyotining asosiy vazifalaridan biri tergovchining turli tergov vaziyatlarida jinoyatlarni ochish va tergov qilishga doir zaruriy bilim va ko'nikmalar bilan qurollanishi hisoblanadi. Shubhasiz, jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti kriminalistikaga tegishli bo'lgan barcha umumiy prinsiplarga asoslanadi, ularga qo-

nuniylik, axloqiylik, ilmiylik, rejaviylik, tejamkorlik kabilar kiradi. Shular bilan bir qatorda, u o'zining vaziyatliliigi, turli xilligi, bosqichma-bosqichligi, o'ziga xos strukturaviy birligi bilan ajralib turadi¹.

Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi o'z ichiga: jinoyatlarning kriminalistik tavsifi va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar; jinoyatlarni tergov qilish jarayonida yuzaga keladigan o'xshash tergov vaziyatlari; o'tkaziladigan dastlabki tergov harakatlarini rejalashtirish xususiyatlari; dastlabki tergov harakatlari va ularga mos o'tkaziladigan tezkor-qidiruv choralari; o'tkaziladigan kelgusi tergov harakatlarning xususiyatlarini qamrab oladi².

1 Bazarova D., Astanov I. Kriminalistika va ekspertiza. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2019-yil, 379-bet.

2 Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi. Darslik. Mualliflar jamoasi: Astanov I.R., Murodov B.B. va boshq. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, 2024-yil, 92-bet.



Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifining asosiy elementlari: 1) ushbu jinoyat qayerda, qachon, qanday usulda, qaysi sharoit va holatlarda sodir bo‘lganligi; 2) ushbu jinoyatni sodir qilish usullari qaysi harakatlardan iboratligi.

Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda quyidagilarni isbotlash lozim: shaxs tomonidan sodir etilgan harakatda jinoyat tarkibi borligini; agar harakatda ushbu jinoyatlar tarkibi bor bo‘lsa, unda ushbu jinoyatning qaysi turi sodir bo‘lganligini; jinoyatning qachon, qayerda, qanday holatlarda sodir bo‘lganligini; jinoyat natijasida yetkazilgan zarar darajasini; jinoyat bir nafar shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilganligini; jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, har bir shaxsning vazifasini; jinoyat sodir etishda predmet yoki narsalar ishlatilgan bo‘lsa, ularning turi, qayerdan olinganligi yoki qanday tayyorlanganligini; jinoyat oqibatida jabrlanuvchiga, tashkilot, muassasa yoki korxonaga yetkazilgan moddiy zararining qancha miqdori qoplanganligini; agar jinoyatchi ilgari sudlangan bo‘lsa, u qayerda, qachon, qaysi harakatlari uchun, JKning qaysi moddasi bilan, qaysi sud tomonidan sudlanganligini (hukmning bir nusxasi jinoyat ishiga tikib qo‘yiladi) va hokazo.

Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi hodisaning ehtimol tutilgan modeli va fikriy xulosasi bo‘lib, tergov tasmollari uchun asos bo‘ladi. Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining kriminalistik xususiyatlari uning yuqori darajadagi yashirinligi, transmilliy xususiyati va zamonaviy texnologiyalarga tayanishi bilan belgilanadi.

Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatni sodir qilgan shaxs ushlangan, ammo jinoyatni shaxsni bir o‘zi sodir qilmagan, ular bir guruh shaxslar bo‘lgan tergov vaziyatida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish; gumon qilinuvchini so‘roq qilish va uni guvohlantirish; jabrlanuvchini so‘roq qilish, uni jabrlanuvchi deb e‘tirof etish; ba‘zi ashyoviy dalil-

lar va predmetlarni topish maqsadida tintuv va olib qo‘yish tergov harakatini o‘tkazish; agar telefon va boshqa so‘zlashuvlarni eshitish zarurati paydo bo‘lsa, telefon va boshqa so‘zlashuvlarni maxsus qurilmalar orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish tergov harakatlarini o‘tkazish; agar ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish zarurati paydo bo‘lsa, ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish tergov harakatini o‘tkazish; agar guvohlar, jabrlanuvchi yoki gumon qilinuvchi tomonidan taqdim etilgan narsa va hujjatlarni olish zarur bo‘lsa, unda ushbu tergov harakatlarini o‘tkazish lozim; agar narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo‘shish zarur bo‘lsa, unda ushbu tergov harakatini o‘tkazish lozim.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining asosiy kriminalistik tavsiflari quyidagilardan iborat:

1) **jinoyat sodir etish usullari** – mablag‘ yig‘ish (xayriya jamg‘armalari, diniy tashkilotlar yoki soxta nodavlat tashkilotlari niqobi ostida mablag‘ to‘plash), o‘tkazish tizimlari (an’anaviy bank tizimlari bilan bir qatorda norasmiy pul o‘tkazish tizimlari va kriptoaktivlardan keng foydalanish), manbalar (mablag‘lar ham qonuniy (biznes, xayriya), ham noqonuniy (narkotrafik, kontrabanda) manbalardan kelib chiqishi mumkin);

2) **jinoyat izlari va obyektlari** – raqamli izlar (elektron hamyonlar, IP-manzillar, messenjerlardagi muloqotlar va ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar), hujjatli izlar (fiktiv shartnomalar, soxta inyoislar va bank ko‘chirmalaridagi shubhali tranzaksiyalar), kichik miqdordagi mablag‘larni tez-tez o‘tkazish yoki mablag‘larning yakuniy manzili yoki offshor hududlar bilan bog‘liqligi;

3) **jinoyatchilarning shaxsi** – tashkilotchilar (odatda yuqori intellektual salohiyatga ega, moliyaviy tizimlarni yaxshi tushunadigan shaxslar, ijrochilar (ko‘pincha pul mablag‘lari nima maqsadda ishlatilishini bilmaydigan “tranzit” shaxslar yoki mafkuraviy jihatdan faollashgan ko‘ngillilar);



4) **tergov va aniqlashning o‘ziga xos jihatlari** – parallel moliyaviy tergov (jinoiyat ishi bilan birgalikda mablag‘larning harakatini kuzatish uchun alohida moliyaviy tahlil o‘tkaziladi), idoralararo hamkorlik va boshqalar.

Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi ancha murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ularda asosan quyidagilar farqlanadi:

terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlar to‘g‘risidagi dastlabki axborotning tavsifi;

terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etish va yashirishning usullari hamda ularni qo‘llashning oqibatlarini haqidagi ma‘lumotlar tizimi;

terrorizm bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan jinoyatchilarning shaxsi va jinoyatning ehtimol tutilgan motiv va maqsadlari;

terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarning ehtimol tutilgan qurboni shaxsi va tajovuzning predmeti haqidagi ma‘lumotlar;

terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etishning ba‘zi holatlari (joyi, vaqti, sharoiti) haqidagi ma‘lumotlar;

terrorizm bilan bog‘liq aniq jinoyatni sodir etilishga shart-sharoit yaratuvchi muayyan holatlar haqidagi ma‘lumotlar³.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatlarini tergov qilish va dalillarni to‘plash o‘ziga xos yondashuvni talab etadi, chunki bu yerda asosiy e‘tibor jismoniy harakatlarga emas, balki raqamli va moliyaviy oqimlarga qaratiladi.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatida tergov odatda “pul izidan borish” (follow the money) tamoyiliga asoslanadi. Bunda moliyaviy razvedka ma‘lumotlari tahlil qilinadi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentidan kelgan shubhali tranzaksiyalar haqidagi hisobotlar o‘rganiladi, tranzaksiyalar zanjiri – mablag‘ning manbasidan to yakuniy qabul qiluvchigacha bo‘lgan yo‘li chizma ko‘rinishida tiklanadi, niqoblangan faoliyat fosh etilib, xayriya tashkilotlari yoki kichik biznes (masalan, kafe, do‘kon) niqobi ostida pul yig‘ilayotgani aniqlanadi.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatida dalillar uchta asosiy yo‘nalishda to‘planadi:

1) hujjatli dalillar: bank hujjatlari (hisob raqamlaridan ko‘chirmalar, pul o‘tkazmalari to‘g‘risidagi arizalar, bankomatlardan pul yechilgan vaqt va joy tasvirlari), buxgalteriya hujjatlari (soxta shartnomalar, yuk xatlari va moliyaviy hisobotlar);

2) raqamli (elektron) dalillar (kripto-hamyonlar, blokcheyn texnologiyasi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarning identifikatorlari, qurilmalarni ekspertiza qilish (smartfon va kompyuterlardagi messenjerlar (Telegram va b.q.), ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar va elektron pochta xabarlarini), IP-manzillar va VPN (pul o‘tkazilgan vaqtdagi qurilmaning geografik joylashuvini aniqlash);

3) ko‘rsatmalar va tezkor ma‘lumotlar (guvohlar – bank xodimlari, pul o‘tkazish shoxobchalari operatorlari yoki mablag‘ yig‘ishda bilmagan holda ishtirok etgan shaxslarning ko‘rsatmalari; tezkor-qidiruv tadbirlari – telefon so‘zlashuvlarini eshitish va tashqi kuzatuv natijalari).

Ko‘rsatilgan terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlar kriminalistik tavsifining tuzilishi mazkur jinoyat ishi bo‘yicha isbot qilish predmeti hisoblanadi va ularni aniqlash tergovchining vazifasiga kiradi.

Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlar to‘g‘risidagi dastlabki axborotning tavsifi tergovchiga tergov qilinishi lozim bo‘lgan hodisaning mohiyatini aniq bilishga imkon yaratadi.

Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlar to‘g‘risidagi dastlabki axborotning tavsifini to‘g‘ri aniqlashda mazkur jinoyatchilikning umumiy mohiyati to‘g‘risidagi ma‘lumotga ega bo‘lish katta ahamiyatga egadir.

Jinoyatning kriminalistik tavsifining keyingi belgisi hisoblanadigan jinoyat sodir etish va uni yashirish usullari haqidagi ma‘lumotlar kriminalistik tavsifning asosiy qismi hisoblanadi, chunki ular jinoiy faoliyatning funksional tomonini ifodalaydi.

Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir



etish va yashirishning usullari va ularni qo‘l-lashning oqibatlarini haqidagi ma‘lumotlarga jinoyat qaysi yo‘l bilan tayyorlanishi, sodir etilishi va yashirilishi haqidagi sof operatsional ma‘lumotlarinigina emas, balki jinoyatchilarning harakatlari atrof-muhitda qanday aks etishi, ya‘ni jinoiy faoliyat natijasida qanday izlar, jinoyatchi harakatlarining “izlari” paydo bo‘lishi, ularni qayerdan izlash va ular bo‘yicha jinoyat mexanizmini qanday tiklash zarurligi haqidagi ma‘lumotlar ham kiradi.

Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarning ehtimol tutilgan qurboni shaxsi va tajovuzning predmeti haqidagi ma‘lumotlarni bilish mazkur turdagi jinoyatlarni ochish va tergov qilishning to‘g‘ri yo‘nalishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ehtimol tutilgan jinoyat qurbonining ko‘rsatmasi ma‘lumotlari jinoyatning kriminologik tavsifidan oladigan ma‘lumotlardir. Aynan kriminologiya va viktimologiya jinoyatchi va jinoyat qurbonini, ular o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi. Ushbu turkum va turdagi jinoyatlarning sodir etilishiga ko‘maklashadigan tipik holatlar haqida ham shularni ta‘kidlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq, ayrim jinoyatlar bo‘yicha javobgarlikning sharti sifatida jinoyat sodir etish joyi, vaqti va sharoiti ko‘rsatib o‘tilgan. Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda tergovni amalga oshirayotgan xodim avvalo mazkur holatlarini aniqlashi shart.

Masalan, Jinoyat kodeksi 155²-moddasida nazarda tutilgan “Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish, chiqish yoki harakatlanish” jinoyati terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketish yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish orqali sodir etilishi mumkin. Mazkur holatda jinoyatni sodir etish joyi, terrorchilik faoliyatida ishtirok etishni niyat qilgan shaxsning harakat

yo‘nalishi, bir joydan ikkinchi hududga harakatlanishi va chet elga chiqishini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jinoyatlarni tergov qilish jarayonida tergovchi jinoyatlarning sodir etilishiga shart-sharoit yaratuvchi muayyan holatlar haqidagi ma‘lumotlarni aniqlashi va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 297-moddasiga muvofiq, tergovchi jinoyat ishini tergov qilish chog‘ida jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlab, tegishli davlat organiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoat yoki mansabdor shaxsga ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi.

Kriminalistik tavsifning bu hamma elementlari, hatto ular o‘rtasida korrelatsion bog‘lanish mavjud bo‘lmasa ham, u tergovchi uchun yo‘nalishni belgilab beruvchi ahamiyat kasb etadi⁴.

Masalan, terrorizmni moliyalashtirishning kriminalistik tavsifi deganda, kriminologik ahamiyatga ega bo‘lgan eng ko‘p darajada takrorlanadigan (tipik) ilmiy dalillarga asoslangan faktik ma‘lumotlar va axborotlarning tizimli tavsifini tushunish mumkin bo‘lib, ular terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashishga mo‘ljallanganligini anglagan holda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish yoki mablag‘ yig‘ish yoki taqdim etishga yo‘naltirilgan jinoiy faoliyat mexanizmlarini va bunday harakatlar usullarini ifodalaydi.

Jinoiy faoliyat mexanizmlari va usullari haqidagi bilimlar tegishli kriminalistik tergov qilishning bazaviy usullarini ishlab chiqish, tergov qilish va isbotlash uchun zarur bo‘lgan holatlar ro‘yxatini aniqlash, tergov versiyalarini ishlab chiqish va tergovning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash orqali qonuniy va asosli protsessual qarorlarni ish-

4 Bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma / R.Shakurov, A.Raximov, Sh.Djumanov, N.Toshtemirov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010-yil, 47-bet.



lab chiqish uchun zarur.

Terrorizmni moliyalashtirishning kriminalistik tavsifi tuzilishi ushbu jinoyat to'g'risidagi ma'lumotlar majmui bo'lib, ular moliyaviy xizmatlar ko'rsatish yoxud mablag' yig'ish yoki taqdim etish holatlari haqida tergov versiyalarini ilgari surish, bo'lib o'tgan jinoiy hodisaning ehtimoliy axborot modelini tuzish imkonini beradi, shuningdek, jinoyatni sodir etish mexanizmi va tarkibiy elementlari, terrorizmni moliyalashtirish jinoyatini sodir etgan jinoyatchi shaxsi, moliyalashtirish predmeti, usuli va jinoyatni sodir etish shart-sharoitlari haqidagi ma'lumotlar majmuini ham qamrab oladi. Terrorizmni moliyalashtirishning kriminalistik tavsifining yuqorida qayd etilgan elementlari o'zaro bog'liq va bir-birini talab qiladi.

Boshqacha aytganda, terrorizmni moliyalashtirishning kriminalistik tavsifi deganda, jinoyat haqidagi shunday ma'lumotlar majmui tushuniladiki, ular asosida bo'lib o'tgan jinoyat hodisasi haqida axborot modeli tuziladi va tergov tasmollari ilgari suriladi. Terrorizmni moliyalashtirishning kriminalistik tavsifi doirasida terrorizmni moliyalashtirishning quyidagi takrorlanadigan usullarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- bevosita yoki bilvosita har qanday mablag' - vositalarni, resurslarni berish, shu jumladan, xayriya qilish;

- bevosita yoki bilvosita har qanday mablag' - vositalarni, resurslarni yig'ish;

- boshqa xizmatlarni, shu jumladan, moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish.

Bunda ushbu harakatlar terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta'minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan

yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga berilishi lozim.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining eng ko'p sodir etiladigan usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: mablag' - vositalarni, resurslarni shaxsan ko'rishganda taqdim etish; naqd pulsiz ko'rinishida pul o'tkazmalarini bank hisobvaraqlarini ochgan yoki mobil ilova orqali o'tkazib berish; IP-manzillarini aniqlash imkoni yo'q va qiyin bo'lgan holatlarda internet tarmoqlari orqali o'tkazish.

Jinoyat ishi materiallarini o'rganish terrorizmni moliyalashtirish shaxsan uchrashuv orqali sodir etilganda, ko'p hollarda kunning kunduzgi qismida, bino-inshootlarda, avto-transport vositalari to'xtash joylarida, diniy obyektlar atrofida, milliy yoki xorijiy valyutada amalga oshiriladi⁵.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda turli xil mobil ilovalar yordamida pul o'tkazib berish orqali terrorizmni moliyalashtirish holatlari ko'paymoqda.

Umuman olganda, vaqt va sharoit terrorizmni moliyalashtirish kriminalistik tavsifining elementlari sifatida tergovchi uchun jinoyatni sodir etish joyi va uning doirasidagi moddiy izlarda jinoyat sodir etish vaqtiga oid ishoralar bo'lgan va bu axborot tergovchiga shaxsning jinoyat sodir etishga aloqasini isbotlash imkonini bergan hollarda ahamiyatga ega bo'ladi.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyat izlarining to'rt guruhini ajratish mumkin:

Birinchi guruh izlar – pul mablag'larini taqdim etishda moddiy boyliklarni saqlash tuynuklarini yasashda jinoyatchi qoldirgan qo'l barmoqlari va oyoq izlari.

Ikkinchi guruh izlar – pul mablag'larini o'tkazmalari va boshqa moliyaviy operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar aks etgan buxgalteriya va bank hujjatlari predmetlari.

Uchinchi guruh izlar – boshqa hujjatlar, shu jumladan, kassa cheklari, kupon, oldi-sot-

5 Абрамова А.А. Криминалистическая методика расследования финансирования терроризма. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: РНУ, 2022 г. – С. 24-25.



di yoki hadya shartnomalari va boshqalar.

To‘rtinchi guruh izlar – kompyuter, telefon va boshqa Internet jahon axborot tarmog‘i vositalarida mavjud bo‘lgan elektron raqamli izlar.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatini isbotlash jarayoni o‘zining murakkabligi va asosan hujjatli hamda raqamli izlarga tayinishi bilan ajralib turadi.

Xususan, terrorizmni moliyalashtirish jinoyatini isbotlashning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar keltirilgan.

1. Xabardorlik faktini isbotlash. Eng muhim xususiyat – mablag‘ yig‘ayotgan yoki o‘tkazayotgan shaxs bu mablag‘lar terroristik faoliyat uchun ishlatilishini oldindan bilganligini (xabardorligini) dalillashdir. Bunda gumonlanuvchining ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalari, taqiqlangan guruhlarga a‘zoligi va u yerdagi muhokamalarda ishtiroki asosiy dalil bo‘ladi.

2. Moliyaviy va bank izlari. To‘g‘ri-dan-to‘g‘ri dalillar sifatida bank ko‘chirmalari, elektron hamyonlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar tarixi va xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlaridan olingan ma’lumotlar xizmat qiladi.

3. Raqamli kriminalistika. Dalillarning katta qismi elektron qurilmalarda (telefon, kompyuterda) saqlanadi. Shifrlangan xabarlar, o‘chirib yuborilgan yozishmalarni qayta tiklash va IP-manzillar orqali shaxsni identifikatsiya qilish tergovning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Bilvosita moliyalashtirishni aniqlash. Mablag‘lar doim ham pul ko‘rinishida bo‘lmasligi mumkin. Xayriya niqobi ostidagi yig‘imlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, transport yoki aloqa vositalari bilan ta‘minlash ham moliyalashtirish sifatida baholanadi.

5. Norasmiy tizimlar. Nazorat qilish qiyin bo‘lgan norasmiy pul o‘tkazish tizimlari orqali yuborilgan mablag‘larni isbotlash uchun guvohlarning ko‘rsatmalari va tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olingan yashirin yozuvlardan foydalaniladi.

6. Ro‘yxatlar bilan solishtirish. Shaxsning terrorchilik faoliyatida ishtirok etayotgan yoki gumon qilinayotgan shaxslarning rasmiy ro‘yxatidagi shaxslar bilan moliyaviy aloqasi fakti muhim huquqiy dalil hisoblanadi. Ushbu jarayonda iqtisodiy-buxgalteriya va kompyuter-texnikaviy ekspertizalarining xulosalari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining kriminalistik tavsifida jinoyatchi shaxsi muhim ahamiyatga ega. Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining subyekti terrorizmni moliyalashtirish uchun bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni bergan yoki boshqa xizmatlar ko‘rsatgan shaxs ham, bunday mablag‘-vositalarni, resurslarni yiqqan shaxs ham bo‘lishi mumkin.

Terrorizmni moliyalashtirish jinoyatini sodir etuvchi shaxsning kriminalistik tavsifi o‘ziga xos psixologik, ijtimoiy va kasbiy xususiyatlar majmuidan iborat. Bu toifadagi jinoyatchilar odatda bevosita terrorchilik harakatlarini amalga oshiruvchilardan farq qiladi. Jinoyatchi shaxsning kriminalistik tavsifi tergov organlariga gumon qilinuvchilar doirasini aniqlash va jinoyatni fosh etish taktikasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ushbu jinoyatchi shaxsning asosiy kriminalistik belgilarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) ijtimoiy-demografik xususiyatlar: yoshi, jinsi, ma’lumoti, oilaviy ahvoli (25 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan, ijtimoiy faol erkaklar, ammo so‘nggi paytlarda ayollar va yoshlarning ham jalb etilishi kuzatilmoqda, ko‘pincha o‘rta maxsus yoki oliy ma’lumotga ega, iqtisodiy va moliyaviy jarayonlardan xabardor shaxslar, ko‘p hollarda oilali, tashqi ko‘rinishidan jamiyatda tinch hayot kechirayotgan, shubha uyg‘otmaydigan shaxslar);

2) psixologik va g‘oyaviy qiyofasi – maqsad va motivi, ruhiy holati (jinoyat asosan diniy ekstremistik g‘oyalar, siyosiy qarashlar yoki moddiy manfaatdorlik ta’sirida sodir etiladi, yuqori darajadagi ehtiyotkorlik, maxfiylikka intilish va jazodan qutulib qo-



lishga ishonch, ular o‘zlarini “g‘oyaviy kurashchi” yoki “xayriya qiluvchi” deb hisoblashlari mumkin);

3) kasbiy va lavozim belgilari – faoliyat turi, mansabi, ko‘nikmalari (tadbirkorlik, savdo-sotiq, nodavlat tashkilotlar yoki moliyaviy xizmatlar bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, ayrim hollarda mansabdor shaxslar o‘z xizmat mavqeyidan foydalanib pul o‘tkazmalarini yashirish yoki qonuniylashtirishga ko‘maklashishi mumkin, zamonaviy axborot texnologiyalari, kriptoaaktivlar va onlayn to‘lov tizimlaridan mohirona foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi);

4) jinoiy xulq-atvor va aloqalar – tashkiliy bog‘liqlik, jinoyatni sodir etish usuli (odatda xalqaro terroristik tashkilotlar yoki ularning vositachilari bilan yashirin aloqada bo‘ladi, mablag‘larni bo‘lib-bo‘lib o‘tkazish, xayriya niqobi ostida yig‘ish yoki norasmiy pul o‘tkazish tizimlaridan foydalanish).

Xalqaro miqyosda terrorizmni moliyalashtiruvchilar uchta asosiy toifaga ajratiladi:

1) mafkuraviy homiyalar – o‘z mablag‘larini diniy yoki siyosiy qarashlari tufayli ixtiyoriy beradigan jismoniy shaxslar (ular ko‘pincha kichik miqdorlarda (“smurfing”) doimiy xayriyalar qilib turadi);

2) professional fasilitatorlar (vositachilar) – pul o‘tkazmalari tizimida ishlaydigan yoki noqonuniy moliyaviy tizimlarni boshqaradigan shaxslar (ular uchun mafkuradan ko‘ra xizmat haqi muhimroq bo‘lishi mumkin);

3) niqoblangan tadbirkorlar – qonuniy biznes (savdo, NNT, xayriya jamg‘armalari) yuritib, daromadning bir qismini yashirincha terrorchi guruhlariga yo‘naltiruvchilar.

Xalqaro tajribada terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish va jinoyatchi shaxsini o‘rganish asosan FATF (Jinoiy faoliyattan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy chora-

lar ko‘ruvchi guruh) standartlari va BMT rezolyutsiyalariga asoslanadi.

Xususan, xalqaro standartlarning asosi hisoblanadigan FATFning “40+9” tavsiyalari davlatlardan bir qancha masalalarni, shu jumladan, jinoiy javobgarlikni, ya’ni terrorizmni moliyalashtirishni nafaqat aniq bir terrorchilik harakati bilan bog‘liq holda, balki terrorchi tashkilot yoki alohida terrorchini shunchaki qo‘llab-quvvatlaganlikni ham jinoyat deb hisoblashni hamda aktivlarni muzlatishni, ya’ni BMT Xavfsizlik kengashi ro‘yxatiga tushgan shaxslarning mablag‘larini sud qarorisiz, zudlik bilan muzlatish mexanizmini qo‘llashni talab qiladi.

Xalqaro tajribada jinoyatchilarning texnik qiyofasi o‘zgarmoqda. Xususan, kriptovalyutalar, mablag‘larni anonim o‘tkazish uchun kriptoaaktivlardan foydalanish kengaymoqda, kraudfanding va ijtimoiy tarmoqlar, xayriya niqobi ostida ijtimoiy tarmoqlarda keng ommadan pul yig‘ish holatlari ko‘paygan, kiberfiribgarlik, terrorchilikni moliyalashtirish uchun mablag‘larni xakerlik yoki onlayn firibgarlik orqali topish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Har bir davlatda moliyaviy razvedka bo‘linmasi (Financial Intelligence Unit) mavjud bo‘lib, ular “Egmont” guruhi doirasida shubhali tranzaksiyalar haqida o‘zaro tezkor ma’lumot almashadilar. Bu esa transmilliy moliyaviy izlarni aniqlash imkonini beradi.

Ushbu ma’lumotlar terrorizmni moliyalashtirishning iqtisodiy asoslarini kesish va oldindan aniqlash strategiyasini tuzishda asos bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlar, ya’ni terrorizmni moliyalashtirish jinoyatining kriminalistik tavsifi tergov amaliyotida dalillar va elektron dalillarni aniqlash, to‘g‘ri tergov versiyalarini ilgari surish hamda jinoyatchini fosh etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Файзулла МИРЗАЕВ,
доцент кафедры Правоохранительной
академии Республики Узбекистан

ПРАВОВОЙ СТАТУС СУБЪЕКТОВ ПЕРВИЧНОГО ФИНАНСОВОГО МОНИТОРИНГА В СИСТЕМЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ОТМЫВАНИЮ ДОХОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ. В статье исследуется правовой статус субъектов первичного финансового мониторинга в системе противодействия легализации преступных доходов в Республике Узбекистан. Обосновывается их квази-публичная природа как участников публичного управления, реализующих делегированные функции финансового контроля. На основе анализа международных стандартов ФАТФ, национального законодательства и административно-правовой доктрины раскрывается содержание административной правосубъектности СПФМ, включающей правоспособность, дееспособность и компетенцию. Выявлены проблемы формализации риск-ориентированного подхода и предложены направления совершенствования правового регулирования.

ANNOTATSIYA. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimidagi birlamchi moliyaviy monitoring subyektlarining huquqiy maqomi tadqiq etiladi. Ularning moliyaviy nazoratning yuklatilgan funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi ishtirokchilari sifatidagi ommaviy-huquqiy xususiyati asoslab beriladi. FATF xalqaro standartlari, milliy qonunchilik va ma‘muriy-huquqiy doktrina tahlili asosida birlamchi moliyaviy monitoring subyektlarining huquq layoqati, muomala layoqati va vakolatlarini o‘z ichiga olgan ma‘muriy huquq subyektligi mazmuni ochib beriladi. Tavakkalchilikka asoslangan yondashuvni rasmiylashtirish muammolari aniqlangan va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etilgan.

ABSTRACT. The article examines the legal status of entities conducting primary financial monitoring within the system of combating the legalization of criminal proceeds in the Republic of Uzbekistan. Their quasi-public nature is substantiated, identifying them as participants in public administration who exercise delegated financial control functions. Based on an analysis of FATF international standards, national legislation, and administrative-legal doctrine, the study reveals the substance of the administrative legal personality of these entities, including their legal capacity, dispositive capacity, and competence. Issues regarding the formalization of a risk-based approach are identified, and directions for improving legal regulation are proposed.

Ключевые слова: субъекты первичного финансового мониторинга, ПОД/ФТ, ФАТФ, административная правосубъектность, квази-публичный статус, риск-ориентированный подход, финансовый контроль.

Kalit so‘zlar: birlamchi moliyaviy monitoring subyektlari, JDL/TM, FATF, ma‘muriy huquq subyektligi, ommaviy-huquqiy maqom, tavakkalchilikka asoslangan yondashuv, moliyaviy nazorat.

Key words: entities conducting primary financial monitoring, AML/CFT, FATF, administrative legal personality, quasi-public status, risk-based approach, financial control.

Глобализация финансовых потоков и усложнение механизмов легализации преступных доходов обуславливают пересмотр подходов к противодействию отмыванию доходов, превращая его в ключевой элемент экономической безопасности. В Республике Узбекистан данная трансформация получила нормативное закрепление через внедрение риск-ориентированной модели противодействия отмыванию доходов и финансированию терроризма (далее ПОД/ФТ), предполагающей смещение акцента с формального контроля

на выявление и оценку рисков¹.

Вместе с тем правовой статус субъектов первичного финансового мониторинга (далее СПФМ) остаётся недостаточно разработанным в научной литературе.

Это упрощает понимание роли СПФМ и не отражает их фактическое участие в механизме финансового контроля. Между тем международные стандарты ФАТФ и национальное законодательство закрепляют иную модель: на данные субъекты возлагается обязанность самостоятельной оценки рисков, анализа информации

1 <https://lex.uz/ru/docs/5482739>



и принятия решений в условиях риска. Это требует пересмотра устоявшихся научных подходов.

В связи с этим возникает необходимость определения правовой природы СПФМ как самостоятельной категории участников правоотношений. Для его решения необходимо обратиться к доктринальным подходам к финансовому мониторингу.

Рекомендации ФАТФ (1, 10, 20, 22) предусматривают самостоятельную оценку рисков и выявление подозрительных операций².

Международные стандарты ФАТФ реализуются в национальной системе через перераспределение управленческих функций на уровень СПФМ, что закреплено в стратегии ПОД/ФТ и подзаконных актах, ориентирующих их на самостоятельное принятие решений.

При этом результаты национальной оценки рисков, проведённой в Республике Узбекистан, подтверждают значимость модели, основанной на оценке рисков и указывают на необходимость усиления роли СПФМ в выявлении и анализе рисков операций³.

В административно-правовой доктрине это рассматривается как расширение круга субъектов публичного управления⁴.

Субъекты первичного финансового мониторинга — это хозяйствующие субъекты, наделённые законом квази-публичным статусом, выражающимся в участии в реализации публично-обязательных функций финансового контроля.

Закрепление перечня субъектов в статье 12 Закона № 660-II подтверждает

функциональный характер СПФМ, определяемый не их правовой формой, а участием в движении финансовых активов⁵.

Таким образом, СПФМ следует рассматривать как элементы распределённого публичного регулирования, обладающие административной правосубъектностью, реализующие делегированные функции финансового контроля и обеспечивающие функционирование риск-ориентированной модели ПОД/ФТ.

Для более точного раскрытия правовой природы субъектов первичного финансового мониторинга целесообразно обратиться к категории административной правосубъектности. В административно-правовой доктрине она рассматривается как совокупность административной правоспособности и административной дееспособности, определяющих возможность субъекта участвовать в управленческих правоотношениях и реализовывать возложенные на него функции⁶.

Административная правосубъектность СПФМ выражается в способности осуществлять финансовый мониторинг, принимать риск-ориентированные решения и нести ответственность за их результаты. Их деятельность носит императивный характер, поскольку обязанности по идентификации клиентов, выявлению подозрительных операций и передаче информации закреплены законом и не зависят от усмотрения субъекта.

Нормативную основу статуса СПФМ формирует Закон Республики Узбекистан № 660-II, устанавливающий их обязанности и функциональную роль в системе финансового контроля. Императивный

2 https://eurasiangroup.org/files/uploads/files/FATF_Recommendations_2025_rus.pdf

3 Национальная оценка рисков легализации доходов, полученных от преступной деятельности и финансированию терроризма. Публичный отчёт, 2023 г.

4 Тихомиров Ю.А. Административное право и процесс: полный курс. – М.: Издание М.Ю. Тихомирова, 2005 г. – С. 697.

5 <https://lex.uz/ru/docs/284542>

6 Адарченко Е.О. Административная правосубъектность юридических лиц публичного права // Административное и муниципальное право. – 2013 г. – № 5 (65). – С. 410–414.



характер данных обязанностей свидетельствует о включённости СПФМ в систему публичного управления.

В рамках данной модели формируется конструкция делегированного финансового контроля, при которой СПФМ осуществляют первичную фильтрацию операций, обеспечивая основу для последующих управленческих решений. Такая модель соответствует риск-ориентированному подходу ФАТФ и отражает тенденцию к децентрализации контрольных функций.

Системность обязанностей СПФМ закреплена в статье 15 Закона № 660-II. Данная норма формирует комплекс императивных требований, включающих идентификацию клиентов, оценку рисков, отказ в проведении операций и направление сообщений о подозрительных операциях. Это подтверждает публично-обязательный характер их деятельности.

При этом законодательно закреплённый перечень организаций, осуществляющих операции с денежными средствами или иным имуществом, свидетельствует о широком функциональном охвате системы и включает как финансовые институты, так и субъекты нефинансовых предприятий и профессий. Такая конструкция подтверждает, что статус СПФМ определяется не организационно-правовой формой субъекта, а характером осуществляемых им операций, связанных с движением финансовых активов.

Различия между финансовыми институтами и субъектами нефинансовых предприятий и профессий предопределяют неоднородность реализации риск-ориентированного подхода.

Структурно статус СПФМ представляет собой систему взаимосвязанных элементов, в которой ключевое значение имеют обязанности, а права носят обеспечительный характер и направлены на реализацию возложенных публичных задач.

При этом административная дееспособность СПФМ получает конкретное выражение в системе юридически значимых действий, закреплённых в статье 15 Закона № 660-II. Речь идёт о самостоятельном принятии решений, имеющих правовые последствия, включая отказ в проведении операций, прекращение деловых отношений и направление сообщений о подозрительных операциях. Тем самым они реализуют делегированные функции публичного контроля в форме индивидуальных управленческих решений.

Её реализация осуществляется на основе риск-ориентированного подхода, предполагающего самостоятельную оценку риска и выбор мер реагирования.

Данная конструкция отличается от статуса классических юридических лиц публичного права отсутствием собственных властных полномочий, однако сближает СПФМ с ними по функциональной направленности их деятельности.

Компетенция СПФМ выражается в пределах усмотрения при оценке рисков и признании операций подозрительными, что обеспечивает гибкость риск-ориентированного подхода.

Следовательно, СПФМ выступают как институционально включённые элементы административно-правового механизма ПОД/ФТ, обеспечивающие реализацию функций финансового контроля на уровне хозяйствующих субъектов.

Предложенный подход позволяет квалифицировать правовой статус СПФМ, обосновывая их двойственную правовую природу как частных субъектов, выполняющих публично значимые функции в рамках делегированного финансового контроля.

Несмотря на сформированную нормативную модель, её практическая реализация сопровождается рядом ограничений. В частности, деятельность значительной части СПФМ сохраняет процедурный ха-



ракти, что снижает эффективность финансового мониторинга.

Е.В. Головин отмечает доминирование процедурного подхода, ограничивающего раскрытие управленческой и публичной сущности финансового мониторинга⁷.

В научной литературе финансовый мониторинг преимущественно рассматривается прикладно, без осмысления его публично-правовой природы.

Причины носят системный характер и связаны с ориентацией регулирования на формальное соблюдение процедур. Это приводит к недостаточной реализации административной дееспособности СПФМ, выражающейся в ограниченном использовании аналитических инструментов.

Особенно остро данная проблема проявляется в секторе нефинансовых предприятий и профессий, где ограниченные ресурсы и низкий уровень институциональной готовности обуславливают формальный характер реализации риск-ориентированного подхода.

Отсутствие унифицированных крите-

риев оценки рисков и недостаточность обратной связи со стороны уполномоченных органов усиливают дифференциацию практики и снижают адаптивность системы.

Таким образом, сохраняется разрыв между нормативной моделью и её практической реализацией.

Проведённый анализ подтверждает необходимость переосмысления места СПФМ в системе административного права. СПФМ представляют собой элементы распределённого публичного регулирования, реализующие делегированные функции финансового контроля.

Научная новизна исследования заключается в обосновании квази-публичной природы правового статуса СПФМ через категорию административной правосубъектности и раскрытии их роли как субъектов распределённого публичного регулирования.

Реализация данного подхода требует унификации критериев оценки рисков и разработки методических ориентиров применения риск-ориентированного подхода.

.....
#

7 Головин Е.В. Правовой статус субъектов первичного финансового мониторинга в системе противодействия отмыванию доходов // Молодой учёный. – 2025 г. – № 27 (578).



Тимур КЕНЖАЕВ,
доктор философии юридических наук (PhD), доцент / самостоятельный
соискатель Правоохранительной академии Республики Узбекистан

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ И ИХ ПРОЕКТОВ

АННОТАЦИЯ. В статье исследуются теоретико-правовые основы антикоррупционной экспертизы нормативно-правовых актов и их проектов как самостоятельного правового института превентивного характера. Рассматривается структурная природа антикоррупционной экспертизы через анализ взаимосвязанных категорий «коррупция», «нормативно-правовой акт», «проект нормативно-правового акта» и «экспертиза». На основе доктринальных и легальных подходов раскрывается многоаспектный характер коррупции, обосновывается необходимость её расширительного понимания, охватывающего как публичный, так и частный сектор.

Проведён сравнительно-правовой анализ международных антикоррупционных актов, модельного законодательства СНГ и национального законодательства Республики Узбекистан, выявлены разночтения в легальных дефинициях антикоррупционной экспертизы и обоснована необходимость их систематизации. Особое внимание уделено эволюции нормативного закрепления антикоррупционной экспертизы в правовой системе Республики Узбекистан, а также институциональным особенностям её реализации.

По итогам исследования сформулировано авторское определение антикоррупционной экспертизы как комплексной юридически значимой деятельности превентивного характера, направленной на выявление, оценку и устранение коррупциогенных факторов, прогнозирование коррупционных рисков и повышение качества правового регулирования. Делается вывод о ключевой роли антикоррупционной экспертизы в системе обеспечения устойчивости и антикоррупционной надёжности законодательства.

ANNOTATSIIYA. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalariga nisbatan korrupsiyaga qarshi ekspertizaning preventiv xususiyatga ega mustaqil huquqiy institut sifatidagi nazariy-huquqiy asoslari tadqiq etiladi. Korrupsiyaga qarshi ekspertizaning strukturaviy tabiati o‘zaro bog‘liq bo‘lgan “korrupsiya”, “normativ-huquqiy hujjat”, “normativ-huquqiy hujjat loyihasi” va “ekspertiza” kategoriyalari tahlili orqali ochib beriladi. Doktrinal va legal yondashuvlar asosida korrupsiyaning ko‘p qirrali xususiyati yoritilib, uni keng talqinda tushunish, ya’ni davlat (ommaviy) va xususiy sektorni qamrab oluvchi yondashuv zarurligi asoslab beriladi.

Tadqiqot doirasida xalqaro antikorrupsiya hujjatlari, MDHning model qonunchiligi hamda O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, korrupsiyaga qarshi ekspertiza tushunchasining legal ta’riflaridagi tafovutlar aniqlanadi va ularni tizimlashtirish zarurati asoslanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida korrupsiyaga qarshi ekspertizaning normativ mustahkamlanishi evolyutsiyasi hamda uni amalga oshirishning institutsional xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi ekspertizaga preventiv xarakterga ega, korrupsiya keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, baholash va bartaraf etish, korrupsiya xavflarini prognozlash hamda huquqiy tartibga solish sifatini oshirishga qaratilgan kompleks, yuridik ahamiyatga ega faoliyat sifatida mualliflik ta’rifi beriladi. Xulosa sifatida korrupsiyaga qarshi ekspertizaning qonunchilik barqarorligi va antikorrupsiyaviy ishonchliligini ta’minlash tizimidagi muhim o‘rni asoslab beriladi.

ABSTRACT. The article examines the theoretical and legal foundations of anti-corruption expertise of normative legal acts and their drafts as an independent preventive legal institution. The structural nature of anti-corruption expertise is analysed through interconnected legal categories such as corruption, normative legal act, draft normative legal act and expertise. Based on doctrinal and legal approaches, the multifaceted nature of corruption is revealed and the necessity of its broad interpretation covering both the public and private sectors is substantiated.

The study provides a comparative legal analysis of international anti-corruption instruments, CIS model legislation and the national legislation of the Republic of Uzbekistan, identifying inconsistencies in the legal definitions of anti-corruption expertise and justifying the need for their systematic harmonisation. Particular attention is paid to the evolution of normative regulation and institutionalisation of anti-corruption expertise within the legal system of Uzbekistan.

As a result of the research, an author’s definition of anti-corruption expertise is proposed as a comprehensive legally significant preventive activity aimed at identifying, assessing and eliminating corruption-related factors, forecasting corruption risks and improving the quality of legal regulation. The article concludes that anti-corruption expertise plays a key role in ensuring legislative stability and the anti-corruption resilience of the legal system.

Ключевые слова: Антикоррупционная экспертиза, коррупция, коррупциогенные факторы, нормативно-правовой акт, проект нормативно-правового акта, правотворчество, противодействие коррупции, превентивные меры.

Kalit so‘zlar: korrupsiyaga qarshi ekspertiza, korrupsiya, korrupsiyaga olib keluvchi omillar, normativ-huquqiy hujjat, normativ-huquqiy hujjat loyihasi, huquq ijodkorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish, preventiv choralar.

Key words: anti-corruption expertise, corruption, corruption-related factors, normative legal act, draft normative legal act, law-making process, anti-corruption policy, preventive mechanisms.



Понятие «антикоррупционная экспертиза нормативно-правовых актов и их проектов», рассматриваемое в настоящем исследовании, обладает сложной структурой и включает совокупность взаимосвязанных правовых категорий, в числе которых «коррупция», «экспертиза», «проект» и «нормативно-правовой акт». Каждая из указанных категорий получила самостоятельную научно-теоретическую разработку в юридической доктрине, при этом категория коррупции отличается межотраслевым и многоаспектным характером, охватывая широкий круг сфер публичного и частного регулирования.

The low level of detection and clearance of crimes related to drug smuggling indicates the need to improve investigation methodologies and to actively implement the results of forensic research into the practical activities of customs and other law enforcement agencies. Enhancing the effectiveness of combating drug smuggling is possible only through a comprehensive approach that includes the development of forensic science, the improvement of legal regulation, and the strengthening of interagency cooperation.

.....



Sadriddin ESANALIYEV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

JINOYAT PROTSESSNING BIRINCHI INSTANSIYA SUDLARIDA ISH YURITISHNING PROTSESSUAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Maqolada dastlabki eshituvning protsessual asoslari (jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni to'xtatib turish, tugatish, jinoyat ishini ayblov dalolatnomasini, ayblov xulosasini yoki tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan prokurorga yuborish, jinoyat ishlarini birlashtirish, ajratish, nomaqbul dalillarni ishdan chiqarib tashlash) tartib-taomillari, huquqiy bo'shliqlar, sudyaning tashabbusi hamda taraflarning iltimosnomasi, dastlabki eshituv muddatlari, jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish masalalari ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье представлены процессуальные основы предварительного слушания (приостановление, прекращение уголовного дела, передача прокурору для утверждения обвинительного заключения, обвинительного акта или применения принудительных мер медицинского характера, объединение или разделение уголовных дел, исключение недопустимых доказательств), правовые пробелы, инициатива судьи и ходатайства сторон, сроки предварительного слушания, а также вопросы совершенствования уголовно-процессуального законодательства.

ABSTRACT. The article presents the procedural foundations of the preliminary hearing (suspension, termination of criminal proceedings, submission to the prosecutor for approval of the indictment, indictment act, or the application of coercive medical measures, consolidation or separation of criminal cases, exclusion of inadmissible evidence), legal gaps, the initiative of the judge and the petitions of the parties, the timelines for preliminary hearings, as well as issues related to the improvement of criminal procedural legislation.

Kalit so'zlar: dastlabki eshituv asoslari, jinoyat ishini to'xtatib turish, tugatish, prokurorga yuborish, jinoyat ishlarini birlashtirish, ajratish, nomaqbul dalillarni ishdan chiqarib tashlash, sud ajrimi, ayblanuvchi, himoyachi, sudya, prokuror.

Ключевые слова: Основы предварительного слушания, приостановление уголовного дела, прекращение, направление прокурору, объединение уголовных дел, разделение, исключение недопустимых доказательств из дела, судебное решение, обвиняемый, защитник, судья, прокурор.

Key words: The foundations of preliminary hearings, suspension of criminal proceedings, termination, referral to the prosecutor, consolidation of criminal cases, separation, exclusion of inadmissible evidence from the case, judicial decision, defendant, defense attorney, judge, prosecutor.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 2021-yilda 92 ta, 2022-yilda 791 ta, 2023-yilda 1053 ta, 2024-yilda 1112 ta jinoyat ishlari dastlabki eshituv tarzida ko'rib chiqildi. O'tkazilgan dastlabki eshituvlar **sudlarning tashabbusi** bilan 2021-yilda 62 ta, 2022-yilda 654 ta, 2023-yilda 918 ta, 2024-yilda 1014 tani tashkil etgan bir vaqtda, **taraflarning tashabbusi** 2021-yilda 30 ta, 2022-yilda 137 ta, 2023-yilda 135 ta, 2024-yilda 98 tani tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlarning yildan-yilga sezilarli darajada ortayotganligi milliy qonunchilikni takomillashtirishni hamda huquqni qo'llashning yagona amaliyotini shakllantirishni taqozo etadi.

Shunga ko'ra, birinchi instansiya sudlarida ish yuritishning protsessual asoslarini takomillashtirish maqsadida bir qator munozara-

li masalalarga to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz.

Birinchiidan, huquqni qo'llash amaliyotining tahlili *jinoyat ishlarini dastlabki eshituv bosqichida ko'rib chiqish muddatini ishni sudda umumiy tartibda muhokama qilish muddatiga kiritish yoki kiritmaslik bo'yicha* turlicha talqin qilinayotganligini ko'rsatmoqda. Bu esa amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik normalarini har xil qo'llash amaliyoti shakllanishi, o'z navbatida, turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Vaholanki, amaldagi JPKda dastlabki eshituv bosqichining protsessual asoslari, tartibi, muddatlari alohida belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash bosqichida sudya uzog'i bi-



lan o‘n sutka ichida tegishli ajrimlardan birini chiqarishi lozimligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, JPKning 405-moddasida “jinoyat ishini sudda muhokama qilish muddati ishni muhokama qilish boshlangan kundan e‘tiboran ikki oydan oshmasligi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan”¹. Bundan qonunda jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun *tayyorlash bosqichi uchun belgilangan o‘n sutka muddat jinoyat ishini sudda muhokama qilish muddatiga qo‘shilmaydi* degan xulosaga kelishimiz mumkin bo‘ladi.

Mazkur omillarni inobatga olib, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalari tahlilidan kelib chiqqan holda *jinoyat ishlari ni dastlabki eshituv bosqichida ko‘rib chiqish muddatini (o‘n sutka) ishlarni umumiy sud muhokamasida ko‘rib chiqish muddatiga kiritmaslik lozim*, degan xulosaga kelish mumkin. Mazkur xulosa so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 79 foizi tomonidan ma‘qullangan.

Bizningcha, amaldagi JPKning 405-moddasi ikkinchi qismini “*Dastlabki eshituv o‘tkazish muddatlari jinoyat ishini sudda muhokama qilish muddatiga kirmaydi*”, deb qayd etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, jinoyat-protsessual qonunchilikda sud taraflarning iltimosiga ko‘ra yoki o‘z tashabbusi bilan jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki eshituv o‘tkazishining umumiy tartibi belgilangan bo‘lsa-da, lekin *nomaqbul dalillarni chiqarib tashlash to‘g‘risidagi ishlarda sudning tashabbus ko‘rsatishi borasida aniq qoidalar belgilanmaganligi* huquqni qo‘llash amaliyotida turli xil tushunmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo‘layotganligini ko‘rish mumkin. Aynan mazkur omilni inobatga olib nomaqbul dalillarni chiqarib tashlash to‘g‘risidagi ishlarda *sudning tashabbus ko‘rsatishi* amaldagi JPKda asoslantirilishi darkor. Mazkur taklif so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 70 foizi tomonidan ma‘qullangan.

Mazkur asosga ko‘ra, amaldagi JPKning 405¹¹-moddasi birinchi qismini “*Taraflar jinoyat ishi materiallaridagi har qanday dalilni, agar ularni nomaqbul dalillar deb hisoblasa, chiqarib tashlash to‘g‘risida iltimosnoma berishga yoki sud o‘z tashabbusiga ko‘ra nomaqbul dalillarni chiqarib tashlash haqida dastlabki eshituv o‘tkazishga haqli*”, deb qayd etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda barcha sudlarda jinoyat ishlari oshkora ko‘rilishi, bundan davlat sirlarini qo‘riqlash manfaatlariga zid keladigan hollar, shuningdek, jinsiy jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar ko‘rilayotgan hollar mustasno ekanligi, sudlarda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi prinsipini cheklaydigan qo‘shimcha talablarni joriy etish taqiqlanishiga oid qoidalar belgilangan.

Biroq, amaldagi JPKda jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki eshituv *yopiq sud majlisida ko‘rib chiqilishi* qayd etilganligi sababli bugungi kunda sudlar tomonidan dastlabki eshituv o‘tkazishga yetarli asoslar mavjud bo‘lgani holda videokonferensaloqa rejimidan foydalana olmayotganliklari protsess ishtirokchilarining ortiqcha vaqt va resurs sarflashlariga sabab bo‘layotganligi amaliyotchi xodimlar tomonidan ham tanqid ostiga olinmoqda.

Qonunchilikdagi mazkur qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadida AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda dastlabki eshituv *ochiq sud* majlisida ko‘rilishi inobatga olinib, dastlabki eshituv bosqichi *ochiq sud* majlisida o‘tkazilishi lozimligi haqidagi normani aks ettirish zaruriyati milliy qonunchiligimizda asoslantirilishi lozim deb bilamiz. Mazkur fikr so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 90 foizi tomonidan ham ma‘qullangan.

Fikrimizcha, amaldagi Jinoyat-protsessual

1 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son; 03/26/1114/0047-son. <https://lex.uz/uz/docs/-111460>.



al kodeksining 405⁶-moddasi birinchi qismini “*Dastlabki eshituv sudya tomonidan ochiq sud majlisida yakka tartibda, taraflar ishtirokida o‘tkaziladi, bundan davlat sirlarini qo‘riqlash manfaatlariga zid keladigan hollar, shuningdek, jinsiy jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar ko‘rilayotgan hollar mustasno*”, deb qayd etish lozim.

To‘rtinchidan, huquqni qo‘llash amaliyotida dastlabki eshituv bosqichida ishni ko‘rib chiqqan sudyaning umumiy sud muhokamasida ham ishtirok etayotganligi bo‘yicha turlicha talqinlar kuzatilmoqda.

Vaholanki, amaldagi JPKda birinchi instansiya sudida ishni ko‘rishda ishtirok etgan sudya o‘z ishtirokida chiqarilgan hukm, ajrim bekor qilinganidan keyin o‘sha ishni ko‘rishda ishtirok eta olmasligi qayd etilgan.

Bundan qonunda jinoyat ishini dastlabki eshituv tarzida ko‘rishda ishtirok etgan sudya o‘z ishtirokida chiqarilgan ajrim bekor qilinganidan keyin o‘sha ishni ko‘rishda ishtirok eta olmasligi haqidagi xulosaga kelishimiz mumkin bo‘ladi. Mazkur omillarni inobatga olib, BMT Inson huquqlari qo‘mitasi ko‘rsatmalari, Yevropa Inson huquqlari sudining (EIHS) tavsiyalari, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalari tahlilidan kelib chiqqan holda dastlabki eshituv bosqichida jinoyat ishini amaldagi JPKning 83-moddasi, 84-moddasi birinchi va beshinchi qismlari bilan tugatgan sudya ushbu ishni keyinchalik umumiy sud muhokamasida va keyingi bosqichlarda ko‘rishda ishtirok eta olmaydi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Mazkur taklif so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 70 foizi tomonidan ma‘qullangan.

Amaldagi JPKning 76-moddasiga quyidagi tahrirda qo‘shimcha kiritish maqsadga muvofiq: “*Jinoyat ishlarini dastlabki eshituv bosqichida JPKning 83-moddasi,*

84-moddasi birinchi va beshinchi qismlari bilan tugatgan sudya mazkur jinoyat ishini keyinchalik birinchi instansiya sudida umumiy sud muhokamasida, apellyatsiya, kasatsiya hamda taftish instansiyasida ko‘rib chiqishda ishtirok eta olmaydi”.

Beshinchidan, ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxsning dastlabki eshituv bosqichida huquqiy maqomi ayblanuvchi deb yuritilishi bizningcha munozarali. Sababi amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligida *ayblanuvchi sudda sudlanuvchi deb atalishi* haqidagi qoidalar belgilanganligi, dastlabki eshituv sud muhokamasining umumiy qoidalari bo‘yicha sudya tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda, taraflar ishtirokida o‘tkazilishi, amaldagi JPKning 25-moddasi to‘rtinchi qismida “**sudlanuvchi (ayblanuvchi emas)** taraf sifatida ishtirok etishi qayd etilgani”, dastlabki eshituv bosqichida jinoyat ishlari JPKning 83-moddasi, 84-moddasi birinchi, beshinchi qismlari bilan tugatilishi mumkinligi”² kabi bir qator qoidalarni inobatga olib, ilg‘or xorijiy mamlakatlar, jumladan, AQSH, Kanada, Italiya, Buyuk Britaniya tajribalari asosida dastlabki eshituv bosqichida shaxsning huquqiy maqomi “**sudlanuvchi**” deb yuritilishi asoslantirilishi lozim. Mazkur fikr so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 67 foizi tomonidan ma‘qullangan.

Shunga ko‘ra, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining 49¹-bobida “**ayblanuvchi**” degan so‘zni “**sudlanuvchi**” degan so‘zga tegishli son va kelishikda o‘zgartirish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, amaldagi JPKning 405¹²-moddasiga ko‘ra, “*sudya jinoyat ishi sud tomonidan ko‘rib chiqilishiga doir to‘sqinliklarni bartaraf etish uchun uni taraflarning iltimosnomasiga ko‘ra yoki o‘z tashabbusi bilan prokurorga yuborishga haqli*”³.

2 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son; 03/26/1114/0047-son. <https://lex.uz/uz/docs/-111460>.

3 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son; 03/26/1114/0047-son. <https://lex.uz/uz/docs/-111460>.



Biroq, amaldagi qonunchilikda prokurorga yuborilgan jinoyat ishi prokuror tomonidan qancha vaqt ichida sudga qayta yuborilishi yoki jinoyat ishining keyingi taqdiri haqida sudni xabardor qilish mexanizmi mavjud emas. Bizningcha, dastlabki eshituv bosqichida jinoyat ishini prokurorga yuborish to‘g‘risidagi sud ajrimida qanday holatlarga aniqlik kiritilishi haqidagi masalalar bilan bir qatorda ajrimning ijro muddati yoki jinoyat ishining keyingi taqdiri haqida sudni xabardor qilish masalalari ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq.

Yettinchidan, amaldagi JPKning 13-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, “jinoyat ishlari hay’atda ko‘riladi, Jinoyat kodeksi 15-moddasining ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar esa sudya tomonidan yakka tartibda ko‘riladi”⁴.

Biroq, amaldagi JPKning 405⁶-moddasi birinchi qismida “dastlabki eshituv sudya tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda, tarafalar ishtirokida o‘tkazilishi”⁵ qayd etilgan.

Shu o‘rinda Jinoyat kodeksining 15-moddasi beshinchi qismida nazarda tutilgan qasdandan sodir etilib, qonunda *o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyat ishlarining dastlabki eshituv bosqichida ko‘rib chiqilishida amaldagi JPKning 405⁶-moddasi birinchi qismi hamda 13-moddasi o‘rtasida bir-biriga muvofiq kelmaydigan qoidalarni ko‘rishimiz mumkin.*

Shunga ko‘ra, huquqni qo‘llash amaliyotida turli talqinlar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida amaldagi JPKning 13-moddasi birinchi qismini “*Jinoyat ishlari hay’atda ko‘riladi, Jinoyat kodeksi 15-moddasining ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi qismlarida na-*

zarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar esa sudya tomonidan yakka tartibda ko‘riladi, kodeksning 49¹-bobida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno”, deb qayd etishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Sakkizinchidan, huquqni qo‘llash amaliyotida jinoyat ishlari tegishli sudlarga kelib tushganligi haqida taraflar xabarsiz qolib ketayotganliklari oqibatida ularning dastlabki eshituv o‘tkazish haqidagi iltimosnomalari sudlar tomonidan asossiz rad etilayotganligi tanqid ostiga olinmoqda.

Yohud ayblanuvchi ayblov dalolatnomasining yoki ayblov xulosasining ko‘chirma nusxasini olgan kundan e‘tiboran uch sutka ichida sudga dastlabki eshituv o‘tkazish bo‘yicha iltimosnoma berishni lozim deb topgan hollarda, jinoyat ishi tegishli sudga kelib tushmagan yoki joylarda viloyat sudi tomonidan ish boshqa hudud sudiga olib berilgan yoxud jinoyat ishlari sudga kelib tushgan kunning o‘zida sudlar tomonidan ishni umumiy tartibda ko‘rib chiqishga tayinlab qo‘ygan holatlar taraflarning dastlabki eshituv o‘tkazish haqida iltimosnoma taqdim etish huquqlarini cheklab qo‘yishi tabiiy.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2022-yil 14-maydagi “Jinoyat ishlari birinchi instansiyada ko‘rib chiqishga tayyorlash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 6-sonli qaroriga ko‘ra, “sudya ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasining ko‘chirma nusxasi ayblanuvchi tomonidan olingan kundan e‘tiboran *uch sutka o‘tgandan so‘ng berilgan dastlabki eshituv o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosnomani, basharti iltimosnoma berish muddati o‘tkazib yuborilishi sabablari uzrli emas deb topilsa, rad etishga haqli*”⁶ ekanligi ko‘rsatilgan.

Shunga ko‘ra, amaldagi jinoyat-protsessu-

4 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son; 03/26/1114/0047-son. <https://lex.uz/uz/docs/-111460>.

5 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son; 03/26/1114/0047-son. <https://lex.uz/uz/docs/-111460>.

6 Jinoyat ishlari birinchi instansiyada ko‘rib chiqishga tayyorlash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori. Toshkent sh., 2022-yil 14-may, 6-son.



al qonunchilikka jinoyat ishlari sudlarga kelib tushgan vaqtda taraflarni bu haqda xabardor qilgan holda tegishli ajrimlardan birini chiqarishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

To‘qqizinchidan, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda⁷ dastlabki eshituv natijalariga ko‘ra sudya tomonidan quyidagi ajrimlardan biri qabul qilinadi yoki rad etiladi:

1) *jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni to‘xtatib turish haqida;*

2) *jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni tugatish haqida;*

3) *jinoyat ishini ayblov dalolatnomasini, ayblov xulosasini yoki tibbiy yo‘sindagi majburlor chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlagan prokurorga yuborish haqida;*

4) *jinoyat ishlarini birlashtirish yoki ajratish haqida;*

5) *nomaqbul dalillarni ishdan chiqarib tashlash to‘g‘risida.*

Shu o‘rinda dastlabki eshituv o‘tkazish haqidagi iltimosnomalar sud tomonidan rad etilganda yoki dastlabki eshituv natijalari bo‘yicha jinoyat ishlari birlashtirilgan yoxud sud ajrimi bilan nomaqbul dalillar ishdan chiqarib tashlanganda, sudning keyingi harakatlari nimadan iborat bo‘lishi borasida savol tug‘ilishi tabiiy.

Mazkur holatga yechim sifatida “Amaldagi JPKning 405¹⁴-moddasi birinchi qismi 1,5-bandlarida nazarda tutilgan asoslar rad etilganda yoki jinoyat ishlarini birlashtirish, nomaqbul dalillarni jinoyat ishidan

chiqarib tashlash to‘g‘risida ajrim chiqarilganda sud bir vaqtda ishni sudda ko‘rish uchun tayinlash masalasini hal etishga haqli” degan qoidani amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilash maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Xulosa sifatida jinoyat ishlarini soddalashtirilgan tartibda dastlabki eshituv tarzida ko‘rib chiqish orqali sifatli jinoyat ishlarining sudga kelib tushishini ta‘minlash, nomaqbul dalillarning protsessual taqdirini o‘z vaqtida aniqlash, ayblov dalillarining qonuniyligi va haqqoniyligini tekshirishda taraflarning tortishuvini ta‘minlash, tergov bosqichida shaxslarning buzilgan huquqlarini dastlabki eshituv bosqichida to‘liq tiklash tartibini yanada soddalashtirish, jinoyat ishlarining keyingi taqdirini tez va adolatli hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, mazkur bosqichning ochiq yoki yopiq sud majlisida o‘tkazilishining aniq chegaralarini belgilash, jinoyat ishini dastlabki eshituv bosqichida tugatgan sudya mazkur jinoyat ishini keyinchalik qayta ko‘rib chiqishda ishtirok eta olmasligi, nomaqbul dalillarni chiqarib tashlash haqida dastlabki eshituv o‘tkazishga sudning tashabbus ko‘rsatish vakolatlari hamda ayb e‘lon qilingan shaxsning huquqiy maqomini belgilashni yanada takomillashtirish bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

.....
#

7 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son; 03/26/1114/0047-son. <https://lex.uz/uz/docs/-111460>.



Azizxon PO'LATOV,

Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

AYRIM TOIFADAGI SHAXSLARNI SO'ROQ QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada ayrim toifadagi shaxslarni so'roq qilishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ishda shaxsning guvoh sifatida so'roq qilishga uning ruhiy yoki jismoniy nuqsonlari (kar-soqov) to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan holatlar o'rganilgan. Ruxsat etilgan hollarda ularni so'roq qilish tartibi, surdotarjimon, shifokor va ekspertlarning talablari bilan bog'liq masalalar atroflicha ko'rib chiqilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются особенности допроса отдельных категорий лиц. Также в работе были изучены случаи, когда психические или физические недостатки (глухонмота) могут препятствовать допросу лица в качестве свидетеля. Также подробно рассмотрены вопросы, связанные с порядком их допроса в разрешенном порядке, требованиями сурдопереводчиков, врачей и экспертов.

ABSTRACT. This article analyzes the specific features of interrogating certain categories of persons. The case also examined the circumstances under which a person's mental or physical disabilities (deaf-mute) may prevent their questioning as a witness. Furthermore, the procedures for interrogating them in the prescribed manner, as well as the requirements of sign language interpreters, doctors, and experts, were thoroughly reviewed.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, guvoh, huquq va majburiyat, so'roq, ma'lumot, dalil, ko'rsatuv berish, ijtimoiy himoya, javobgarlik.

Ключевые слова: уголовный процесс, свидетель, права и обязанности, допрос, информация, доказательства, дача показаний, социальная защита, ответственность.

Key words: criminal procedure, witness, rights and obligations, interrogation, information, evidence, testimony, social protection, liability.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 65-moddasi mazmuniga ko'ra, jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holatni bilishi mumkin bo'lgan har qanday shaxs guvoh sifatida ko'rsatuv berish uchun chaqirilishi mumkin. Agar mazkur norma mazmunini e'tiborga oladigan bo'lsak, guvoh – bu *birinchidan*, jismoniy shaxs; *ikkinchidan*, jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotga ega shaxsdir. Shu bois Y.V.Vetrlaning fikricha, guvohning jinoyat protsessida ishtirok etishiga asos bo'ladigan qoida muayyan holatlarga asoslanadi, bular: a) guvoh ko'rsatuvlarining predmeti hisoblangan hamda faktik jihatdan takror tushunish obyekti bo'luvchi ma'lumotlar inson ongida aks etgan holda, anglovchi shaxsning xususiyatidan kelib chiqib, o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi; b) qonunga zid xatti-harakat uchun javobgarlik faqat jismoniy shaxs zimmasida bo'lishi

mumkin. Ushbu qoida jinoyat huquqining muhim prinsipi hisoblanadi¹.

Biroq, jinoyat protsessi tarixida doimo ayrim shaxslarni guvoh sifatida so'roq qilishni cheklovchi qoidalar mavjud bo'lgan. Jumladan, musulmon huquqida bunday cheklovlar umumiy tarzda ikki guruhga ajratilgan edi. *Birinchi guruhga* jismonan nuqsoni bo'lmagan, lekin ijtimoiy maqomi va roli tufayli ishonch bildirilmaydigan shaxslar, ya'ni muqaddam jinoyat sodir etgan va buning uchun jazoga tortilgan shaxslar, ayollar, muqaddam yolg'on ko'rsatuv berganligi ma'lum bo'lgan shaxslar, g'ayridinlar, musulmon dinini tark etgan shaxslar, qo'shiqchilar va boshqa toifadagi shaxslar kiritilgan. *Ikkinchi guruh* jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega bo'lgan shaxslar tarkibidan iborat bo'lib, aqli noraso va aqli zaif bo'lgan shaxslar tashkil qilgan. *Uchinchi guruh* esa

1 Ветрила Е.В. К вопросу о правосубъектности свидетеля // Вопросы российского и международного права. 2016 г., № 8, – С. 157-165.



sog‘lom, jismonan nuqsonga ega bo‘lmagan, ammo muayyan holatlar tufayli guvohlik berish majburiyatidan ozod etilgan shaxslardan iborat edi².

Jismoniy va ruhiy holatiga ko‘ra guvoh sifatida so‘roq qilish uchun jalb qilish man etilgan shaxslarning, xususan, jismoniy va ruhiy kamchilikka ega bo‘lgan shaxslarning toifasi O‘zbekistonning sovet ittifoqi tarkibiga kirgan davrida ham mavjud edi.

Jumladan, 1959-yildan amalga kiritilgan JPKning 55-moddasiga muvofiq, o‘zining jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari sababli jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni, hodisalarni esga ola olmaydigan va shular haqida to‘g‘ri ko‘rsatuvlar bera olmaydigan shaxslarni so‘roq qilish man etilgan³.

Hozirgi JPKda ham mazkur an‘ana saqlanib qolingan. Uning 115-moddasi 3-bandida ruhiy yoki jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni to‘g‘ri idrok etish va bu haqda ko‘rsatuv bera olish layoqatiga ega bo‘lmagan shaxsni guvoh yoki jabrlanuvchi sifatida so‘roq qilish mumkin emasligi belgilangan.

Mazkur masalaga oid avvalgi normalardan farqlovchi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Shulardan biri mamlakatimizda amalda bo‘lgan qonun normasida guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida so‘roq qilish mumkin bo‘lmagan shaxslarning jismoniy-ruhiy sifatlari-ga oid yuridik iboralarning juda aniq va asosli qo‘llanilganligidir. Ushbu iboralar “shaxsning ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni **idrok etish** hamda bu haqda **ko‘rsatuv bera olish layoqati**“ tushunchalarida aks etadi.

1959-yildagi JPKda e‘tirof etilgan “*hodisalarni to‘g‘ri ravishda esga ola olmaslik*” va shular haqida “*to‘g‘ri ko‘rsatuvlar bera olmaslik*” tufayli guvoh (yoki jabrlanuvchi) tariqasida so‘roq qilish mumkin emasligi

haqida belgilangan qoidadan ushbu masalani tartibga soluvchi amaldagi JPK normasi o‘zining yuridik aniq tushunchalari bilan jiddiy ravishda ustunlik qiladi.

Masalan, muayyan hodisani eslay olmaslik sog‘lom insonlarga ham xos bo‘lgan ruhiy-fiziologik holatdir. Xotirani yo‘qotish kasalligiga chalingan shaxslar, shuningdek, insonlarda tez-tez uchraydigan haddan tashqari his-hayajonga berilish, qattiq ruhiy zo‘riqishni boshidan kechirish, atrof-muhitga yoki sodir bo‘layotgan hodisaga e‘tiborsiz munosabatda bo‘lish kabi holatlar aynan sog‘lom kishilarda ham kuzatilishi mumkin. Bunday ruhiy-jismoniy holat ba‘zan qisqa vaqt davom etishi mumkin, ba‘san esa amaliyotda bunday shaxslarning xotirasida yashiringan ma‘lumotlarni gipnoz usulidan foydalanib qayta tiklash mumkin. Shunday ekan “*hodisalarni to‘g‘ri ravishda esga ola olmaslik*” holatiga oid tushunchalar bunday shaxsni guvoh sifatida so‘roq qilishga jiddiy ravishda to‘siq bo‘la olmaydi, taqiqlovning yuridik mohiyatiga mos kelmaydi.

Mamlakatimizning amaldagi protsessual qonuni tahlil qilinayotgan masalani tartibga solish texnikasi nuqtayi nazaridan tushunchalarni aniq ifoda etuvchi iboralarga ega. Ta‘kidlanganidek, jismoniy va ruhiy nuqsonga ega shaxslarni so‘roq qilishni man etuvchi qoidaning asosini tashkil qiluvchi “idrok eta olmaslik” va “layoqatsizlik” iboralarini aynan o‘zi ifoda etadigan tushunchalarning mazmunini aniq aks ettiradi.

Chunonchi idrok etish – bu tafakkurning sog‘lom, barqaror ruhiy-aqliy holatidir. Negaki, aynan bunday ruhiy-aqliy holatga ega emaslik shaxsning ruhiy nosog‘lom ekanligini anglatadi⁴.

O‘zbekiston Respublikasi JPKga sharhlar mualliflari “shaxsning guvoh sifatida so‘roq

2 Сюкияйнен Л.Р. Ислам о преступлении и наказании. – С.87. // <https://publications.hse.ru/mirror/pubs/share/folder/6lqo5hacx5/direct/95813109.pdf>; Керимов Г.М. Шариат. Законы жизни мусульман. Ответы Шариата на проблемы современности. – СПб.: Диля, 2009 г.

3 O‘zbekiston SSRning Jinoyat-protsessual kodeksi: O‘zSSR Yustitsiya ministrligi. –T.: “O‘zbekiston”, 1978-yil.

4 Трусов В.П. Социально-психологические исследования когнитивных процессов. Л. МГУ, 2008 г. –С. 89.



qilishga uning ruhiy yoki jismoniy nuqsonlari to‘sqinlik qilishi mumkin”, deb hisoblaydilar⁵. Ularning fikricha, “qonun bu nuqsonlar ro‘yxatini oldindan belgilamagan bo‘lsa-da, qonunda ish bo‘yicha ahamiyati bo‘lgan holatlarni shaxsning to‘g‘ri qabul qilishiga monelik qiladigan nuqsonlar haqida so‘z yuritiladi. Shaxsning ish bo‘yicha guvoh bo‘lishiga qodirligi masalasi har biri alohida holda va bu shaxsning kasallik turi hamda darajasiga, shuningdek u (nuqsonga ega shaxs) ko‘rsatuvlar beradigan holatlarga qarab hal qilinadi”⁶.

Bu masalada amaliyot ma‘lumotlariga murojaat etadigan bo‘lsak, Toshkent shahri-ning jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudlarida ko‘rib chiqilgan va o‘rganib chiqilgan 157 ta ishning 12 foizida jismoniy nuqsonga ega, ya‘ni asosan kar, soqov va ko‘zi ojiz shaxslar jinoyat ishlarini yuritish chog‘ida jinoyat protsessiga jalb etilgan. Jinoyat ishlarini yuritishda ularning ba‘zilari guvoh (36,2 %), ko‘pchiligi jabrlanuvchi (45,7 %), boshqalari sudlanuvchi (19,9 %) sifatida ishtirok etganlar⁷.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan masalalarga bildirilgan munosabatning mazmun-mohiyatiga qaramay, JPKdagi jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega shaxslarni jinoyat ishini yuritish jarayoniga guvoh (jabrlanuvchi) sifatida jalb qilishni man etuvchi qoidalarning iboralari qonun normasi nazarda tutgan tushunchaning asosini yetarli ravishda ochib bermaydi. Negaki, jinoyat ishi uchun ahamiyatli voqea va hodisalarni “to‘g‘ri idrok eta olmaslik” yoki ko‘rsatuv berish “layoqati”ga ega bo‘lmaslik tushunchalari bir ma‘noni anglatmaydi. Qonun chiqaruvchi mazkur ikki tushunchadan foydalanishda, bizningcha, birinchi iborada so‘roq qilinishi mumkin bo‘lgan shaxsning ruhiy kasallik holatini nazarda tutsa, ikkinchisida so‘roq qilinishi mumkin bo‘lgan shaxs-

ning ham ruhiy, ham jismoniy nuqsonlarga egalik holati e‘tirof etiladi.

Zotan “to‘g‘ri idrok eta olmaslik” tushunchasi bevosita jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarga aloqadorligi sababli surishtiruvga, tergovga va sudga chaqirilgan shaxsning ruhiy kasallik yoxud ruhiy buzilishlarga duchor bo‘lganligi tufayli voqea yoki hodisalarni to‘g‘ri idrok eta olmaslik holatini anglatadi. Bunda ruhiy kasallik doimiy yoki vaqtincha ekanligi ahamiyatsiz.

Endi ko‘rsatuv berishga layoqatsizlik tushunchasiga kelsak, bunda jinoyat ishiga taalluqli holatlarni nafaqat aql bilan idrok etish orqali anglashni, balki ushbu holatlarni to‘g‘ri yetkaza olish iqtidorini ham tushunish mumkin. Bunday holatda so‘roq qilinayotgan shaxs jinoyat ishi uchun ahamiyatli voqea va hodisalarni to‘g‘ri idrok etgan bo‘lishi mumkin, lekin keyinchalik ruhiy kasallik yoki yuz bergan turli ruhiy buzilishlar sababli ko‘rsatuv berish layoqatiga ega bo‘lmagan shaxsga aylanishi mumkin.

Shuningdek, ko‘rsatuv bera olish layoqatiga ega emaslik tushunchasi nafaqat so‘roq qilish uchun chaqirilgan shaxsning ruhiy nuqsonlari bilan bog‘liq, balki uning jismoniy nuqsonlaridan ham kelib chiqishi mumkin. Masalan, ba‘zan jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlashda bevosita ko‘rish, kuzatish yoki eshitish imkoniyatlari ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘zi ojiz yoxud eshitish organidagi jiddiy nuqsonlar ushbu shaxsning ko‘rsatuv berish layoqatini pasaytiradi, ayrim hollarda uni yo‘qqa chiqaradi.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni to‘g‘ri idrok eta olmaslik tufayli jinoyat ishiga guvoh sifatida ishtirok etishga jalb qilish masalasi ikki muhim xususiyatga ega. Birinchisi, jinoyat ishi

5 O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar /Mas‘ul muharrir prof. G‘.A. Abdumajidov. –T. TDYI nashr., 2009-yil, 207-bet.

6 Основы психиатрии: наглядные материалы к курсу лекций для студентов /сост. А. И. Горбачев. – Минск: БГУ, 2014 г. –С. 37.

7 Dissertatsiya ishi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari.



uchun ahamiyatli bo‘lgan holat yuz bergan vaqtda, jarayonda aynan aqliy idrok etish iqtidorining shaxsda mavjud emasligi; ikkinchisi, jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar haqida ko‘rsatuv berish layoqatining shaxsda mavjud emasligi. Mazkur tushunchalar, o‘z navbatida:

a) jinoyat hodisasi yuz bergan vaqtda, uning jarayonida yoki undan keyin sodir bo‘lgan voqealarni aqliy idrok etish iqtidorining shaxsda mavjud emasligi (bu holat amalda shaxsning jinoyat ishida guvoh sifatida ko‘rsatuv berish imkoniyatlarini mutlaqo cheklaydi);

b) jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar yuzasidan so‘roq qilish uchun chaqirilgan shaxsning ko‘rsatuv berishga layoqatsizligi (ushbu holat shaxsning ish bo‘yicha guvohlik ko‘rsatuvini berish imkoniyatlarini cheklasa-da, lekin shaxsning sog‘ayishi bilan bu imkoniyat tiklanishi mumkin) kabi tushunchalarga ajraladi.

Jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari tufayli guvoh sifatida ishtirok etishni man etuvchi protsessual institut boshqa mamlakatlarda, jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Gruziya, Qozog‘iston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Moldova hamda Belarus respublikalari qonunchiligi xilma-xil normativ amaliyotga ega. Masalan, Rossiya Federatsiyasi JPKning jismoniy yoki ruhiy nuqsonlarga ega shaxslarni so‘roq qilishni taqiqlovchi normasida (56-moddasi) ko‘rsatib o‘tilgan shaxslarni guvoh sifatida jinoyat ishiga jalb qilishni man etmaydi⁸.

Aksincha Gruziya JPKga ko‘ra, ko‘rsatuv bergan guvoh ruhiy kasallikka chalinganligi yoki jismoniy nuqsonlari tufayli faktlarni to‘g‘ri anglay olmasligi, eslab qololmasligi va bayon qila olmasligi aniqlansa, bunday guvohning ko‘rsatuvlari jinoyat ishida dalil

bo‘lmaydi (75-moddaning birinchi qismi)⁹.

Ushbu masalada rivojlangan G‘arb mamlakatlari qonunchiligida ruhiy yoki jismoniy nuqsonga ega guvohlarni so‘roq qilish yoki uni man etish munosabatlari aksar holatda jinoyat-sudlov yurituv modeli xususiyatlariga bog‘liq. Xususan, GFR JPKning 52-moddasi shaxsiy sabablarga ko‘ra guvohlik ko‘rsatuvlarini berishdan voz kechish huquqini muayyan toifadagi shaxslarga taqdim etgan. Mazkur moddaning ikkinchi qismida o‘rnatilgan qoidalarga muvofiq, agar shaxs ruhiy kasallikka chalinganligi yoxud aqli zaifligi tufayli shaxsiy sabablarga ko‘ra guvoh sifatida ko‘rsatuv berishdan voz kechish huquqini amalga oshira olmasa, ko‘rsatuv berishdan voz kechish yoki ko‘rsatuv berish masalasi uning ota-onasi, unga homiy yoki vasiy bo‘lgan shaxs tomonidan hal qilinadi¹⁰.

GFR jinoyat-protsessual qonuni ruhiy va intellektual nuqsonlarga ega shaxslarni guvoh sifatida so‘roq qilishni formal tarzda taqiqlamasa-da, lekin bu masala bilan bog‘liq ikki jihatni e‘tirof etadi. Birinchisi, bunday shaxsning ko‘rsatuv berishdan voz kechish huquqining mavjudligi; ikkinchisi, ko‘rsatuv berish layoqatiga ega ekanligi. Qayd etilgan norma mazmuni ko‘pincha ruhiy nuqsonning holati va xususiyatini qamrab oladi.

Precedent huquqiga asoslanuvchi anglo-amerikacha sudlov ishlarini yuritishda ham ruhiy va jismoniy nuqsonga ega shaxslarni jinoyat ishiga guvoh sifatida jalb qilishga oid qoidalar ishlab chiqilgan. AQSH qonunlariga ko‘ra, guvohning layoqati ikki – keng va tor ma‘nodagi tushunchalarga asoslanadi. Tor ma‘nodagi layoqat umumiy tarzda shaxsning guvohlik ko‘rsatuvini berish imkoniyatini cheklamasa-da, ammo uning muayyan masalada yoki muayyan shaxsga nisbatan ko‘rsatuv berish huquqini cheklay-

8 Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 01.07.2021). http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/.

9 Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. 22 июля 1999 года № 2287-вс.

10 Федеративная Республика Германия. Уголовно-процессуальный кодекс / Перевод и вступительное слово к ю.н.б. А. Филимонова. – С.28.



di yoxud shunday majburiyatdan ozod etadi.

Guvoh layoqatining keng ma’nodagi tushunchasi deganda esa, *shaxsning tevarak-atrofdagi holat va vaziyatlarni to‘g‘ri tushuna olish, eslab qolish hamda ularni takror ifoda etib bera olish iqtidori* tushuniladi. Binoarin, qandaydir kasallik shaxsning bunday holatiga ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lsa, unda mazkur shaxs guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin emas¹¹.

AQSHning sudlar va magistratlar uchun dalillarni baholash to‘g‘risidagi federal qoidalari guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin bo‘lmagan shaxslar qatoriga ruhiy kasallarni, jismoniy nuqsonga ega bo‘lgan insonlarni kiritadi. Ammo, mazkur qoidaning muhim bir jihati mavjud bo‘lib, unga binoan kasallikning o‘zi bu yerda muhim emas, balki kasallik aynan shaxsning guvoh sifatida ko‘rsatuv berish imkoniyatini cheklagan bo‘lishi lozim (605-qoida). Shu bois AQSH qonunlarida guvohning layoqatiga nisbatan qo‘yiladigan asosiy talab ham bevosita voqea, hodisa sodir bo‘lgan vaqtda shaxsning voqea va hodisalarga oid holatlarni tushuna olish hamda ushbu ma’lumotlarni yetkazib bera olish iqtidorida aks etishi lozim¹².

Hindistonning huquqiy amaliyotida jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega bo‘lgan shaxsni guvoh sifatida so‘roq qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Hindiston JPKning 118-moddasida ko‘rsatilishicha, har qanday layoqatli shaxs guvoh sifatida ko‘rsatma berishi shart. Hindiston qonunida “layoqat” tushunchasi ham moddiy-huquqiy, ya’ni yosh bilan bog‘liq, ham protsessual-huquqiy, ya’ni ko‘rsatuv berish iqtidori sifatida tushuniladi¹³.

Jismoniy va ruhiy nuqsongarga ega shaxslarni jinoyat ishi yuzasidan guvoh sifatida so‘roq qilishni taqiq etish masalasida protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni umumiy tarzda uch gu-

ruhga ajratish mumkin:

1) jismoniy-ruhiy nuqsongarga ega shaxslarni guvoh sifatida so‘roq qilishga taqiqning mavjud emasligi;

2) jismoniy-ruhiy nuqsongarga ega shaxslarni guvoh sifatida so‘roq qilish uchun qisman taqiqning (masalan “guvoh layoqati”) o‘rnatilganligi;

3) jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega shaxsni so‘roq qilishga taqiqning o‘rnatilganligi.

Mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalasi sud-huquq islohotining muvaffaqiyatini belgilovchi asoslardan biri ekan, guvoh institutini qay bir yo‘nalishda rivojlantirish muhim masala bo‘lib qoladi. Darhaqiqat, jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega shaxslarni jinoyat protsessiga jalb qilish masalasini qay yo‘sinda hal qilish maqbul hisoblanadi. “*Jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega shaxslarga avvalgidek huquqiy, protsessual-huquqiy layoqatsiz shaxs sifatida qarash lozimmi yoxud muayyan holatlarda va muayyan talablar asosida ularga ko‘rsatuv berish imkonini berish zarurmi? Agar jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega shaxslarni guvoh sifatida so‘roq qilishga ruxsat beriladigan bo‘lsa, unda qanday protsessual-huquqiy mezonlarga tayanish zarur?*” degan savolga javob izlash kerak. Shubhasiz mazkur masalalarni to‘laqonli tartibga solish maqsadga muvofiqdir.

Muqaddam e’tirof etilganidek, tibbiyotda barcha ruhiy kasalliklar ham muayyan voqea yoki hodisani idrok qilish qobiliyatini mutlaq ravishda yo‘qqa chiqarmaydi. Masalan, oligofreniya, epilepsiya, shizofreniyaning ayrim turlarida shaxslar o‘z idrokini to‘liq yo‘qotmaydilar.

Jumladan, oligofreniya, ya’ni aqliy rivojlanishning orqada qolishi kasalligi asosan bolalar va o‘smirlarda uchrasada, lekin

11 Правило 605. Федеральных правил о доказательствах для судов и магистратов США 1995 г.

12 Лоскутова Т.А. Свидетел и его показания в уголовном процессе Англии и США: Автореф. дисс... канд. юрид. наук. – С.17.

13 Code of Criminal Procedure Act of Republic of India. Article 118. Act of January 25, 1974.



ular yoshi kattalashgan sari kasallikning asoratlari qolaveradi. Shu kasallikka chalingan shaxslar bir nechta toifaga ajratiladi¹⁴. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar hamda ilmiy tadqiqotlarning xulosalariga ko‘ra, aqliy rivojlanishning orqada qolish holati o‘zining og‘irlik darajasiga qarab to‘rt guruhda tasniflanadi:

1) yengil shakli (intellekt (idrok etish) ko‘effitsenti 50-69 %);

2) barqaror shakli (aniq namoyon bo‘lmagan imbesillik, ya‘ni intellekt ko‘effitsenti 35-49 %);

3) og‘ir shakli (aniq namoyon bo‘luvchi imbesillik, ya‘ni intellekt ko‘effitsenti 20-34 %);

4) o‘ta og‘ir shakli (idiotiya, ya‘ni intellekt ko‘effitsenti 20 foizgacha)¹⁵.

Bu borada yana bir ruhiy kasallik – shezofreniya kasalligi ham deyarli shunga o‘xshash tasnifga ega. AQSH ruhshunoslik assotsiatsiyasining kasallikni aniqlash tashxislariga muvofiq, ushbu kasallikning quyidagi tasnifi mavjud: a) bir epizodli shizofreniya; b) bir nechta epizodli shizofreniya; v) doimiy shizofreniya; g) aniqlangan boshqa shizofreniya; aniqlanmagan shizofreniya¹⁶.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan ruhiy nuqsongacha ega bo‘lgan shaxslarning idrok etish qobiliyati kasallikning og‘irlik darajasiga bog‘liq. Agar shaxs oligofreniya kasalligining yengil shakli bilan og‘ir bo‘lsa, u ko‘z o‘ngida bo‘lib o‘tgan voqea-hodisani idrok etish qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holatda ushbu shaxsni guvoh sifatida so‘roq qilish mumkin. Modomiki, shaxsning kasalligi ko‘rsatuv berish vaqtida kuchayib, uni ko‘rsatuv berish layoqatini cheklasa, bunday holatda shaxsni guvoh sifatida so‘roq qilish mushkul ishdir. Bu holda shaxsning ko‘rsatuv berish layoqati shubha ostida qoladi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan

“ruhiy yoki jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatni to‘g‘ri idrok etish va bu haqda ko‘rsatuv bera olish layoqatiga ega bo‘lmagan shaxsni so‘roq qilishga yo‘l qo‘yilmasligi” qoidasini isloh qilishda ikki muhim mezonga tayanish zarur bo‘ladi. Birinchisi, guvohning shaxsiga bo‘lgan ishonchning mavjudligi. Ko‘rsatuv berayotgan shaxsiga bo‘lgan ishonch guvoh uchun zarur bo‘lgan eng muhim mezonidir. Zero axloqiy yuksak insonning ko‘rsatuvlari bilan bezorilik qiluvchi shaxsning ko‘rsatuvlari o‘rtasida jiddiy farq mavjud. Ushbu farq aynan ko‘rsatuv berayotgan subyektning shaxsiga, to‘g‘rirog‘i, shaxsning idrokiga (shubhasiz uning madaniy-ma‘naviy sifatlariga) bevosita bog‘liqdir. Shunday ekan ruhiy nuqsonga ega shaxsning ko‘rsatuv bilan ruhiy sog‘lom shaxsning ko‘rsatuvlarini dalil sifatida e‘tirof etishda aynan ko‘rsatuv berayotgan shaxsning shaxsiga bo‘lgan ishonch o‘ta muhim o‘ringa ega hisoblanadi.

O‘z navbatida, guvohning shaxsiga bo‘lgan ishonch uning ko‘rsatuvlariga bo‘lgan ishonchga sekin-asta ko‘chib o‘tadi. Guvohning ko‘rsatuvlarida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar jinoyat ishida to‘plangan boshqa dalillar bilan taqqoslanib baholansa-da, lekin guvohning ko‘rsatuvlari dalillar tizimining muhim qismini tashkil qiladi va aynan o‘sha qism bilan dalillar bir butun tizimni namoyon qilishi mumkin.

Jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega shaxslarni guvoh sifatida so‘roq qilishning man etilishi bilan bog‘liq islohotning ikkinchi mezonini layoqat tushunchasi egallashi lozim. Guvohga taalluqli layoqat haqida yuqorida fikr yuritib o‘tdik, ammo ularga shuni qo‘shimcha qilish lozimki, guvohning jinoyat protsessidagi ishtiroki bilan bog‘liq “ishonch” va “layoqat” o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lsa-da, lekin ular bir xil tushunchalar emas. Negaki,

14 Корсанова С.С. К психологии микроцефалов. - М.: Медицина, 2014 г. - С. 68.

15 Коркина М. В., Лакосина Н.Д., Личко А.Е., Сергеев И.И. Психиатрия, 2-е изд. -М.: Медицина, 2002 г.

16 Петрюк П.Т. Дефиниция и критерии диагностики шизофрении // Психичие здорovia. - 2009 г. -№4. - С. 4-17.



“ishonch” – bu muayyan narsaning, holatning yoki idrokning asosli mavjudligi haqidagi obyektiv va subyektiv his-tuyg‘u deb e’tirof etilsa¹⁷, layoqat – muayyan ishga “muvofiqlik”, “yaroqlilik”, “qodirlik yoki qobiliyat” ma’nosida ko‘rsatiladi¹⁸.

Bu masalaning strukturasi “ishonch” birlamchi, “layoqat” esa ikkilamchi ma’noga ega. Guvohning layoqatliligi masalasini hal qilishda shubhasiz uning jismoniy-ruhiy kasalligidan tashqari, holatlarni muayyan darajada anglay olish, keyinchalik yoki so‘roq qilish jarayonida ularni to‘g‘ri yetkazib bera olish bilan bog‘liq shaxsiy layoqati e’tiborga olinishi lozim.

Qayd etilgan tahlillar mamlakatimiz jinoyat protsessining jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega shaxslarni so‘roq qilishni man etuvchi tartibini isloh qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Shu asosda JPKning 115-moddasi uchinchi qismiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir¹⁹.

Jinoyat ishiga guvoh sifatida jalb qilinishi lozim bo‘lgan shaxsning ruhiy yoki jis-

moniy holatini sud ekspertizasi orqali aniqlash masalasi mamlakatimiz protsessual qonunchiligi uchun hali noma’lum. Lekin, bunday yondashuvning ayrim jihatlarini Belarus Respublikasi JPKda (60-modda ikkinchi qism), Qozog‘iston Respublikasi JPKda (82-moddaning ikkinchi qismi 2-bandi) uchratish mumkin. Lekin, ushbu mamlakatlarning protsessual normalarida ko‘rsatilgan holatlar vujudga kelgan taqdirda, so‘roq qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarni ambulator tartibda sud-tibbiy ekspertizasidan o‘tkazish tavsiya etiladi.

Nazarimizda, shunday qo‘shimcha va o‘zgartirishlar jismoniy yoki ruhiy nuqsongarga ega bo‘lgan shaxslarni odil sudlovni amalga oshirish jarayoniga jalb qilish imkonini beradi. Ularning jinoyat ishi bo‘yicha taqdim etgan ma’lumotlarining naqadar ishonchli, asosli ekanligi masalasini hal qilish esa, endi jinoyat ishini yurituvchi vakolatli shaxslarning ishdagi ma’lumotlarni umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini anglash va baholash bilimining darajasiga bog‘liqdir.

#

17 O‘zbek tilining izohli lug‘ati /A. Madvaliyev tahriri ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2016-yil, 257-258-betlar.

18 Qayd etilgan manbaning 321-beti.

19 Dissertatsiya ishi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari.



Farxod GAFUROV,

Toshkent shahar bojxona boshqarmasi katta tezkor vakili,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA KRIMINALISTIK EKSPERTIZALARNING O'RNI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda o'tkaziladigan kriminalistik ekspertizalarning turlari va tushunchasi, kriminalistik ekspertizalar o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari, kriminalistik ekspertizalarning bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishdagi ahamiyati to'g'risida o'zbekistonlik va xorijlik olimlarning ilmiy yondashuvlari yoritilgan. Shu bilan birga, bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda o'tkaziladigan kriminalistik ekspertizalarni takomillashtirish choralari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar yoritib berilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной научной статье описаны виды и понятие криминалистических экспертиз, в расследовании преступлений в таможенной сфере, особенности проведения криминалистических экспертиз, научные подходы узбекских и зарубежных ученых о значении криминалистических экспертиз в расследовании преступлений в таможенной сфере. При этом, выделены научно обоснованные предложения и рекомендации по мерам по совершенствованию криминалистических экспертиз, в расследовании преступлений в таможенной сфере.

ABSTRACT. This scientific article describes the types and concepts of forensic examinations in the investigation of crimes in the customs sphere, the specifics of conducting forensic examinations, and the scientific approaches of Uzbek and foreign scientists on the importance of forensic examinations in the investigation of crimes in the customs sphere. At the same time, scientifically based proposals and recommendations on measures to improve forensic examinations in the investigation of crimes in the customs sphere are highlighted.

Kalit so'zlar: bojxona sohasidagi jinoyatlar, kriminalistik ekspertizalar, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni, ekspert, tezkor xodim, surishtiruvchi, tergovchi, ekspertiza muassasasi, tovarlar, ashyolar, predmetlar, sud ekspertizasi.

Ключевые слова: преступления в таможенной сфере, криминалистические экспертизы, Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан, Закон Республики Узбекистан «О судебной экспертизе», эксперт, оперативный работник, дознаватель, следователь, экспертное учреждение, товары, материалы, предметы, судебная экспертиза.

Key words: crimes in the customs sphere, forensic examinations, Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, Law of the Republic of Uzbekistan "On Forensic Examination", expert, operative worker, investigator, expert institution, goods, materials, objects, forensic examination.

Bugungi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish amaliyotida vujudga keladigan murakkab savollarga javob topish maqsadida turli ekspertizalar tayinlanadi. Bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda bojxona organlari tezkor bo'linmalari tomonidan kriminalistik ekspertizalar tayinlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekspertiza xulosalari tergov qilinayotgan jinoy qilmish bo'yicha muhim ashyoviy dalil bo'lib hisoblanadi. Xususan, hozirgi kunga qadar bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda bojxona organlari tezkor bo'linmalari tomonidan kriminalistik ekspertizalar tayinlash masalalarini bir qator mahalliy va xorijlik olimlar tadqiq qilib, kriminalistik

ekspertizalar tayinlashni takomillashtirish bo'yicha o'zlarining ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarini ishlab chiqqanlar.

Jumladan, o'zbekistonlik olimlar A.Achi-lov, I.Astanov, M.Do'stovlar bojxona sohasidagi jinoyatlarni jinoiy-huquqiy malakalashda kriminalistik ekspertizalarning turlari va ularning ahamiyatini tadqiq qilgan. Mazkur olimlarning fikriga ko'ra, u yoki bu turdagi ekspertizani o'tkazishga ehtiyoj dalillarni to'plashga qaratilgani tezkor-qidiruv va tergov harakatlari jarayonida vujudga keladi. Sud ekspertizasini o'tkazish uchun tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi (tezkor xodim), surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudyaning ajri-



mi asos bo‘ladi. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 180-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuning 17-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan.

Qayd etish joizki, vakolatli davlat organining qarori yoki ajrimi bo‘lmasdan turib jinoyat ishini yuritishda ekspertga sud eksperti sifatida jinoyat protsessi ishtirokchisi maqomi berilmaydi hamda sud ekspertizasi o‘tkazilmaydi.

Olimlar A.Achilov, I.Astanov, M.Do‘stovlarning fikriga ko‘ra, bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha sud ekspertizasini tayinlash jarayoni Jinoyat-protsessual kodeksining 173, 179, 180-moddalari mazmunidan kelib chiqqan holda quyidagi harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- ekspertiza tadqiqoti uchun materiallarni tayyorlash;

- ekspertiza o‘tkazish uchun ekspert yoki ekspertiza muassasasini aniqlab olish, shuningdek, ekspertning ixtisosligi, uni rad etish uchun asoslar mavjud yoki mavjud emasligiga oydinlik kiritish;

- ish bo‘yicha ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorni tuzish;

- gumonlanuvchini ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror bilan tanishtirish, ekspertiza tayinlanishi va o‘tkazilishi munosabati bilan kelib tushgan iltimosnomalarni hal etish;

- ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror va materiallarni ekspert yoki ekspertiza muassasasiga yuborish.

Ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim ekspertiza muassasasi hamda bevosita ekspert, shuningdek, boshqa taalluqli shaxslar uchun majburiy hisoblanadi (JPK 180-modda).

Qayd etish lozimki, bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha sud ekspertizalarida ekspert oldiga qo‘yilgan savollarni shakllantirishda:

- uning bergan xulosasi ekspertning

maxsus bilimlari doirasidan chetga chiqishi mumkin emas (JPK 172-modda);

- savollar aniq va imkon boricha qisqa bo‘lishi lozim;

- savollar mantiqiy ketma-ketlikda qo‘yilishi kerak;

- dastlab qolganlarning yechimiga bog‘liq savollardan shakllantiriladi;

- savollar ro‘yxati maksimal darajada to‘liq bo‘lishi kerak;

- zamonaviy holatdagi ilm-fan oldindan hal qila olmaydigan, shuningdek, keltirilgan ro‘yxatdan mexanik tarzda ko‘chirilgan to‘liq savollar ro‘yxatini qo‘yish mumkin emas.

Shu sababli ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorda ekspertiza tekshiruviga taalluqli bo‘lmagan, shuningdek, huquqiy masalalarga doir savollar qo‘yilmasligi kerak. Sud ekspertizasi tegishli qaror chiqarilgan kundan e‘tiboran tayinlangan hisoblanadi.

Shuningdek, bojxona sohasidagi jinoyatlarning bir turi bo‘lgan kontrabanda jinoyati (JK 246-moddasi) bo‘yicha kontrabanda ahyolari, ya‘ni giyohvandlik vositalari va ularning analoglari, psixotrop, kuchli ta‘sir etuvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, radioaktiv materiallar, qurol-yarog‘, o‘qotar qurollar va o‘q-dorilar, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tish yoki noqonuniy aylanuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat ishlari bo‘yicha ekspertiza o‘tkaziladi. Ekspertiza o‘tkazish orqali O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan aynan qanday predmetlarni noqonuniy olib o‘tishga urinilgani, ularning miqdoriy va sifat xususiyatlari belgilanadi. Kontrabanda jinoyati bo‘yicha kriminalistik ekspertizalarning asosan quyidagi turlari o‘tkaziladi:

sud-ballistika ekspertizasi (grekcha “ballo” so‘zidan olingan bo‘lib, otmoq, irg‘itmoq degan ma‘nolarni anglatadi) – qurol-yarog‘, o‘qotar qurollar va o‘q-dorilarning qanday



turkum, qaysi tizim, rusum va namunasiga taalluqliligini, texnik holatini, yaroqliligini aniqlash maqsadida;

materiallar, ashyolar va buyumlarni tadqiq etishga qaratilgan materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizalari – kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli va zaharlovchi, narkotik va psixotrop moddalarga o‘xshash moddalar bo‘yicha ularning tarkibini, sifatini, ta’sir darajasini, kelib chiqish manbasini va miqdorini aniqlash maqsadida;

dinshunoslik ekspertizasi – diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallar mazmunini aniqlash maqsadida;

sud-tibbiy (narkologiya) ekspertizasi – shaxslar giyohvandlik vositasini iste’mol qilganligini, davolanishga muhtojligini aniqlash maqsadida;

sud-psixiatriya ekspertizasi – shaxslarning ruhiy kasalligini va davolanishga muhtojligini aniqlash maqsadida;

sud-psixologiya ekspertizasi – shaxslarning jinoyatni sodir etish vaqtidagi ruhiy holatini aniqlash maqsadida tayinlanadi.

Shu bilan birga, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati (JK 182-modasi) bo‘yicha tayinlanadigan ekspertizalar murakkablik va bajarilish texnologiyasi bo‘yicha boshqa ekspertizalardan ajralib turadi. Ushbu ekspertizalarning maqsadi, mazmuni va o‘tkaziladigan obyektlari hamda savollarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan maxsus bilim turiga qarab quyidagi shartli guruhlariga bo‘lish mumkin.

Sud-tovarshunoslik ekspertizasi – bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tilgan mahsulotlarning tovar (iste’mol) xususiyatlarini, sifatini va bahosini aniqlash maqsadida maxsus bilimlar yordamida tekshirishdan iboratdir.

Oziq-ovqat mahsulotlari ekspertizasi – bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi jinoyati predmeti sifatida qandolatchilik, go’sht-sut, don, konserva mahsulotlari,

salqin ichimliklar va oziq-ovqat qo‘shimchalarining tarkibi, sifati bo‘yicha davlat andozalariga to‘g‘ri kelish-kelmasligi, iste’mol uchun yaroqli-yaroqsizligini aniqlash bilan bog‘liq ishga doir faktik ma’lumotlar tashkil etadi.

Sud avtotexnika va transport vositalarini baholash ekspertizasi – bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati predmeti sifatida olingan transport vositalarining texnik holati va bahosini aniqlash kabi masalalar hal etiladi.

Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar ekspertizasi – bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tilgan qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan hamda tarkibida qimmatbaho metall va toshlar mavjud bo‘lgan buyumlarni identifikatsiya qilishga qaratilgan ekspertiza hisoblanadi.

Sud-iqtisodiy ekspertizasi, ya’ni tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi – tashqi savdo faoliyati sud-iqtisodiy ekspertizasining predmetini O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini amalga oshirayotgan korxonalar, tabiiy monopoliya subyektlari, davlat mablag‘larini jalb etgan boshqa mulkchilik shaklidagi tashkilot va korxonalar, ularning filiallari va vakolatxonalar, davlat ulushi bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan tuzilgan import shartnomalari hamda tashqi savdo faoliyatini o‘rganish bilan bog‘liq ishga doir faktik ma’lumotlar tashkil etadi.

Hujjatlarning sud-texnik ekspertizasi – ushbu ekspertiza predmetini jinoyat ishi yoki materiallarga aloqador faktlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha turdagi shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, hujjatlarni to‘ldirishga (chop etishga) qaratilgan maxsus uskunalar, xomashyolar, hujjatlarning rasmiy (rasmiylashtirish) to‘ldirilishi va ularga o‘zgartirish kiritish (ishlov berish) usullari, hujjatlardagi ko‘rinmas yozuvlar, hujjat blanklarini hamda ulardagi himoya elementlarini aniqlash bilan



bog‘liq masalalar tashkil etadi.

Sud-dastxatshunoslik ekspertizasi – iqtisod, shu jumladan, bojxona sohasiga doir hujjatlarni qalbakilashtirish orqali amalga oshirilgan jinoyat ishlarini tergov qilishda ushbu ekspertizaning alohida o‘rni bor. Ushbu ekspertiza predmetini qo‘lyozma tarzida bajarilgan yozuvlar, imzolar, xatlar va boshqa hujjatlarni tadqiq etish natijasida aniqlanadigan muayyan ishga taalluqli faktlar tashkil qiladi.

Madaniy boyliklarning badiiy ekspertizasi – madaniy boyliklarning respublika hududidan olib chiqib ketilishi yoki olib kirilishi, shuningdek, ularning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq holatlarda tayinlanadi.

Olimlar A.Achilov, I.Astanov, M.Do‘stovlarning fikriga ko‘ra, xulosaga baho berish jarayonida surishtiruvchi, tergovchi quyidagilarni aniqlashi lozim:

- tadqiqotda ishlatilgan obyekt va materiallarning tadqiqotga yetarli darajada berilganligini;

- ularni tadqiq qilish usullarining fan talablariga mos bo‘lganligini;

- ekspert tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotning to‘liqligini (chunki aynan ular asosida xulosa chiqarilgan);

- xulosaning fan va amaliyot talablariga zid kelmaganligini va jinoyat ishi bo‘yicha to‘plangan dalillarga qarama-qarshi bo‘lmaganligini;

- xulosaning to‘liqligi va ekspert oldiga qo‘yilgan savollarga javoblarning to‘g‘riligini.

Ekspert xulosasi bo‘yicha tezkor xodim, surishtiruvchi, tergovchi unga baho berib, zarur bo‘lgan qo‘shimcha tezkor-qidiruv va tergov harakatlari o‘tkazishi, qayta qo‘shimcha ekspertiza tayinlashi, ekspertni ekspertiza o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha (yoki uning xulosasi bo‘yicha) so‘roq qilishi mumkin. Tadqiqotchi sifatida o‘zbekistonlik

olimlar A.Achilov, I.Astanov, M.Do‘stovlarning fikriga qo‘shilaman. Chunki mazkur olimlar bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda kriminalistik ekspertizalar turlari va ularni tayinlash xususiyatlarini to‘liq ochib berishgan¹.

Shuningdek, olim I.Astanov jinoyat ishlari bo‘yicha maxsus bilimlarga ega shaxslar yordamidan foydalanish taktikasi, ekspertiza tekshiruvi uchun namunalarni olishning kriminalistik hamda taftish o‘tkazishning taktik jihatlari, ekspertiza o‘tkazish va ekspert xulosasidan foydalanishning taktikasi masalalarini tadqiq qilgan. Mazkur olim o‘z tadqiqotida mutaxassisning portativ, ya‘ni o‘zi bilan olib yurishi oson bo‘lgan vositalar: telefon, planshet, noutbukdan va ularning dasturlaridan (CSI Marker, Ruler, Cycloramic, ProScope Micro Mobile, Flir) foydalanishi lozimligini amaliy misollar bilan asoslab bergan². Tadqiqotchi sifatida I.Astanovning fikriga qo‘shilaman. Chunki mazkur olim aniqlangan jinoyat holatlari bo‘yicha ekspertiza tayinlash, ekspertiza xulosalarini olish borasidagi dolzarb muammolarni ochib berib, ularning huquqiy jihatdan yechimlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqqan takliflari bilan ko‘rsatib bergan.

Rossiyalik olim V.Jbankov bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda sud ekspertizalarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilgan va o‘z tadqiqotida Rossiya Federatsiyasi bojxona organlari bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish amaliyotida Federal bojxona xizmati tarkibida Markaziy ekspert-kriminalistika boshqarmasi tashkil etilganligini, unda 14 turdagi sud ekspertizalari o‘tkazish yo‘lga qo‘yilganligini, bugungi kunda mazkur boshqarma Rossiya Federatsiyasining turli shaharlarida 11 ta filialga ega ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Shuningdek, mazkur rossiyalik olim o‘z tadqi-

1 Achilov A., Astanov I., Do‘stov M. Bojxona organlarida kriminalistika. O‘quv qo‘llanma. 2019-yil, 168–192-betlar.

2 Astanov I.R. “Jinoyat ishlari bo‘yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlari”. Yuridik fanlar doktori dissertatsiya avtoreferati. Toshkent sh., 2018-yil, 17-bet.



gotida bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish davomida sud ekspertizalarini tayinlash bo‘yicha metodik tavsiyanomalar tayyorlab berish zaruratini asoslab bergan³.

Rossiyalik olim S.Jdanov tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda bojxona ekspertizalarini tayinlash masalalarini tadqiq qilgan. Mazkur olim o‘z tadqiqotida bojxona ekspertizalari quyidagi talablarga javob berishi kerakligini ta’kidlagan:

birinchidan, bojxona ekspertizalari normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalar asosida o‘tkazilishi kerak;

ikkinchidan, bojxona ekspertizalari maxsus bilimlarga asosan o‘tkazilishi kerak;

uchinchidan, bojxona ekspertizalarining natijalari isbotlash manbasi bo‘ladigan xulosa bo‘lishi kerak;

to‘rtinchidan, bojxona ekspertizalarining asosiy vazifasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyaga yordamlashish bo‘lishi kerak degan ilmiy yondashuvlarni asoslab bergan⁴.

Shuningdek, ukrainalik olimlar Serxi Xalimon, Vadim Polovnikov, Oleg Kravchuk, Oleksandr Marushchak va Olena Striletslar yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida iqtisodiy ekspertiza va uning ahamiyatini o‘z tadqiqotlarida ochib berishgan. Mazkur olimlarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda Ukraina iqtisodiy ekspertizaning eng samarali vositalaridan birini qo‘llagan holda bunday ishlarning yorqin namunasidir. Ushbu olimlarning fikriga ko‘ra, sud-iqtisodiy ekspertiza instituti 2001-yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda u uch turdagi ekspertizadan iborat: buxgalteriya hujjatlarini o‘rganish, soliq hisobi va hi-

sobot; korxon va tashkilotlarning xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni o‘rganish; uchinchisi – moliyaviy-kredit operatsiyalarini tekshirish. Bugungi kunda bu tuzilma qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmaydi, ammo bozor va texnologiya rivojlanishi bilan kelajakda bu tuzilma ham o‘zgarishlarga duch kelishi mumkin⁵.

Tadqiqotchi sifatida shuni aytish mumkin-ki, rossiyalik va ukrainalik olimlar bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda ekspertizalarning ahamiyati katta ekanligini o‘z tadqiqotlari bilan yoritib berganlar. Xususan, ukrainalik olimlar iqtisodiy ekspertiza iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilishda eng samarador ekspertiza turlaridan biri ekanligini isbotlab berishgan.

Amerikalik olimlar Adam Hayes, Erika Rasure, Kirsten Rohrs Schmittlar moliyaviy sud ekspertizasi masalalarini tadqiq qilishgan. Mazkur olimlar o‘z tadqiqotlarida moliyaviy sud ekspertizasi tushunchasini ilmiy jihatdan izohlab berib, uning mazmuni – bu tashkilot ichidan yoki tashqarisidan kelib chiqadigan jinoiy moliyaviy faoliyatni aniqlash uchun jinoiy tergov ko‘nikmalarini moliyaviy audit ko‘nikmalari bilan birlashtirgan soha ekanligini ta’kidlashgan. Xususan, ularning fikriga ko‘ra, moliyaviy sud ekspertizasi sud buxgalteriya hisobiga o‘xshaydi, u buxgalteriya hisobi, audit va tergov ko‘nikmalaridan foydalanib, kutilayotgan yoki davom etayotgan qonuniy harakatlar bilan birgalikda mumkin bo‘lgan firibgarlik uchun kompaniyaning moliyaviy hisobotlarini tahlil qiladi. Maqsad – jinoyatlarni aniqlash, ularga xabar berish, oldini olish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortishdir⁶. Tadqiqotchi sifatida mazkur

3 Жбанков В.А. «Судебные экспертизы при расследовании таможенных преступлений органами дознания Федеральной таможенной службы России». Научная статья. 22.04.2024 г. –С. 3-4.

4 Жданов С.П. «Таможенные экспертизы в раскрытии преступлений, совершаемых во внешнеэкономической деятельности». Научная статья. 22.04.2024 г. –С. 1-2.

5 Khalymon Serhii, Polovnikov Vadym, Kravchuk Oleg, Marushchak Oleksandr, Olena Strilets. Forensic Economic Examination as a Means of Investigation and Counteraction of Economic Crimes in East Europe (example of Ukraine). Research Article: 2019 Vol: 22 Issue: 3.

6 Adam Hayes, Erika Rasure, Kirsten Rohrs Schmitt. Financial Forensics: Meaning, Certification, Examples. Updated July 13, 2022. P. 1-3.



olimlarning fikriga qo‘shilaman. Chunki haqiqatdan ham moliyaviy sud ekspertizasi iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilishda samarali hisoblanadi. Bunga o‘xshash ekspertiza turidan sud-iqtisodiy ekspertizasi bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda qo‘llanilib kelinmoqda.

Shuningdek, hozirgi kunda bojxona sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha kriminalistik ekspertizalar tayinlash va ularning xulosalarini olish borasida bir qator quyidagi muammolar uchramoqda.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagi “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 200-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablariga asosan, aniqlangan bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha olib qo‘yilgan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, ulardan yasalgan buyumlar, shuningdek, tarkibida qimmatbaho metallar bo‘lgan materiallar vakolatli organning mansabdor shaxsi tomonidan asillik darajasini tekshirish uchun ixtisoslashtirilgan laboratoriyalarga yuborilishi belgilangan. Qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlardagi O‘zbekiston Respublikasi davlat asillik darajasi tamg‘a izlarining haqiqiyligini aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasini belgilash palatasiga texnik ekspertizadan o‘tkazishga yuboriladi. Palata tomonidan o‘tkazilgan texnik ekspertiza uchun qonunchilikda belgilangan miqdorda asillik darajasi to‘lovi undiriladi. Zarur hollarda Davlat asillik darajasini belgilash palatasi qimmatbaho metallardan yasalgan tamg‘a bosilishi lozim bo‘lgan zargarlik va boshqa buyumlarni O‘zbekiston Respublikasi davlat asillik darajasi tamg‘asi bilan o‘n kun muddatda asillik darajasi to‘lovi undirmasdan tamg‘alashi belgilangan. Ammo bojxona so-

hasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish amaliyotida olib qo‘yilgan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, ulardan yasalgan buyumlarning davlat asillik darajasini aniqlash bo‘yicha tayinlangan ekspertiza qarorlariga Davlat asillik darajasini belgilash palatasi tomonidan ekspertiza xulosasini taqdim etish bo‘yicha belgilangan 10 kunlik va 1 oylik muddat ichida ekspertiza xulosalari taqdim etilmasdan, muddat 2-3 oydan so‘ng, ya‘ni ekspertiza xulosasini taqdim etish muddatlari buzilgan holda jo‘natilmoqda.

Bu esa o‘z navbatida, bojxona sohasidagi aniqlangan jinoyatlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv muddatining, ya‘ni 10 kun va 1 oylik muddatning buzilishiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, sohaviy mutaxassislarining xulosalari asosida zarurat tug‘ilganligi sababli noqonuniy bank operatsiyalari orqali valyuta pul mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy davlatlarga olib chiqib ketish holatlarini aniqlash bo‘yicha xorijiy davlatlarga yuborilayotgan so‘rovnomalarga 8 oy, 1 yil kabi uzoq muddat o‘tgandan so‘ng javob berilmoqda. Bu holatlar aniqlangan jinoyat alomatlarini bor bo‘lgan huquqbuzarliklar bo‘yicha jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish aynan so‘rovnomalar javobiga bog‘liq bo‘lganligi sababli ish yuritishni to‘xtatib turishga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi ekspertiza xulosalarini olish bo‘yicha uchrayotgan muammolarni hal etish maqsadida olib qo‘yilgan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning davlat asillik darajasini aniqlash bo‘yicha ekspertiza xulosalarini o‘z vaqtida taqdim etmaslik holatlarini hamda noqonuniy bank operatsiyalari orqali valyuta pul mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy davlatlarga olib chiqib ketish holatlarini aniqlash bo‘yicha xorijiy davlatlarga yuborilayotgan so‘rovnomalarga 8 oy, 1 yil kabi uzoq muddat vaqt ketayotganligi sababli mazkur amaliy jarayonlarni huquqiy jihatdan qonuniylashtirish uchun JPKning



329-moddasiga to‘rtinchi qism kiritib, uni quyidagicha bayon etish lozim:

“Alohida hollarda, tergovga qadar tekshiruv muddatining o‘tishi quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining asoslantirilgan qaroriga ko‘ra, prokuror bilan kelishilgan holda to‘xtatib turilishi mumkin:

1) xalqaro kelishuvlarga asosan boshqa davlatlarga va xalqaro tashkilotlarga yuborilgan so‘rovnomalarga javob 10 kun muddat ichida kelmaganda;

2) o‘tkazish uchun ko‘p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, taftish yoki

boshqa tekshiruv javoblari 10 kun muddat ichida kelib tushmaganda;

3) olis joylarda bo‘lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo‘lishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo‘lganda hamda tergovga qadar tekshiruvdan qochib yurgan va shaxsi aniqlanmagan shaxslar 10 kun muddat ichida topilmagan hollarda”.

Xulosa qilib aytganda, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda kriminalistik ekspertizalar tayinlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bois kriminalistik ekspertizalar turlari va ish uslublarini uzluksiz takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

.....



Каримжон МУСАШАЙХОВ,

Главный специалист Службы комплаенс Кабинета Министров

КВАЛИФИКАЦИЯ КОРРУПЦИОННЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ СПОРТА

АННОТАЦИЯ. В данной статье раскрывается правовая природа коррупционных преступлений, совершаемых в сфере спорта, их виды, а также теоретические и практические аспекты их квалификации. В исследовании анализируется негативное влияние коррупции на спортивную систему, в частности такие явления, как взяточничество, растрата имущества, искусственное изменение результатов соревнований, незаконная заинтересованность при отборе спортсменов. Также на основе действующих законодательных норм приводятся критерии правильной квалификации данных преступлений. Статья включает предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов противодействия коррупции в спортивной сфере.

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada sport sohasida sodir etiladigan korrupsion jinoyatlarning huquqiy tabiati, ularning turlari hamda kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda korrupsiyaning sport tizimiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri, xususan, poraxo'rlik, mol-mulkni talon-toroj qilish, musobaqa natijalarini sun'iy ravishda o'zgartirish, sportchilarni tanlashdagi noqonuniy manfaatdorlik kabi holatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, amaldagi qonunchilik normalari asosida ushbu jinoyatlarni to'g'ri malaka qilish mezonlari ko'rsatib beriladi. Maqola sport sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

ABSTRACT. This article explores the legal nature of corruption-related crimes committed in the field of sports, their types, as well as the theoretical and practical aspects of their qualification. The study analyzes the negative impact of corruption on the sports system, particularly such phenomena as bribery, embezzlement of property, artificial manipulation of competition results, and unlawful interest during the selection of athletes. Based on current legislative norms, the criteria for the proper qualification of these crimes are also presented. The article includes proposals and recommendations for improving mechanisms to combat corruption in the sports sector.

Ключевые слова: спорт, коррупция, коррупционные преступления, квалификация, взяточничество, заинтересованность, спортивное право, уголовное право, профилактика, борьба с коррупцией.

Kalit so'zlar: sport, korrupsiya, korrupsion jinoyatlar, kvalifikatsiya, poraxo'rlik, manfaatdorlik, sport huquqi, jinoyat huquqi, profilaktika, korrupsiyaga qarshi kurash.

Key words: sport, corruption, corruption-related crimes, qualification, bribery, conflict of interest, sports law, criminal law, prevention, anti-corruption efforts.

В мире коррупционные преступления являются одним из угроз развития государства, что свою очередь наносит ущерб не только функционированию государственного аппарата, но и реализации социальных конституционных гарантий населению в целом.

В Узбекистан основным законом установлено гарантия того, что: «Государство заботится о защите чести и достоинства учителей, их социальном и материальном благополучии, профессиональном росте»¹.

Следует отметить, что спортивная сфера – это не только отношения, связанные с организацией и проведением соревнований, но, прежде всего, целая спортивная индустрия, включающая производство спортивной одежды и экипировки, медиа, маркетинг и туристические услуги. Кроме того,

сюда входят продажа билетов, права СМИ и спонсорство. Также не следует упускать из виду процессы реализации продуктов питания и напитков на стадионах, лицензированной продукции и прочих товаров. Поэтому формы и виды коррупции в спорте по их весьма многообразны: договорные матчи, допинг, взяточничество, отмывание денег, незаконные ставки, уклонение от уплаты налогов, коммерческая коррупция (например, незаконная перепродажа билетов, продажа прав на трансляцию игр) и др.².

Правовая квалификация спортивной коррупции требует особого внимания, так как она находится на стыке уголовного, трудового, административного и спортивного права. В отличие от классической коррупции в государственном секторе, спортивная коррупция характеризуется многооб-

1 Конституция Республики Узбекистан // <https://lex.uz/docs/6445147> (дата посещения 12.01.2026 г.)

2 Eike Emrich, Freya Gassmann. Korruption und Sport // Peter Graeff, Tanja Rabl (Hrsg.). Was ist Korruption? Baden-Baden, 2019. S. 134 – 164.



разием субъектов (спортсмены, тренеры, спортивные судьи, функционеры клубов, федераций и лиг), а также специфическими объектами посягательства (честность спортивной борьбы, интересы болельщиков, спонсоров и инвесторов, репутация спортивных организаций).

В немецкой юридической литературе выделяются два основных вида коррупции в спорте:

- 1) коррупция в спортивной политике и системе спортивных организаций;
- 2) коррупция в области соревнований, включая манипуляцию их результатами.

Немецкие учёные в качестве примеров указывают³: договорные матчи, мошенничество на соревнованиях, незаконные ставки на спорт, нарушения во время крупных спортивных мероприятий, взяточничество при строительстве спортивных объектов, коррупцию при предоставлении телевизионных прав.

По мнению С.В. Алексеева, спортивная коррупция может проявляться:

√ в махинациях при строительстве спортивных сооружений (необоснованное завышение смет, хищение бюджетных и внебюджетных средств мошенническим путём);

√ в злоупотреблениях должностных лиц и администраторов международных спортивных организаций при выборе городов для проведения Олимпийских игр (дача взяток участникам процедур голосования);

√ в подкупе спортсменов, судей, тренеров, руководителей команд и других участников или организаторов спортивных мероприятий с целью влияния на результаты соревнований (организация договорных матчей, манипуляция итогами спортивной деятельности)⁴.

Если квалифицировать данный вид преступления то, **объективная сторона** спортивной коррупции проявляется в нескольких ключевых формах:

√ *договорные матчи (match-fixing)* – умышленный проигрыш или изменение хода соревнования за вознаграждение;

√ *подкуп судей* – принятие денежных или иных выгод за предвзятое судейство;

√ *манипуляции в сфере управления спортом* – нецелевое расходование бюджета, фиктивные трансферы, подлоги при отчётности;

√ *коррупция при организации турниров* – предоставление привилегий в жеребьёвке, продаже билетов, распределении мест проведения;

√ *спонсорская и рекламная коррупция* – заключение фиктивных контрактов или навязывание коммерчески невыгодных сделок.

Ключевым элементом квалификации является умысел на искажение спортивного результата или извлечение выгоды. При этом **субъективная сторона** может включать:

√ *прямой умысел* (например, спортсмен сознательно принимает решение проиграть матч за вознаграждение);

√ *косвенный умысел* (например, должностное лицо допускает возможность манипуляции жеребьёвкой).

Особенность заключается в том, что в отличие от классических коррупционных преступлений в государственном секторе, здесь мотив может быть не только материальным, но и нематериальным (например, продвижение «своего» спортсмена ради престижа клуба или региона).

Субъектами спортивной коррупции могут быть:

√ спортсмены, участвующие в соревнованиях;

√ тренеры и менеджеры, влияющие на тактику и стратегию команды;

√ судьи, от решений которых зависит исход матча;

√ функционеры спортивных организаций, принимающие управленческие решения;

3 Gassman Freya, Koch Michael. Korruption im Sport – auch eine Gefahr für den Sport // Aus Politik und Zeitgeschichte. 2021. URL: <https://www.bpb.de/shop/zeitschriften/apuz/332699/korruption-im-sport-auch-eine-gefahr-fuer-den-sport/>

4 Алексеев С.В. Правовые основы профессиональной деятельности в спорте: учебник для вузов. М.: Советский спорт, 2013 г. - С. 378 – 384.



√ третьи лица (букмекерские компании, спонсоры), заинтересованные в манипуляциях.

Отсутствие специальных составов, по некоторым основным видам коррупции в национальном законодательстве. В Узбекистане и большинстве стран Центральной Азии прямые нормы о спортивной коррупции отсутствуют, что приводит к применению общих статей УК («растраты», «хищения» и т.д.), что не отражает специфики явления.

сложности доказывания — особенно при договорных матчах, где необходимо установить факт умысла и вознаграждения;

размытая граница между нарушением спортивной этики, гражданской ответственностью и уголовным преступлением. Не каждое несправедливое судебское решение является коррупцией, оно может быть ошибкой;

транснациональный характер — многие коррупционные схемы выходят за пределы одного государства (например, международные турниры, трансферы, деятельность букмекеров).

Исследования показывают, что в Узбекистане наиболее распространёнными видами коррупционных проявлений в спорте являются:

1. Хищение бюджетных средств, выделенных на спорт. В 2019–2024 гг. было установлено хищение 39 млрд сумов, к ответственности привлечено 351 работников данной сферы. Например: должностные лица управления спорта Кашкадарьинской области в 2019–2022 гг. необоснованно начислили премии сотрудникам на сумму 185,7 млн сумов, приписали расходы на учебно-тренировочные сборы команд областных федераций «Rowing & Canoe» и каратэ в размере 91,2 млн сумов, а также закупили спортивный инвентарь по завышенным ценам, похитив в общей сложности 529,7 млн сумов.

2. Хищение субсидий, выделенных на служебные командировочные расходы спортсменов и премирование за высокие результаты. За последние 5 лет таким образом присвоено 2,8 млрд сумов, к ответ-

ственности привлечены 23 тренера. Например: 7 тренеров Бахмальской детско-юношеской спортивной школы в 2019 – 2021 гг. оформили поддельные дипломы о победах их учеников, которые на самом деле не участвовали и не побеждали в соревнованиях, похитив 356 млн сумов бюджетных средств.

3. Фальсификация документов тренерами и инструкторами для получения квалификационных категорий и незаконного завладения бюджетными средствами. В прошлом году за такие преступления осуждены 1 инструктор-методист, 6 членов квалификационной комиссии и 76 тренеров-преподавателей. Общая сумма хищений составила 1,5 млрд сумов. Например: заместитель начальника управления спорта Наманганской области – председатель квалификационной комиссии в 2020–2023 гг. незаконно оформил свидетельства о присвоении категорий 75 тренерам, чьи ученики не становились призёрами чемпионатов и кубков Узбекистана, что привело к хищению 406,7 млн сумов.

4. Хищения при строительстве, реконструкции, капитальном ремонте и оснащении спортивно-оздоровительных объектов. За последние 5 лет в 52 объектах завышены объёмы строительных работ, похищено 34,3 млрд сумов, к ответственности привлечены 25 работников сферы и 76 хозяйствующих субъектов и технадзорщиков.

5. Взятничество и мошенничество при присвоении спортивных категорий, зачислении в клубы, оплате участия в соревнованиях, а также при договорных матчах. За последние 5 лет к ответственности за такие преступления привлечены 44 представителя спортивной сферы. Например: судья Центра футбольного судейства Узбекистана мошенническим путём получил 3000 долларов США за включение двух граждан в состав молодёжной команды U-21 «Динамо» Самаркандской области.

В частности, взяточничество в сфере спорта также без исключения. Однако, вопрос определения субъекта преступ-



ления при ее квалификации преступления, все еще остается научно-практической дискуссионной темой.

Следует также отметить, в Узбекистане в уголовном законодательством криминализованы действия направленные на незаконное получение ценностей или имущественной выгоды, также подкуп в сфере спорта⁵.

В этой связи, с специальными субъектами данного рода преступлений определены участники и организаторы спортивных соревнований, что зачистую требует принятия всех предупредительных мер по допущению данного рода преступления, данной категорий лиц.

Как показала анализ коррупционных преступлений в сфере спорта, основными проблемами квалификации спортивной коррупции являются:

размытость границ между нарушением спортивной этики и уголовным преступлением;

сложность доказывания субъективной стороны — умысла на искажение результатов соревнований.

В доктринальном плане обсуждается возможность выделения «спортивной коррупции» как самостоятельного вида коррупционного преступления, что повысило бы эффективность правоприменительной практики и позволило бы дифференцировать ответственность спортсменов, тренеров, судей и спортивных функционеров.

Коррупция в спорте не ограничивается отдельными странами или регионами. Это глобальная проблема, требующая согласованных коллективных решений.

Исходя из вышеизложенного следует заключить, что понятие спортивной коррупции и меры по противодействию ей составляют часть политической коррупции и представляют собой особую категорию кор-

рупционных правонарушений, требующих разработки специальных решений.

Понимание сущности спортивной коррупции помогает формулировать научные и теоретические определения, устанавливать цели, направления и задачи борьбы с коррупцией в спорте, определять границы исследований и правильно осознавать предмет изучения. Иными словами, спорт является зеркалом общества, и его проблемы находят отражение в спортивной сфере. Для их понимания необходимо обладать специальными знаниями и проводить научные исследования.

Квалификация спортивной коррупции представляет собой сложный юридический и доктринальный процесс. Ее особенности заключаются в многообразии субъектов, специфике объекта посягательства и трудностях доказывания. Международная практика показывает, что эффективная борьба с данным явлением возможна только при условии:

признания спортивной коррупции самостоятельным видом коррупционного преступления;

гармонизации национальных норм с международными стандартами;

развития систем антикоррупционного контроля.

В условиях Узбекистана актуальной задачей становится формирование комплексного подхода, включающего как уголовно-правовую ответственность, так и меры организационно-правового и этического характера, что позволит укрепить доверие к спорту и повысить его социальную значимость.

Уместно завершить рассуждения словами Нельсона Манделы:

«Спорт обладает силой изменять мир, вдохновлять и объединять людей; там, где умирает надежда, спорт приносит веру каждому»⁶.

#

5 Уголовный кодекс Республики Узбекистан // <https://lex.uz/docs/111457> (дата посещения 12.01.2026 г.)

6 Sport has the power to change the world // <https://www.globalgoals.org/news/sport-for-development-and-peace/> (дата посещения 14.08.2025 г.)



Akramjon AXLIMIRZAYEV,
Bojxona qo'mitasi boshqarma boshlig'i,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

BOJXONA ORGANLARIDA SURISHTIRUV INSTITUTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Maqolada bojxona organlarida surishtiruv faoliyatining tashkil etilishi va bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatlari bo'yicha surishtiruv o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Kontrabanda va bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv hamda surishtiruv o'tkazishning o'zaro bog'liqligi misollar bilan yoritilgan. Xalqaro tajriba orqali bojxona organlarining surishtiruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются правовые и практические основы преступления нарушения таможенного законодательства. На примерах проиллюстрировано влияние преступления на экономическую безопасность страны и последствия, связанные с уплатой таможенных платежей. В выводах предлагаются эффективные меры борьбы с данным видом преступления.

ABSTRACT. The article analyzes the legal and practical foundations of the crime of violating customs legislation. The impact of the crime on the country's economic security and the consequences associated with customs payments are illustrated with examples. The conclusions propose effective measures to combat this type of crime.

Kalit so'zlar: bojxona, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, kontrabanda, bojxona to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi, bojxona to'lovlari, huquqiy javobgarlik, xavfsizlikka tahdid.

Ключевые слова: таможня, правонарушение, преступление, экономическая безопасность, внешнеэкономическая деятельность, таможенные сборы, юридическая ответственность, угроза безопасности.

Key words: customs, offense, crime, economic security, foreign economic activity, customs fees, legal liability, security threat.

Jahonda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati, xususan, sudga qadar ish yuritish bosqichida tezlashtirilgan (Juicio rapido) hamda qisqartirilgan (Juicio abreviado) tartibda ish yuritish, jinoyat-protsessul faoliyati jarayoniga jalb etilgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish nuqtayi nazaridan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, surishtiruv organlarining vakolatlarini tartibga soluvchi protsessual-huquqiy normalarni takomillashtirish zaruriyatini kelib chiqardi.

Ta'kidlash lozimki, jahonning rivojlangan davlatlarida 90 foiz jinoyat ishlari tezlashtirilgan, soddalashtirilgan shakllarda ko'riladi¹.

Ma'lumki, 2017-yilda O'zbekiston Respublikasining "Surishtiruv instituti takomil-

lashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan jinoyat protsessida ham yangi surishtiruv instituti joriy etildi².

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 38-moddasida Bojxona qo'mitasi va uning joylardagi bo'linmalari jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruvni amalga oshiruvchi organga aylandi³.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi hamda uning joylardagi bo'linmalariga – Jinoyat kodeksining 130-moddasi birinchi va ikkinchi qismlari, 130¹-moddasi, 184-moddasi birinchi va ikkinchi qismlari, 244³-moddasi, 244⁴-moddasi birinchi qismi hamda

1 Mahmudov S. Jinoyat protsessida ish yuritishni soddalashtirilgan tartiblari: xorij tajribasi va milliy amaliyot. // "Huquq va burch" jurnali. – Toshkent, 2022-yil, 4-son 12-18-betlar.

2 O'zbekiston Respublikasining "Surishtiruv institutini takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 442-sonli qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2017-yil.

3 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: rasmiy nashr. – Toshkent: Adolat, 2023-yil.



250¹-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv shaklida tergov o'tkazish hamda ishni ayblov dalolatnomasi bilan sudga yuborish vakolati berildi⁴.

Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 167-moddasi (*O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toloj qilish*) birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat bo'yicha, agar bojxona organi tomonidan ish qo'zg'atilgan bo'lsa, unga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ham bojxona organi tomonidan olib boriladi.

Bojxona organlari tomonidan surishtiruv o'tkaziladigan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu jinoyatlar har doim bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish bilan bog'liq holda sodir etiladi.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi va boshqa qonunchilik, shuningdek, xalqaro shartnomalar bilan qat'iy belgilangan.

Tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda bojxona chegarasidan har qanday tarzda o'tkazish qonunga xilof hisoblanadi va ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Jinoyat kodeksining 130-moddasida (*Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish*) yoki 130¹-moddasida (*Tazyiqni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish*) ko'rsatilgan mahsulotlarni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish orqali sodir etiladi.

Jinoyat kodeksining 244³-moddasida ham diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda sodir etiladi.

Demak, ushbu jinoyatlar ko'rsatilgan ahsyolarni O'zbekiston Respublikasi hududiga

olib kirishda sodir etiladi.

Jinoyat kodeksining 250¹-moddasida (*Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi*) pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda nafaqat O'zbekiston Respublikasiga olib kirishda, balki O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishda ham sodir etilishi mumkin.

Bojxona kodeksining 16-moddasida tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bevosita bojxona chegarasi orqali olib o'tishga qaratilgan harakatlar jumlasini ko'rsatilgan bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

- bojxona chegarasini kesib o'tayotgan jismoniy shaxsning bojxona nazorati hududiga kirishi;

- transport vositasining bojxona chegarasini kesib o'tish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktiga kirishi;

- bojxona hududiga yo'llash yoki ushbu hududdan tashqariga jo'natish uchun tovarlarni transport tashkilotlariga yoxud xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini pochta aloqasi operatorlari va provayderlariga topshirish;

- jismoniy shaxsning qonunchilikka muvofiq belgilanmagan joylardan tovarlar va (yoki) transport vositalari bilan bojxona chegarasini amalda kesib o'tishga qaratilgan harakatlari tushuniladi.

Jinoyat kodeksining 184-moddasi (*Soliqlar yoki yig'imlarni to'lashdan bo'yin tovalash*) 1-2 qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovalash bilan bog'liq holda sodir etilgan taqdirda mazkur toifadagi jinoyatlar bo'yicha ham surishtiruv harakatlari bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tishda quyidagi bojxona to'lovlari to'lanadi:

- bojxona boji;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;

4 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: rasmiy nashr. – Toshkent: Adolat, 2023-yil.



bojxona yig‘imlari.

Ta’kidlash lozimki, bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish jinoyati bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlarni deklaratsiya va kuzatuv hujjatlarida ko‘rsatmaslik yoki boshqa nom bilan ko‘rsatish, tovarlarning TIF TN kodini noto‘g‘ri ko‘rsatish, soxta hujjatlar asosida bojxona qiymatini kamaytirib ko‘rsatish kabi usullar orqali sodir etilishi mumkin.

Xalqaro tajribada bojxona organlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti ko‘plab davlatlarda mavjud. Masalan, AQSHda ikki turdagi bojxona xizmati mavjud bo‘lib, ulardan Immigratsiya va bojxona xizmati (ICE-Immigration Customs Enforcement) tergov sohasida juda katta vakolatlarga ega organ hisoblanadi.

Jumladan, Immigratsiya va bojxona xizmati ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatish, terrorizm, odam savdosi va kontrabandasi, qurol-yarog‘ kontrabandasi, narkotik moddalar savdosi va kontrabandasi, hujjatlar va daromadlar firibgarligi, soxta immigratsiya va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni tayyorlash, foydalanish va sotish, inson huquqlari buzilishi, transmilliy uyushgan jinoiy faoliyat, pul yuvish va yirik miqdordagi valyuta kontrabandasi kabi moliyaviy jinoyatlar, kiberjinoyat, bolalar ekspluatatsiyasi, tijorat firibgarligi va intellektual mulk o‘g‘irligi kabi savdo jinoyatlari, kontrafakt dori vositalari va boshqa tibbiyot buyumlari kontrabandasi, ommaviy marketing firibgarligi, san‘at o‘g‘irligi, viza xavfsizligi, xalqaro madaniyat va antikvariatga oid jinoyatlar kabilarning tergovini amalga oshiradi va mamlakat Milliy xavfsizlik kotibiga hisobot beradi⁵.

Hozirda Yevropa Ittifoqining a‘zo mamlakatlaridan biri Latviya Respublikasida bojxona idoralari Moliya vazirligi huzuridagi Davlat daromadlari xizmati tarkibida bo‘lib,

uning Soliq va bojxona politsiyasi deb nomlanuvchi tuzilmasi Latviya jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko‘ra 11 ta tergov organidan biri hisoblanadi⁶.

U soliq, bojxona va moliya sohasidagi huquqbuzarliklar yuzasidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish, gumonlanuvchini ushlab turish, barcha zarur tergov harakatlarini olib borish va ishni sudga yuborish vakolalariga ega.

Xalqaro amaliyotga ko‘ra, ayrim davlatlarda uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha surishtiruv harakatlari bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi.

MDH doirasida esa Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjon Respublikasi bojxona organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Xususan, Ozarbayjon Respublikasi Bojxona kodeksining 17-moddasiga ko‘ra, bojxona organlari jinoyat ishlari bo‘yicha tergov va surishtiruv olib borish vakolatiga ega.

Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 215-moddasiga ko‘ra, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha sudgacha soddalashtirilgan tarzda tergov olib boriladi⁷.

Bojxona organlari Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining 207-moddasi (*Ozarbayjon Respublikasi va xorijiy davlatlarning san‘at, tarixiy va arxeologik boyliklari hisoblangan buyumlarni Ozarbayjon Respublikasiga qaytarmaslik*) hamda 209-moddasida (*Bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash*) ko‘rsatilgan jinoyatlar bo‘yicha sudgacha soddalashtirilgan ko‘rinishdagi tergov o‘tkazadilar. Shuningdek, 206-moddasi (*Kontrabanda*) va 224-2-moddasida (*Eksport rejimini buzish*) ko‘rsatilgan jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergov harakatlari olib boriladi.

Rossiya Federatsiyasida valyuta boyliklarini qaytarmaslik, soxta hujjatlardan foyda-

5 United States Immigration and Customs Enforcement (ICE). Homeland Security Investigations Authorities and Responsibilities. – Washington, 2022. URL: <https://www.ice.gov>

6 Latviya Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Riga, 2022-yil.

7 Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Boku, 2022-yil.



lanib valyuta operatsiyalarini amalga oshirish, bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda naqd pul mablag‘lari kontrabandasi hamda kontrabanda ashyolarini o‘tkazish jinoyatlari bo‘yicha (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 193, 193.1, 194, 200.1 va 226.1-moddalari) bojxona organlari surishtiruvchilari tomonidan tergov shaklidagi surishtiruv o‘tkaziladi⁸.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bojxona organlarida surishtiruv institutining joriy etilishi jinoyat-protsessual tizimni optimallashtirish va sudga qadar ish yuritish bosqichida samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bojxona qonunchiligini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarning o‘ziga xosligi — ularning iqtisodiy munosabatlar, tashqi savdo va davlat budjeti daromadlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi ushbu toifadagi ishlarni ixtisoslashgan organ tomonidan ko‘rib chiqish zaruratini asoslaydi.

Bojxona organlari surishtiruvchilari tomonidan bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik normalarining puxta bilinishi va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi huquqiy munosabatlarning amaliyotda chuqur anglanishi ish yuritish sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu holat umumiy tergov organlariga nisbatan muayyan ixtisoslashuv afzalligini ta‘minlaydi hamda bojxona xizmati organlarida surishtiruv institutini takomillashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, protsessual vakolatlarining aniq chegaralangan qonuniylik va huquqiy kafolatlarni ta‘minlash nuqtayi nazaridan

muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba tahlili bojxona organlariga keng tergov vakolatlari berish amaliyoti ko‘plab davlatlarda mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Ayrim mamlakatlarda iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlar bo‘yicha ixtisoslashgan bojxona yoki soliq politsiyasi faoliyat yuritadi. Bu esa jinoyatlarni tezkor fosh etish, dalillarni yig‘ish va sudgacha bo‘lgan bosqichni qisqartirish imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida ham ushbu yo‘nalishdagi vakolatlarni bosqichma-bosqich kengaytirish masalasi ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Shu bilan birga, bojxona organlarida surishtiruv institutini yanada takomillashtirish uchun quyidagi masalalar dolzarb hisoblanadi:

– murakkab epizodli bo‘lmagan, qisqa muddatda ortiqcha bosqichlarsiz hal etish mumkin bo‘lgan ko‘p bo‘lmagan miqdordagi giyovandlik, psixotrop va kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni;

– ko‘p miqdordagi tovarlarni bojxona chegarasidan olib o‘tish bilan bog‘liq jinoyatlarni surishtiruv shaklida tergov qilish amaliyotini joriy etish hamda ushbu vakolatni bojxona organlariga berish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bojxona organlarida surishtiruv institutini tizimli, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan tarzda rivojlantirish mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, tashqi savdo munosabatlarida qonuniylikni ta‘minlash va huquqni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#



Baxrombek YARASHEV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi o'qituvchisi

SUD TERGOVINING ADOLATLILIGINI TA'MINLASHDA HIMOYA INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Maqolada jinoyat ishlari bo'yicha sud tergovining adolatliligini ta'minlashda advokatning (himoyachining) protsessual roli va vakolatlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Sud tergovida tortishuv va tomonlar tengligi prinsiplarini real amalga oshirishda advokatning faol ishtiroki ahamiyati asoslab berilgan. Amalda himoya huquqining cheklanishi sud tergovining mazmunan ayblovga yo'naltirilishiga olib kelayotgani ko'rsatilgan. Shuningdek, jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish maqsadida himoyachi fikri institutini joriy etish va uni sudga qadar hamda sud bosqichlarida hisobga olishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются вопросы совершенствования процессуальной роли и полномочий адвоката (защитника) в обеспечении справедливости судебного следствия по уголовным делам. Обосновано значение активного участия адвоката в реальной реализации принципов состязательности и равенства сторон в судебном следствии. На практике указано, что ограничение права на защиту приводит к тому, что судебное следствие по существу направляется на обвинение. Также в целях совершенствования уголовно-процессуального законодательства выдвинуты законодательные предложения, направленные на внедрение института мнения защитника и его учет на досудебной и судебной стадиях.

ABSTRACT. The article analyzes the issues of improving the procedural role and powers of an advocate (defender) in ensuring the fairness of judicial investigation in criminal cases. The importance of an advocate's active participation in the real implementation of the principles of adversarial proceedings and equality of the parties in judicial investigation is substantiated. In practice, it is indicated that the restriction of the right to defense leads to the fact that the judicial investigation is essentially directed to the prosecution. Also, in order to improve criminal procedure legislation, legislative proposals have been put forward aimed at introducing the institution of defense counsel's opinion and its accounting at the pre-trial and judicial stages.

Kalit so'zlar: sud tergovi, adolatli sudlov, advokat, himoyachi, himoya huquqi, tortishuv, tomonlar tengligi, jinoyat-protsessual qonunchilik.

Ключевые слова: судебное следствие, правосудие, адвокат, защитник, право на защиту, состязательность, равенство сторон, уголовно-процессуальное законодательство.

Key words: judicial investigation, justice, lawyer, defense counsel, right to defense, adversarial proceedings, equality of the parties, criminal procedure legislation.

Hozirgi kunda jinoyat ishlari bo'yicha sud tergovining adolatli, xolis va qonuniy o'tkazilishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Sud tergovi bosqichida ish bo'yicha barcha dalillarni to'liq, har tomonlama va xolisona tekshirish, taraflar o'rtasidagi protsessual muvozanatni ta'minlash hamda shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish adolatli sudlovning mazmuniy asosini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan sud tergovi jarayonida advokat (himoyachi) vakolatlarining hajmi va samaradorligi adolatli sudlovni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari 2022-yil 14-noyabr kuni odil sudlovni ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazgan yig'ilishda jinoyat ishini ayblov

xulosasi va himoyachi fikri bilan birga qabul qilishni nazarda tutuvchi qonun loyihalarini ishlab chiqish vazifasi qo'yilib, ushbu tashabbus 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham alohida ta'kidlandi: "So'nggi yillarda sud-huquq tizimida adolat o'rnatish bo'yicha ko'p ish qildik. Shu bilan birga, odil sudlovni ta'minlash bo'yicha hali qo'limiz yetib bormagan masalalar bor. Afssuski, hozir ham tergov sifati pastligi, sudlarda odamlarning ovoragarchiligi, sud qarorlari ijro etilmay qolayotgani bilan bog'liq holatlar uchramoqda. ... Odil sudlovni ta'minlashda himoyachiga berilgan huquqlar ham qayta ko'rib chiqilib, yetmaydigan vakolatlar beriladi. ... **Endi sudlarda jinoyat ishi faqat ayblov xulosasi bilan emas, balki himoya-**



chining fikri bilan birga qabul qilinadi”¹.

Amalda sud tergovi bosqichida advokatning protsessual faolligi ko‘p jihatdan cheklangan bo‘lib, uning dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdagi imkoniyatlari ayblov tomoni bilan to‘laqonli teng emasligi kuzatilmoqda. Bu holat tortishuv va tomonlar tengligi prinsiplarining formal xarakter kasb etishiga, sud tergovida ayblov pozitsiyasining ustun bo‘lishiga hamda ayrim hollarda sud qarorlarining adolatligiga shubha tug‘ilishiga olib kelmoqda. Bunday muammolar, ayniqsa, sud tergovi jarayonida advokatning iltimosnoma berish, guvoh va ekspertlarni so‘roq qilish, qo‘shimcha dalillar taqdim etish hamda protsessual harakatlarni o‘tkazishda tashabbus bildirish vakolatlari amalda samarali ta‘minlanmagan sharoitda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, xalqaro huquqiy standartlar va xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, adolatli sudlovni ta‘minlashda advokatning sud tergovidagi faol rolini kuchaytirishga ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Xususan, advokat vakolatlarining kengaytirilishi nafaqat himoya huquqining real amalga oshirilishiga, balki sud tergovining sifatini oshirish, protsessual xatolarning oldini olish va inson huquqlari buzilishi xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur holatlar sud tergovining adolatligini ta‘minlashda advokat vakolatlarini takomillashtirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida “sud tergovi” tushunchasiga alohida ta‘rif berilmagan bo‘lsa-da, mazkur institutning mazmuni sud muhokamasi doirasida dalillarni tekshirish va baholashga oid normalar orqali ochib berilgan. Ushbu normalar tahlilidan kelib chiqib “sud tergovi” tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berish mumkin.

Sud tergovi – jinoyat ishlari bo‘yicha sud muhokamasining mustaqil va hal qiluvchi bosqichi bo‘lib, sud tomonidan ayblov va himoya tomonlari ishtirokida dalillar bevosita, og‘zaki va tortishuv tartibida tekshiriladigan,

ularning huquqiy ahamiyati baholanadigan hamda ish bo‘yicha haqiqatga erishish orqali shaxs huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan adolatli sudlov amalga oshiriladigan jarayondir.

Sud tergovi sud muhokamasining markaziy bosqichi bo‘lib, unda taraflar sudlanuvchining aybdorligi yoki aybsizligi to‘g‘risida sudda ishonch hosil qilish, ish holatlarini aniqlash va yakuniy qaror qabul qilish maqsadida dalillarni (ko‘rsatuvlar, hujjatlar, ashyoviy dalillarni) raqobat tartibida taqdim etadilar va o‘rganadilar. Bu jarayon ayblovni e‘lon qilishdan boshlanib, taraflarning iltimosnomalarini hal qilish bilan yakunlanadi. Sud tergovi davomida taraflar o‘z nuqtayi nazarlarini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadilar, sud esa xolisona qaror qabul qilish uchun taqdim etilgan barcha ma‘lumotlarni sinchkovlik bilan o‘rganadi.

Sud tergovi jarayonida advokat (himoyachi) ayblanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlovchi asosiy protsessual subyekt hisoblanadi. Uning ishtiroki sud tergovida tortishuv, tomonlar tengligi va adolatli sudlov prinsiplarining real amalga oshirilishi uchun zarur shart hisoblanadi. Advokat sud tergovi davomida dalillarni tekshirish, ularga nisbatan e‘tiroz bildirish, guvohlar va ekspertlarga savollar berish, protsessual iltimosnomalar kiritish hamda himoya pozitsiyasini shakllantirish orqali sudning xolis qaror qabul qilishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, advokatning sud tergovidagi faol ishtiroki ayblov tomonining biryoqlama ustunligini bartaraf etishga, ish bo‘yicha barcha holatlarni to‘liq va har tomonlama aniqlashga hamda sud qarorining qonuniy va asosli bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan muhim protsessual kafolat sifatida namoyon bo‘ladi.

Quyida sud tergovining adolatligini ta‘minlashda himoya institutini takomillashtirish masalalari bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarimizning fikrlarini keltiramiz. Advokatning sud tergovidagi roli himoya huquqining real amalga oshirilishi bilan bevosita

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.



bog‘liq. Advokatning dalil to‘plash va tekshirishdagi vakolatlari cheklangan holda sud tergovni adolatli bo‘la olmaydi². Sud muhokamasining samaradorligi advokatning faqat ishtirok etishi bilan emas, balki uning tashabbus ko‘rsata olishi bilan belgilanadi. Sud tergovni va unga tayyorgarlik bosqichlarida advokatga protsessual tashabbus berish sudning xolis qaror qabul qilishiga xizmat qiladi³. Sud tergovida advokatning roli faqat himoya funksiyasi bilan cheklanmasdan, dalillarni tekshirish jarayonida protsessual muvozanatni saqlash vazifasini ham bajaradi. Himoya tomonining huquqlari cheklangan holda sud tergovni ayblovga yo‘naltirilgan xarakter kasb etadi⁴. Sud muhokamasining protsessual shakli uning mazmuni bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Agar advokat sud tergovida faol ishtirok etmasa, protsessual shakl saqlangan bo‘lsa-da, adolatli sudlov mazmunan ta‘minlanmaydi⁵. Tortishuvchanlik prinsipi sud tergovida faqat advokat va ayblov tomonining teng vakolatlari orqali amalga oshadi. Advokatning so‘roq qilish, e‘tiroz bildirish va dalil taqdim etish vakolatlari cheklangan holda sud tergovni tortishuvchan deb hisoblanmaydi⁶. Sud tergovni bosqichi himoya huquqi eng ko‘p buziladigan bosqich hisoblanadi. Advokatga guvoh va ekspertlarni faol so‘roq qilish, qo‘shimcha ekspertiza tayinlashni talab qilish huquqlari berilishi sud qarorlarining adolatliligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiladi⁷. Birinchi instansiya sudlarida sud tergovni amaliyotida ayblov tomonining ustunligi advokatning

roli formallashuviga olib kelmoqda. Sudyaning protsessual rahbarligi himoya huquqini cheklaydigan, aksincha advokat faolligini rag‘batlantirishi lozim⁸. Dalillarni tekshirish jarayonida advokatning savol berish va e‘tiroz bildirish vakolatlari sud tergovining sifatini belgilaydi. Himoyachining ushbu huquqlari cheklangan holda dalillarni baholash beryoqlama tus oladi⁹. Tomonlar tengligi prinsipi sud tergovida deklarativ emas, real protsessual vakolatlar muvozanati orqali ta‘minlanadi. Advokat vakolatlari prokuror vakolatlari nisbatan zaif bo‘lgan sharoitda tenglik ta‘minlanmaydi¹⁰. Sud qarorlarining asoslanganligi advokatning sud tergovidagi faol ishtirokiga bog‘liq. Himoyachining passiv ishtiroki ish bo‘yicha noto‘liq tekshiruvga va beqaror sud qarorlariga olib keladi¹¹.

Yuqorida qayd etilgan o‘zbek olimlarining ilmiy qarashlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, sud tergovida advokatning (himoyachining) roli jinoyat sudlovining adolatliligi, tortishuvchanligi va tomonlar tengligini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Olimlarning deyarli barchasi bir ovozdan advokat ishtirokining formal emas, balki faol, tashabbuskor va mazmunan ta‘minlangan bo‘lishi zarurligini ta‘kidlaydilar. Ularning umumiy pozitsiyasiga ko‘ra, advokatning dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdagi vakolatlari cheklangan holda sud tergovni mazmunan ayblovga yo‘naltirilgan xarakter kasb etadi hamda tortishuv prinsipi deklarativ tusda qoladi. Sud tergovida advokatning so‘roq qilish, e‘tiroz

2 Matkarimov Q.Q. Jinoyat ishlari yurituvini insonparvarlashtirish. Yurid. fan. d-ri (DSc) diss. – Toshkent, 2020-yil.

3 Esanaliyev S.N. Jinoyat protsessida dastlabki eshituv institutini takomillashtirish masalalari. Yurid. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2025-yil.

4 Xaknazarov Sh. Sudning jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlashi masalalari. Yurid. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2023-yil.

5 Raxmonov A.A. Jinoyat ishlari bo‘yicha sud muhokamasining protsessual shakli. Yurid. fan. d-ri (DSc) diss. – Toshkent, 2019-yil.

6 Yuldashev I.A. Jinoyat protsessida tortishuvchanlik prinsipini amalga oshirish muammolari. Yurid. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2021-yil.

7 Saidov U.B. Jinoyat protsessida himoya huquqini ta‘minlashning protsessual mexanizmlari. Yurid. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2022-yil.

8 Nazarov B.Sh. Birinchi instansiya sudlarida jinoyat ishlarini ko‘rishning protsessual muammolari. Yurid. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2020-yil.

9 Abdulazizov K.R. Sud muhokamasida dalillarni tekshirish va baholashning protsessual asoslari. Yurid. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2021-yil.

10 Karimova M.A. Jinoyat protsessida tomonlar tengligi prinsipini ta‘minlash. Yurid. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2019-yil.

11 Tursunov F.O. Jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlarining asoslanganligi. Yurid. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2022-yil.



bildirish, qo‘shimcha dalillar taqdim etish va ekspertiza tayinlash tashabbusini ilgari surish huquqlari real amalga oshirilmagan sharoitda sud muhokamasining protsessual shakli saqlangan bo‘lsa-da, adolatli sudlov mazmunan ta‘minlanmaydi.

Shuningdek, olimlar sudyaning protsessual rahbarligi advokat faolligini cheklovchi omil emas, balki himoya huquqini to‘laqonli amalga oshirishga xizmat qiluvchi vosita bo‘lishi lozimligini asoslaydilar. Advokatning sust (passiv) ishtiroki sud tergovining sifatini pasaytiradi, ish bo‘yicha holatlarning to‘liq va har tomonlama tekshirilmasligiga hamda natijada sud qarorlarining asoslanganligi va barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, mazkur olimlar qarashlarini umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, sud tergovining adolatligini ta‘minlash advokatning sud bosqichidagi protsessual vakolatlarini kengaytirish, uning faol ishtirokini kafolatlash va ayblov hamda himoya o‘rtasida real protsessual muvozanatni ta‘minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Bu esa jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishda advokatning sud tergovidagi roliga oid normalarni qayta ko‘rib chiqish va kuchaytirishni taqozo etadi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan muammoli holatlar va qonunchilik tahlilidan kelib chiqib, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Jinoyat-protsessual kodeksiga “**378¹-modda. Himoyachi fikri**” nomli modda kiritish.

“378¹-modda. Himoyachi fikri

Ayblanuvchi va uning himoyachisi jinoyat ishi materiallari bilan tanishib chiqqandan so‘ng, himoyachi ayblovga nisbatan o‘z fikrini, e‘tirozlarini hamda iltimosnomalarini yozma ravishda bildirishga haqli. Ushbu fikr, e‘tiroz va iltimosnomalar surishtiruvchi, tergovchi tomonidan qabul qilinishi va majburiy tartibda ko‘rib chiqilishi shart.

Himoyachining ayblovga nisbatan fikri yozma ravishda taqdim etiladi va quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

1) *himoyasi ostidagi shaxsga e‘lon qilingan ayblov bo‘yicha himoyachining pozitsiyasi, shu jumladan, ayblovning asosliligi va*

isbotlanganligiga oid huquqiy baholash;

2) *ayblovni tasdiqlovchi dalillarning ishonchliligi va yetarliligiga oid vajlar;*

3) *qonun talablari buzilgan holda olingan dalillarga oid e‘tirozlar;*

4) *ayblanuvchining aybsizligini yoki javobgarligini yengillashtiruvchi holatlar;*

5) *jinoyat ishini tugatish, ayblovni qayta kvalifikatsiya qilish yoki aybni yengillashtirish uchun asoslar;*

6) *qo‘shimcha tergov harakatlari o‘tkazish yoki qo‘shimcha dalillarni talab qilish haqidagi iltimoslar;*

7) *himoyachining xulosasi va yakuniy talabi”.*

Jinoyat-protsessual qonunchilikda himoya huquqi tortishuv va tomonlar tengligi prinsiplarining asosiy kafolati hisoblanadi. Biroq, amalda himoyachining ayblovga nisbatan bildirgan e‘tirozlari va dalillari tergov bosqichida mustaqil protsessual ahamiyatga ega hujjat sifatida aniq tartibga solinmagan. Bu holat ayblovning bir tomonlama shakllanishiga hamda ayblanuvchining huquqiy himoyasi yetarli darajada ta‘minlanmasligiga olib kelmoqda. Taklif etilayotgan 378¹-modda himoyachining ayblovga nisbatan yozma fikrini alohida protsessual institut sifatida mustahkamlaydi. Mazkur norma himoyachiga ayblovning asosliligi va isbotlanganligiga huquqiy baho berish, dalillarning ishonchliligiga e‘tiroz bildirish, qonunga xilof ravishda olingan dalillarni ko‘rsatish, oqlovchi yoki javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni asoslash, shuningdek, ishni tugatish yoki qayta kvalifikatsiya qilish haqida iltimos kiritish imkonini beradi.

Himoyachining fikrini surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan qabul qilish va majburiy tartibda ko‘rib chiqish talabi tergov faoliyatida protsessual muvozanatni ta‘minlaydi, ayblov va himoya pozitsiyalari o‘rtasidagi tenglikni real mazmun bilan to‘ldiradi. Bu esa jinoyat protsessida qonuniylik, adolat va inson huquqlarini himoya qilishning institutsional kafolatlarini kuchaytiradi.

Ilmiy nuqtayi nazardan mazkur norma sudga qadar ish yuritish bosqichidayoq asossiz ayblovlarini bartaraf etishga xizmat qiladi, sud xatolarining oldini oladi hamda jinoyat ishla-



ri bo‘yicha qarorlar sifatini oshiradi. Shu bois 378¹-moddani joriy etish jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishda mantiqiy va zarur qadam hisoblanadi.

2. Jinoyat-protsessual kodeksiga **“378²-modda. Himoyachining fikrini taqdim etish va ko‘rib chiqish tartibi”** nomli modda kiritish.

“378²-modda. Himoyachining fikrini taqdim etish va ko‘rib chiqish tartibi

Himoyachining fikri jinoyat ishi materiallari bilan tanishish yakunlangan kundan e‘tiboran uch sutka ichida taqdim etiladi. Tergovchi (surishtiruvchi) himoyachining fikrini qabul qilishi, uni jinoyat ishiga qo‘shishi va unda keltirilgan vajlar bo‘yicha qaror qabul qilishi shart”.

Jinoyat-protsessual huquqda himoya huquqining samarali amalga oshirilishi uning aniq protsessual tartib va muddatlar bilan ta‘minlanganligiga bevosita bog‘liq. Amalda himoyachining ayblovga nisbatan fikrini taqdim etish va uni tergov organi tomonidan ko‘rib chiqish mexanizmi qonun darajasida aniq belgilab qo‘yilmaganligi sababli mazkur huquqning amaliy qiymati pasayib, himoya pozitsiyasi formal tus olayotgan holatlar kuzatilmoqda. Taklif etilayotgan 378²-modda himoyachining fikrini jinoyat ishi materiallari bilan tanishish yakunlangan kundan e‘tiboran aniq protsessual muddat ichida taqdim etish talabini belgilaydi. Ushbu norma sudga qadar ish yuritish bosqichida protsessual aniqlik va huquqiy barqarorlikni ta‘minlab, ish yuritishning asossiz cho‘zilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Shu bilan birga, tergovchi (surishtiruvchi) zimmasiga himoyachining fikrini qabul qilish, uni jinoyat ishiga qo‘shish va unda keltirilgan vajlar bo‘yicha qaror qabul qilish majburiyatini yuklash himoya pozitsiyasining mustaqil protsessual ahamiyatini mustahkamlaydi. Bu tergov organlarini himoya tomoni bildirgan e‘tiroz va iltimosnomalarga nisbatan xolis va mas‘uliyatli munosabatda bo‘lishga majbur etadi. Ilmiy nuqtayi nazardan mazkur norma qonuniylik, tortishuv va tomonlar tengligi prinsiplarining sudga qadar bosqichdayoq amaliy ta‘minlanishiga xizmat qiladi. Natijada himoya huquqining deklarativ emas, bal-

ki real mazmunda amalga oshirilishi, shuningdek, jinoyat ishlari bo‘yicha qarorlarning sifat va asoslilik darajasi oshishi ta‘minlanadi.

3. Jinoyat-protsessual kodeksiga **“379¹-modda. Himoyachining fikrini hisobga olish majburiyati”** nomli modda kiritish.

“379¹-modda. Himoyachining fikrini hisobga olish majburiyati

Tergovchi ayblov xulosasini, surishtiruvchi ayblov dalolatnomasini tuzishda himoyachi tomonidan bildirilgan fikrlar, e‘tirozlar va iltimosnomalarni baholashi hamda ayblov xulosasida (ayblov dalolatnomasida) ular bo‘yicha o‘z munosabatini asoslantirilgan tarzda ko‘rsatishi shart.

Himoyachining fikrini olmasdan yoki ko‘rib chiqmasdan ayblov xulosasi tuzilishi jinoyat-protsessual qonun talablarining jiddiy buzilishi hisoblanadi”.

Jinoyat-protsessual huquq nazariyasida ayblov xulosasi (ayblov dalolatnomasi) sud muhokamasigacha bo‘lgan bosqichda jinoyat ishining huquqiy natijasini belgilab beruvchi asosiy protsessual hujjat hisoblanadi. Uning mazmuni nafaqat ayblovning shakllanishi, balki sudda tortishuv prinsipining amaliy ta‘minlanishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan ayblov xulosasining faqat ayblov tomoni pozitsiyasi asosida tuzilishi jinoyat protsessida protsessual muvozanatning buzilishiga olib keladi. Amalda himoyachi tomonidan bildirilgan fikrlar, e‘tirozlar va iltimosnomalar tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan formal tarzda qabul qilinib, ayblov xulosasida ularga huquqiy baho berilmasdan qoldirilayotgan holatlar uchramoqda. Bu esa himoya huquqining deklarativ tus olishiga, ayblovning bir tomonlama ustunligiga va sudga asossiz jinoyat ishlari yuborilishiga sabab bo‘ladi.

Taklif etilayotgan 379¹-modda ayblov xulosasini tuzishda himoyachi pozitsiyasini majburiy baholash va unga nisbatan asoslantirilgan munosabat bildirish talabini joriy etadi. Mazkur norma himoya tomonining dalillari va e‘tirozlarini inkor etish yoki rad etish holatlarida ham ularning sabablari ochiq va huquqiy jihatdan asoslangan tarzda bayon etilishini ta‘minlaydi. Bu esa ayblov xulosasining sifa-



tini oshiradi hamda sud tomonidan ish materialarini xolis baholash uchun zarur protsessual sharoit yaratadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan himoyachining fikrini olmasdan yoki uni ko‘rib chiqmasdan ayblov xulosasi tuzilishini jinoyat-protsessual qonun talablarining jiddiy buzilishi sifatida e‘tirof etish — qonuniylik va adolat prinsiplarini ta‘minlashning samarali kafolati hisoblanadi. Bu norma tergov organlarini himoya pozitsiyasiga nisbatan mas‘uliyatli va xolis yondashuvga majbur etadi hamda sudga qadar bosqichdayoq asossiz ayblovlarni bartaraf etish imkonini kuchaytiradi. Ushbu moddani joriy etish jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, himoya huquqining real kafolatlarini mustahkamlash va sud adolatining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

4. Jinoyat-protsessual kodeksining **“439-modda. Sud tergovining boshlanishi”** nomli moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirish.

“439-modda. Sud tergovining boshlanishi
(ikkinchi qism) Sudlanuvchi tomonidan ayblovga nisbatan munosabat bildirilgandan keyin himoyachi o‘z himoya fikri bilan chiqishga haqli”.

Jinoyat-protsessual huquq nazariyasida sud tergovining boshlanishi sud muhokamasida tortishuv va tomonlar tengligi prinsiplarining amaliy namoyon bo‘lish nuqtasi hisoblanadi. Amalda esa sud tergovni ayblovni davlat ayblovchisi tomonidan o‘qib eshittirish bilan boshlanib, himoya tomonining pozitsiyasi mazkur bosqichda protsessual jihatdan to‘liq ifodalanmay qolmoqda. Bu holat sud muhokamasining boshlang‘ich bosqichida ayblovning

ustun pozitsiyasini shakllantirishi mumkin. Taklif etilayotgan qo‘shimcha qismga muvofiq, sudlanuvchi ayblovga nisbatan o‘z munosabatini bildirgandan keyin himoyachiga himoya fikri bilan chiqish huquqini berish sud muhokamasida ayblov va himoya pozitsiyalarini muvozanatli ravishda ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur norma himoyachiga ayblovning mohiyati, huquqiy bahosi va himoya pozitsiyasini sud tergov boshlanishidayoq tizimli ravishda bayon etish imkonini yaratadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan himoyachi fikrining sud tergov boshlanishida eshutilishi sudyalarning ish bo‘yicha dastlabki huquqiy tasavvurini bir tomonlama emas, balki tortishuv asosda shakllantirishga ko‘maklashadi. Bu esa dalillarni xolis baholash, sud tergovining yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash va ayblovga nisbatan tanqidiy yondashuvni ta‘minlash uchun muhim ahamiyatga ega. JPK 439-moddasiga mazkur qo‘shimcha qismni kiritish sud muhokamasida himoya huquqining real kafolatlarini kuchaytiradi, tortishuv prinsipini mazmunan boyitadi hamda sud adolatining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sud tergovining adolatliligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar markazida advokatning sud bosqichidagi protsessual maqomini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, uning vakolatlarini kengaytirish va faol ishtirokini kafolatlash masalasi turishi lozim. Bu nafaqat jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishning mantiqiy davomi, balki inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish bo‘yicha davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarini amaliy mazmun bilan to‘ldirishning muhim sharti hisoblanadi.

#



Davron MIRZAXODJAYEV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi

GIYOHVANDLIK VA PSIXOTROP MODDALAR NOQONUNIY AYLANMASI JINOYATLARINING KRIMINALISTIK TAVSIFI

ANNOTATSIYA. Maqolada giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta'sir etuvchi va zaharli moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish masalalari ko'rib chiqilgan. Ushbu jinoyatlarni tergov qilishda amalga oshirilgan ayrim tergov harakatlari ochib berildi. Tadqiqotlar natijasida jinoyatni tergov qilishda zamonaviy, ilmiy asoslangan va amaliyotda sinovdan o'tkazilgan kriminalistik usullar, vositalardan foydalanish zarurligi aniqlandi. Mazkur turdagi jinoyatni sodir etish usulini tergov qilish jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan noqonuniy harakatlarni tayyorlash, sodir etish va yashirish borasida amalga oshirilgan harakatlarni va ularning atrof-muhitda iz sifatida aks etishini aniqlashga qaratilganligi aytib o'tilgan. Jinoyat sodir etish joyining shunday elementlari, masalan, giyohvandlik vositalarini olish manbai, saqlash va sotish joylari, iz hosil bo'lish mexanizmlari, jinoyat izlari va tintuv o'tkazish tartibi kabilarning alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются вопросы расследования преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств, психотропных веществ, сильнодействующих и ядовитых веществ. Раскрыты отдельные следственные действия, осуществляемые при расследовании данных преступлений. В результате исследований установлена необходимость применения современных, научно обоснованных и апробированных на практике криминалистических методов, средств и приёмов при расследовании. Отмечено, что расследование способа совершения данного вида преступлений направлено на выявление незаконных действий, предпринятых лицом при подготовке, совершении и сокрытии преступления, а также на установление их отражения в окружающей среде в виде следов. Подчёркнута особая значимость таких элементов места преступления, как источник получения наркотических средств, места хранения и сбыта, механизмы образования следов, криминальные следы и порядок проведения обыска.

ABSTRACT. The article examines the issues of investigating crimes related to the illicit trafficking of narcotic drugs, psychotropic substances, potent and toxic agents. Certain investigative actions carried out in the course of investigating these crimes are disclosed. The research results have established the necessity of applying modern, scientifically grounded, and practically tested forensic methods, tools, and techniques in the investigation process. It is noted that the investigation of the method of committing this type of crime is aimed at identifying the illegal actions undertaken by the offender in preparing, committing, and concealing the crime, as well as at establishing their reflection in the environment in the form of traces. Particular importance is emphasized regarding such elements of the crime scene as the source of obtaining narcotic drugs, places of storage and distribution, mechanisms of trace formation, material evidence, and the procedure for conducting searches.

Kalit so'zlar: kriminalistik xususiyatlar, giyohvandlik va psixotrop, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash, sotish.

Ключевые слова: криминалистические характеристики, наркотические средства и психотропные вещества, сильнодействующие вещества, изготовление, приобретение, хранение, сбыт.

Key words: forensic characteristics, narcotic drugs and psychotropic substances, potent substances, manufacture, acquisition, storage, distribution.

Huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini takomillashtirish avvalo jinoyatlarni fosh etish, ularni har tomonlama va xolis tarzda tergov qilish jarayonlarini samarali tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida, jinoyatchilikka qarshi kurashishda yuqori natijalarga erishish uchun tergov faoliyatini ilmiy ta'minlash tizimini chuqur rivojlantirishni taqozo etadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasidagi mas'uliyatli vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda faqat nazariy bilimlar emas, balki zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan, ilmiy

jihattan asoslangan va amaliyotda sinovdan o'tgan metodlar, texnik vositalar hamda samarali usullar hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, tergov jarayonlarini tashkil etishda kriminalistika fanining yutuqlari, sud-ekspertlik imkoniyatlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish ham huquqni muhofaza qilish organlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qonunga xilof ravishda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir etuvchi moddalar, shuningdek, ularning analoglarini olish, saqlash va tashish jinoyat-



larining kriminalistik xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

– jinoyatni sodir etish usuli, bunda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, uni amalga oshirish va izini yashirish usullari, shuningdek, maqsadga erishish uchun qo‘llaniladigan vositalar;

– jinoyat sodir etilgan joy va vaqti;

– jinoyat sodir etgan shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

Giyohvandlik moddalarini noqonuniy tayyorlash va saqlashda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi shaxsning istiqomat qilib kelgan xonasi, shuningdek, noturar joylar, jumladan, uylarning yerto‘lalari, omborxonalar va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Giyohvandlik moddalarini saqlash joylari haqida gapirar ekanmiz, ularning juda xilma-xil ekanini ta‘kidlash lozim. Ular ko‘p joy egallamaydi va jinoyat sodir etayotgan shaxslar o‘zlarida, kiyimlarida, yashash joyida, pinhon joylarda, transport vositalarida va hokazo joylarda olib yurishlari mumkin.

Odatda giyohvandlik va psixotrop moddalarni sotadiganlar odam ko‘p bo‘ladigan, oraga aralashib ketish oson bo‘lgan joylarni tanlaydi. Masalan, ko‘cha, do‘konlar, tungi klub. Ba‘zan sotuvchining uyi yoki ish joyi ham bo‘lishi mumkin.

Narkotik moddalarni ishlab chiqarish uchun kerakli xomashyo, jihoz va materiallarni qayerdan olishayotganiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Sun‘iy yo‘l bilan yaratilgan narkotik moddalarni qonuniy ravishda ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanuvchi joylarga ham nazar solish kerak. Bu kabi jinoyatlarni odatda laboratoriya yoki sanoat jihozlari va kimyoviy moddalarga ega bo‘lgan shaxslar sodir etishi mumkin. Bu degani, bunday shaxslar kimyo sohasida yaxshi bilimga ega ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati qonunlariga muvofiq giyohvand moddalar, giyohvand moddalar prekursorlari, psixotrop moddalar va I, II, III-giyohvand moddalar va psixotrop moddalar ro‘yxatiga muvofiq tartibga solinadi.

Giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan noqonuniy harakatlarni tayyorlash, sodir etish va yashirishga qaratilgan harakatlarni, boshqa shaxslar bilan (ijtimoiy tarmoqda) aloqalari va ularning atrof-muhitda iz sifatida aks etishini aniqlashga e‘tibor qaratiladi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi, kuchli ta‘sir etuvchi va zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash bilan bog‘liq jinoyatlar qatoriga JKning 250, 250¹, 270, 271, 273, 274, 275, 276-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi¹. Shu sababli jinoyat sodir etish usuli sifatida giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta‘sir etuvchi va zaharli moddalarni boshqa shaxslarga pulli yoki pulsiz asosida berish bilan bog‘liq har qanday harakat hisoblanadi.

Umuman olganda, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta‘sir etuvchi va zaharli moddalarni noqonuniy sotib olish, saqlash va tayyorlash turli sabablarga ko‘ra, jumladan, shaxsiy iste‘mol maqsadida ham amalga oshirilishi mumkin. Bu yerda shuni esda tutish kerakki, narkotik vositani sotib olinganmi yoki qo‘lbola usulda tayyorlanganmi, qanday bo‘lmasin, noqonuniy saqlash uchun javobgarlikka tortiladi.

Noqonuniy tashish deb transport vositalari yordamida giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta‘sir etuvchi va zaharli moddalarni bir aholi punktidan boshqasiga yoki bir aholi punkti doirasida ko‘chirish tushuniladi. Giyohvandlik moddalarini sotmasdan, ularni noqonuniy ravishda tozalash yoki kuchaytirish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanadi. Noqonuniy tashish deganda, jo‘natuvchining bevosita ishtirokisiz pochta banderollari, bagaj yuklari orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta‘sir etuvchi va zaharli moddalarni bir joydan boshqa joyga ko‘chirish tushuniladi. Bunda yuborish deganda, har qanday shakldagi yuklamalarni jo‘natish, ya‘ni pochta orqali yuborish, bagaj sifatida topshirish va boshqa shak-

1 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. [www://lex.uz/acts/111453](http://lex.uz/acts/111453). (Murojaat vaqti: 10.12.2025-y.)



llarda yuborish tushuniladi².

Jinoyat ishi tahlilidagi keyingi muhim jihah – bu jinoyat sodir etilishi natijasida qanday izlarning qolishi, ya’ni izlarning hosil bo’lish mexanizmi hisoblanadi. Masalan, giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta’sir etuvchi va zaharli moddalar bilan bog’liq jinoyatlarda bunday izlar saqlash, tayyorlash, tashish, yuborish, sotib olish yoki sotish kabi noqonuniy harakatlar natijasida hosil bo’ladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta’sir etuvchi va zaharli moddalar tayyorlashda ishtirok etish gumondor shaxslar tomonidan kofemol, tarozi va narkotik tayyorlashda ishlatiladigan boshqa buyumlarda qoldirilgan izlar bilan aniqlanadi. Shuningdek, ushlangan shaxslarning qo’llaridan olingan surtmalar va tirnoq kesimlarida narkotik izlari topilishi yoki protsessual tartibda ushlangan shaxslarning barmoq izlari narkotik tayyorlashda ishlatilgan buyumlarda topilishi ham gumon qilinuvchi shaxsning ishtirokini tasdiqlaydi³.

Protsessual tartibda ushlangan shaxsning kiyimida, avvalroq topilib olingan va olib qo’yilgan sumkasining ichidagi giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta’sir etuvchi va zaharli moddalarning izlari uning giyohvandlik vositalarini saqlaganidan dalolat beradi.

Ayblanuvchining giyohvandlik vositalarini sotishiga kichik miqdordagi paketlarga joylangan giyohvandlik vositalari, o’rash materiallarining mavjudligi, ularni sotishdan olingan pul mablag’lari, mobil qurilmalardagi giyohvandlik vositalari yashirin joylari belgilari (zakladkalar) joylashgan joyi ko’rsatilgan audio, foto va video ma’lumotlar mavjud bo’lgan xabarlar dalil bo’ladi.

Shu bilan birga, yuqorida ta’riflangan, giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta’sir etuvchi va zaharli moddalarni tayyorlash, saqlash va sotishga aloqadorligini ko’rsatuvchi moddiy izlarni ham kiritish mumkin.

Giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi sohasidagi jinoyatlarining ideal izlari sifatida quyidagilar tan olinadi: kuzatuv, qo’lga olishda ishtirok etgan operativ xodimlarning guvoh sifatidagi ko’rsatuvlari; nazorat xaridini amalga oshirgan shaxsning ko’rsatuvlari; qo’lga olingan shaxslarning shaxsiy tintuvi va ularning yashash joyini va hokazolarni tintuv qilishda ishtirok etgan xolislarning ko’rsatuvlari; gumon qilinuvchining turmush tarzi haqida muhim ma’lumotga ega bo’lgan shaxslarning ko’rsatuvlari. Jinoyat ishi materiallarida yuqoridagilarining barchasi so’roq bayonnomalarida aks ettiriladi.

Tintuv o’tkazishda odatda umumiy taktik tergov harakatlari qo’llaniladi. Bunga tintuv tergov harakatiga sinchkovlik bilan tayyorgarlik ko’rish, vaqt va joyni tanlash, ishtirokchilarni tanlash, tintuv o’tkazilishi rejalashtirilayotgan uyga kirish usullari kiradi. Giyohvandlik moddalari, psixotrop, kuchli ta’sir etuvchi va zaharli moddalar saqlanadigan joyni to’g’ri aniqlash, jinoiy guruh a’zolari o’rtasidagi aloqalarni aniqlashga erishilgan tintuv samarali hisoblanadi. Tintuv jarayonida topilgan va olib qo’yilgan barcha buyum va moddalarni alohida paketlarga joylashtirib, qog’oz belgi bilan yopishtirish, so’ng tushuntirish yozuvi yozib, ishtirokchilar, jumladan, xolislarning imzosini qo’yish zarur⁴.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra, dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo’liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo’lganlar tashkil etib, har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko’z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasi-ga to’g’ri keladi. Shu boisdan giyohvandlikka qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida BMT tomonidan “Narkotik moddalar to’g’risida”gi, “Psixotrop moddalar” hamda “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqo-

2 Taktoeva V. V. Narkotik moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog’liq jinoyat ishlari bo’yicha tintuv o’tkazish haqida / V. V. Taktoeva, E. S. Krasinskaya, N. Zaleskina // Kriminalistika: kecha, bugun, ertaga. 2017-yil, №3(3). 72–77-betlar.

3 Aleksandrova M.V. Narkotik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga doir jinoyat ishlarini tergov qilish metodikasi.-URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-rassledovaniya-prestupleniy> (murojaat vaqti 25.09.2025-y.)

4 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. [www://lex.uz/acts/111453](http://www.lex.uz/acts/111453). (Murojaat vaqti: 10.12.2025-y.)



nuniy aylanishiga qarshi qurash to'g'risida"gi konvensiyalar qabul qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra, 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lganlar orasida qayd etiladigan o'limlarning 1,3 foizi giyohvandlik oqibatida yuz berar ekan. Bir yilda 211 mingta o'lim aynan giyohvandlik oqibatida kelib chiqadi. Yevropada giyohvandlik oqibatida halok bo'layotganlarning o'rtacha yoshi 35 yoshni tashkil qiladi. Mutaxassislarning so'zlariga qaraganda, giyohvandlik oqibatida 1,6 million kishi VICHga muhtalo bo'ladi, 7,2 million kishi esa gepatit C virusini yuqtirib oladi. 1,2 million kishi gepatit B virusiga chalinadi. Giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish bilan bog'liq kasalliklarga uchraganlar soni dunyo bo'yicha 29 million kishidan ortib ketgan⁵. Giyohvandlik moddalari iste'moli so'zsiz aholi sog'lig'i va jamoat xavfsizligiga tahdid sifatida ko'riladi.

Afsuski, hozirgi kunda yoshlar orasida tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan dori vositalarini iste'mol qilish holatlarining uchrab turishi hamda yoshlarimizning ruhan va jismonan sog'lom bo'lib yetishishlari, zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib berilgan bo'lishiga qaramay narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni sodir qilishlari va giyohvandlik yo'lga kirib ketayotganligi achinarli holdir. Giyohvandlikka muhtalo bo'lish nafaqat bir shaxsning muammosi, balki ularning oilasi, jamiyat uchun ham bosh og'rig'idir. So'nggi yillarda jahon mamlakatlarida giyohvandlikka qarshi keng qamrovli kurash olib borilqda, turli tadbirlar o'tkazilmoqda. Bunda ijtimoiy reklamlardan ham keng foydalanilmoqda. Eng muhimi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish

yo'lida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda yoshlar an'anaviy giyohvandlik moddalaridan voz kechib, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar iste'moliga o'tmoqda, mamlakatda qariyb 5900 nafar giyohvandlik moddalari iste'mol qiluvchi yoshlar ro'yxatga olingan. Ularning katta qismi Andijon va Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahriga to'g'ri keladi⁶.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik va psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning noqonuniy muomalasiga aloqadorligini ko'rsatuvchi buyum va moddalarni topish, mustahkamlash, qayd etish va olib qo'yish bo'yicha protsessual tartibga rioya qilish va tintuv jarayonida taktik usullarni qo'llash uning samaradorligining kafolati hisoblanadi. Shunday qilib mazkur jinoyat turining kriminalistik xususiyatlari elementlarini o'rganish jarayonida jinoyat sodir etilgan joyning shunday elementlari, masalan, giyohvandlik vositalarini olish manbayi, ularni saqlash va sotish joylari, iz qoldirish mexanizmlari, jinoyat izlari va tintuv tergov harakati alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan bir qatorda shuni ta'kidlash kerakki, dunyoqarashi endigina shakllanib boryotgan, bor kuch-g'ayratini faqat bilim olishga, izlanishga, hunar o'rganishga sarflashi kerak bo'lgan bir paytda, o'smirlarni aldov yo'li bilan giyohvandlik qurboniga aylantirayotgan kimsalar ozmi? Qanchadan-qancha oilalarning yostig'ini quritayotgan giyohvandlikka qarshi har bir inson o'zi kurashmog'i, tashqi ta'sirlardan himoyalannmog'i lozim. Voyaga yetayotgan farzandlarimiz o'tmishi qadim, tuprog'i oltin, osmoni musaffo O'zbekistonning kelajak vorislaridir.

#

5 Taktoeva V. V. Narkotik moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha tintuv o'tkazish haqida / V. V. Taktoeva, E. S. Krasinskaya, N. Zaleskina // Kriminalistika: kecha, bugun, ertaga. 2017-yil, №3(3), 72-77-betlar.

6 O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotnoma.



G‘ayrat NABIYEV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi o‘qituvchisi

JINOYAT PROTSESSIDA EKSPERT VAKOLATLARINING HUQUQIY CHEGARALARI VA ULARNI QONUNCHILIKDA MUSTAHKAMLASH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Maqolada jinoyat-protsessual faoliyatda ekspert vakolatlarining chegaralarini aniq belgilash muammolari tahlil qilingan. Muallif ekspert tomonidan o‘z kompetensiyasidan chetga chiqib huquqiy baho berish holatlarining salbiy oqibatlarini ilmiy asoslab beradi. Tadqiqot davomida milliy qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar va xorijiy tajriba qiyosiy o‘rganilib, O‘zbekiston Respublikasi JPKga ekspertga huquqiy savollar berishni taqiqlovchi qat’iy norma kiritish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются проблемы четкого определения пределов полномочий эксперта в уголовно-процессуальной деятельности. Автор научно обосновывает негативные последствия случаев выхода эксперта за рамки своей компетенции путем дачи правовых оценок. В ходе исследования изучены правовые пробелы в национальном законодательстве и зарубежный опыт, на основе которых выдвинуты обоснованные предложения по введению в УПК Республики Узбекистан императивной нормы, запрещающей постановку правовых вопросов перед экспертом.

ABSTRACT. The article analyzes the problems of clearly defining the boundaries of expert powers in criminal procedural activities. The author provides a scientific justification for the negative consequences of cases where experts exceed their competence by providing legal assessments. The research examines legal gaps in national legislation and international experience, proposing the introduction of an imperative rule into the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan that strictly prohibits posing legal questions to an expert.

Kalit so‘zlar: sud ekspertizasi, ekspert vakolati, huquqiy savollar, maxsus bilimlar, dalillar maqbulligi, jinoyat protsessi, huquqiy bo‘shliq, imperativ taqiq.

Ключевые слова: судебная экспертиза, компетенция эксперта, правовые вопросы, специальные знания, допустимость доказательств, уголовный процесс, правовой пробел, императивный запрет.

Key words: forensic examination, expert competence, legal questions, specialized knowledge, admissibility of evidence, criminal procedure, legal gap, imperative prohibition.

Jinoyat-protsessual faoliyatda ekspertiza institutining asosiy vazifasi – ish holatlarini aniqlash uchun zarur bo‘lgan, biroq surishtiruvchi, tergovchi yoki sudda mavjud bo‘lmagan maxsus bilimlarni jalb qilishdir. Biroq, amaliyotda ekspertiza tayinlash vakolatiga ega subyektlar tomonidan ekspert oldiga uning kompetensiyasidan tashqariga chiqadigan, ya’ni huquqiy baho berishni talab qiladigan savollar qo‘yilishi bilan bog‘liq muammo mavjud.

Shu bilan birga, ekspertning tergovchiga faktik holatlar yuzasidan o‘z vaqtida axborot berishi tergov taktikasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgani holda, aynan ushbu hamkorlikning protsessual chegaralarini aniq ajratish, xususan, ekspertning vakolat doirasiga kirmaydigan huquqiy savollarga javob berishiga yo‘l qo‘ymaslik masalasi uning faoliyatining qonuniyligini ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Tadqiqotchi sifatida ekspert vakolatining

protsessual chegarasini aniqlash maqsadida uning vakolatiga kiruvchi faktik savollar va vakolatidan tashqariga chiquvchi huquqiy savollar o‘rtasidagi farqni aniq misollar orqali ko‘rib chiqish muhimdir.

Ekspertning asosiy vazifasi – fan, texnika, san’at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlariga tayanib, faktik holatlarni aniqlashdir. Masalan, o‘lim sababini, imzoning kim tomonidan qo‘yilganini, yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash. Huquqiy savollar esa – bu aniqlangan faktik holatlarga yuridik baho berishdir. Masalan, “Ayblanuvchining harakatlarida Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) alomatlari mavjudmi?”, “Yetkazilgan zarar ko‘p miqdorni tashkil etadimi?”, “Shaxsning harakatlari ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilganmi?”. Bu kabi savollarga javob berish – faqatgina surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning mutlaq vakolatiga kiradi.

Tadqiqotchi sifatida shuni qayd etish lo-



zimki, ekspert oldiga yuqoridagi kabi huquqiy savollarni yuklash ekspertning protsessual maqomi va vakolat doirasi haqidagi barcha nazariy va qonuniy qoidalarga zid kelib, quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Birinchiidan, protsessual funksiyalarning noto‘g‘ri taqsimlanishi va vakolatlarining aralashib ketishiga olib keladi. Sodir etilgan qilmishga huquqiy baho berish va uni kvalifikatsiya qilish – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning mutlaq kompetensiyasi bo‘lib, bu vazifani ekspertga yuklash jinoyat protsessining asosiy tamoyillarini buzadi.

Ikkinchiidan, ekspert xulosasining maqbul-ligiga putur yetadi. Agar ekspert o‘z vakolati doirasidan chiqib, huquqiy kvalifikatsiya masalalariga aralashsa, uning xulosasi Jinoyat-protsessual kodeksining dalillar maqbul-ligiga oid talablariga zid kelib qoladi va natijada sud tomonidan nomaqbul deb topilishi uchun asos yaratadi.

Uchinchiidan, sud xatosiga yo‘l qo‘yilish xavfi ortadi. Ekspertning yuridik bahosi sudning ichki ishonchiga asossiz ravishda ta‘sir o‘tkazishi, uni xolis qaror qabul qilishdan chalg‘itishi mumkin. Huquqiy bilim-ga ega bo‘lmagan ekspertning yuridik atamalarini noto‘g‘ri talqin qilishi esa yakunda adolatsiz hukm chiqarilishi uchun zamin yaratadi.

Yuqoridagi salbiy oqibatlarning mavjudligi avvalo, milliy qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliq sabab bo‘layotganini ko‘rsatadi. Bu huquqiy bo‘shliqning mohiyati shundaki, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida ekspertga huquqiy mazmundagi savollar berishni to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri taqiqlovchi imperativ norma mavjud emas. JPKning 172-moddasida ekspertiza “ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni... maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda” tayinlanishi umumiy tarzda belgilangan, lekin bunda huquqiy baholash holatlari istisno etilmagan.

Qonunchilikdagi ushbu noaniqlik o‘z navbatida, sud-tergov amaliyotida turlicha huquqni qo‘llash holatlarini va protsessu-

al vakolatlarining aralashib ketishini keltirib chiqarmoqda. Ayrim hollarda tergovchilar tomonidan jinoyatning huquqiy kvalifikatsiyasiga oid yoki aybdorlik masalasiga daxldor bo‘lgan, aslida o‘zlari aniqlashi lozim bo‘lgan holatlarni ekspert zimmasiga yuklashga urinish holatlari kuzatilmoqda.

Ekspert vakolatlarini huquqiy masalalardan aniq chegaralash zarurati jinoyat-protsessual huquqi va kriminalistika fani doktrinasi-dagi fundamental g‘oyalardan biri sanaladi. Yetakchi olimlar ushbu masalada yakdil fikrni ilgari suradilar.

Professor E.Rossinskaya ekspertning kompetensiyasi faqat uning maxsus bilimlari bilan chegaralanishini, harakatlarga huquqiy baho berish (aybdorlik, qasd, jinoyatni kvalifikatsiya qilish) esa uning vakolatidan mutlaqo tashqarida ekanligini qat‘iy ta‘kidlaydi. Uning fikricha, ekspert tomonidan berilgan har qanday huquqiy baho vakolatni suiiste‘mol qilish sifatida baholanishi lozim.

Protsessualist olim Y.Orlov ekspertning huquqiy savollarga javob berishini nafaqat qonunni buzish, balki sudning funksiyasini boshqa subyektga yuklash orqali odil sudlovning mohiyatiga putur yetkazish deb hisoblaydi. Uning ta‘kidlashicha, bunday xulosa hech qanday daliliy kuchga ega bo‘lmasligi kerak.

Zamonaviy sud-ekspertlik nazariyasining eng yirik vakillari – David L.Faigman, David H.Kaye, Michael J.Saks, & Jennifer L.Mnookin kabi olimlar ekspert ko‘rsatmalarining ilmiy ishonchliligini baholash masalasida fundamental ishlarni amalga oshirganlar. Ularning qarashlariga ko‘ra, ekspert xulosasining sud tomonidan dalil sifatida qabul qilinishi faqatgina uning protsessual tartibda olinganligi bilan emas, balki xulosaning ilmiy asosi (scientific basis) bor-yo‘qligi bilan ham aniqlanishi shart¹. Fikrimizcha, bu yondashuv bizning milliy qonunchiligimizda ham ekspert xulosasining ishonchliligini baholashda ilmiy tekshirilishi mumkinlik va xatolik darajasi kabi mezonlarni qo‘llash zarurligini asoslaydi.

Kriminalistika fanining asoschilaridan biri

1 Federal Rules of Evidence (FRE) 702. (AQSH Dalillar to‘g‘risidagi federal qoidalari). David L. Faigman, David H. Kaye, Michael J. Saks, & Jennifer L. Mnookin Daubert v. Merrell Dow Pharmaceuticals, Inc., 509 U.S. 579 (1993).



R.S.Belkin esa ekspert vakolatlarining aniq chegarasini belgilab, ekspert huquqiy kvalifikatsiyaga yordam beradigan faktlarni aniqlashi mumkinligini (masalan, “qulf kalit tanlash yo‘li bilan ochilganmi yoki kuch ishlatib buzilganmi?”), lekin yakuniy huquqiy savolga (“ushbu harakat o‘g‘rilik hisoblanadimi?”) javob bera olmasligini alohida ko‘rsatib o‘tgan.

Fikrimizcha, ushbu olimlarning bir xil pozitsiyasi ekspertning protsessual maqomiga nisbatan qo‘yiladigan eng asosiy fundamental talabni – surishtiruvchi, tergovchi va sud funksiyalarini almashtirmaslik tamoyilini nazariy jihatdan mustahkamlaydi.

Mazkur yondashuv milliy olimimiz I.Astanov tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi. U o‘zining tadqiqotlarida huquqiy sohadagi bilimlar protsessual ma‘noda “maxsus bilim” hisoblanmasligini, chunki bu bilimlar tergovchi va sudning o‘zida mavjud bo‘lishi shartligini asoslaydi². Uning xulosasiga ko‘ra, ekspertga huquqiy savol berish vakolatlarining aralashib ketishiga olib keladi va bu holatni bartaraf etish uchun milliy qonunchilikka aniq taqiqlovchi norma kiritish zarur.

Bunday yondashuvlar G‘.Abdumajidov, Z.Inog‘omjonova³ kabi boshqa o‘zbek huquqshunos olimlarining ishlarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, ular ham milliy qonunchilikda bu masalaga aniqlik kiritish zarurligini ta‘kidlashadi. Olimlarning fikrlarini tahlil qilib, ularning ekspert vakolati chegarasiga oid qarashlariga to‘liq qo‘shilamiz va bu yondashuvni nazariy jihatdan asosli deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan salbiy protsessual oqibatlarining oldini olish uchun ekspert vakolatlarini huquqiy masalalardan aniq chegaralash amaliyoti ilg‘or xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida ham o‘z aksini topgan. Aynan shu huquqiy

tajriba milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun muhim qiyosiy-huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, bir qator davlatlar ushbu muammoni o‘z qonunchiligida imperativ normalar orqali hal etgan.

Masalan, Qirg‘iziston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 56-moddasida ekspertga huquqiy masalalar bo‘yicha savollar berish mumkin emasligi aniq va qat‘iy taqiq sifatida belgilangan⁴. Xuddi shunday yondashuvni Armaniston Respublikasi qonunchiligida ham kuzatish mumkin: uning Jinoyat-protsessual kodeksi 85-moddasida “Huquqiy masalalar yuzasidan esa ekspert jinoyat ishiga jalb qilinmaydi” degan qoida mustahkamlangan⁵. Tadqiqotchi sifatida biz ushbu davlatlarning tajribasi protsessual funksiyalarning aniq ajratilishi va ekspertning o‘z vakolat doirasida faoliyat yuritishini ta‘minlash uchun qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlovchi normalarning mavjudligi maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi deb hisoblaymiz.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 67-moddasini quyidagi mazmundagi yangi uchinchi qism bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“Ekspertga huquqiy masalalar yuzasidan savollar berish taqiqlanadi”.

Taklif etilayotgan qat‘iy normaning qonunchilikka kiritilishi amaliyotdagi huquqni qo‘llashdagi noaniqliklarga barham berish, ekspert va jinoyat ishini yurituvchi organlarning vakolatlarini aniq chegaralash orqali ekspert xulosalarining sifati va maqbulligini oshirishga hamda tergov va sud faoliyatining qonuniyligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, ekspertning protsessual maqomini kompleks tavsiflash na faqat uning huquq va majburiyatlarini belgilash, balki uning faoliyatiga qo‘yiladigan aniq taqiqlarni ham qamrab olishni taqozo etadi.

2 Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo‘yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual kriminalistik va jihatlari. Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020-yil.

3 Jinoyat protsessi. Umumiy qism. Darslik / Prof. Z.F.Inog‘omjonovanning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: TDYU, 2008-yil, 400-bet.

4 Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 28.10.2021 г. № 129. // https://continent-online.com/Document/?doc_id=36639004#pos=1365;-20 (murojaat sanasi: 08.05.2024-y.)

5 Уголовно-процессуальный кодекс Республики Армения от 01.07.1998 г. № 3P-248. //: <https://www.arlis.am/hy/acts/82645> (murojaat sanasi: 08.05.2024-y.)



Milliy jinoyat-protsessual qonunchiligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda ekspert faoliyatiga oid imperativ taqiqlovchi normalarning mavjud emasligi jiddiy huquqiy bo‘shliq sifatida baholanishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, ekspert tomonidan o‘z vakolat doirasidan chetga chiqish va tergov kabi boshqa protsessual funksiyalarni bajarish xavfini yuzaga keltiradi.

Afsuski, qonunchilikdagi ushbu bo‘shliq amaliyotda bir qator tizimli muammolar va protsessual xatoliklar ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda: xususan, ekspertlarning ayrim turdagi (kimyoviy, ballistik) tadqiqotlar jarayonida ashyoviy dalillarni vakolatli organning maxsus ruxsatisiz o‘zgartirishi yoki yo‘q qilishi natijasida dalillarni qayta tekshirish imkoniyati yo‘qolib, ularning maqbulligiga putur yetayotgan bo‘lsa, ayni paytda jinoyat protsessi ishtirokchilarining ekspert bilan bevosita, nazoratsiz muloqotga kirishish holatlari uning xolisligiga jiddiy shubha uyg‘otib, tergov sirining oshkor bo‘lish xavfini oshirmoqda. Qolaversa, tergov organlari tomonidan namuna olishdek protsessual harakatning asossiz ravishda ekspert zimmasiga yuklatilishi vakolat doirasidan chetga chiqish va protsessual tartibning qo‘pol buzilishi sifatida baholanmoqda.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan tizimli amaliy muammolarning tub ildizi ekspert vakolatlari chegarasining qonunchilikda aniq belgilanmaganligidan kelib chiqmoqda. Shu sababli ushbu protsessual noaniqliklarni bartaraf etish va ekspert faoliyatiga qo‘yiladigan cheklovlarni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida sohaning yetakchi olimlari tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, E.Zaytsevaning fikricha: “Ekspert tomonidan materiallarni mustaqil ravishda to‘plashga yo‘l qo‘yilmaydi, chunki bu tergovning funksiyasi hisoblanadi va dalillarni to‘plash qoidalarini (protsessual shaklni) bu-

zadi. Ekspert faqatgina unga qonunda belgilangan tartibda (qaror asosida) taqdim etilgan materiallar bilan ishlashi shart”⁶.

Biz olimning bu qarashini protsessual funksiyalarning aniq ajratilishini ta‘minlovchi fundamental qoida deb hisoblaymiz. Ekspertga materiallarni mustaqil to‘plashni taqiqlash uning tergov funksiyasini o‘zlashtirib olishining (ya‘ni tergovchining o‘rnini egallab olishning) oldini oladi va ekspertni faqat xolis maxsus bilim manbayi sifatida qoldiradi. Bu tamoyil Jinoyat-protsessual kodeksining talblariga muvofiq, ekspert xulosasining maqbulligi (dalil sifatida yo‘l qo‘yilishi) uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar ekspert materiallarni noqonuniy yo‘l bilan to‘plasa, bu uning xulosasi sud tomonidan rad etilishiga asos bo‘lishi mumkin.

Ushbu yondashuvni rivojlantirgan holda amaliyotchi olim Andrey Tkachenko ham ekspert tadqiqot uchun materiallarni mustaqil ravishda to‘plashga haqli emasligini, agar qo‘shimcha materiallar zarur bo‘lsa, faqat ekspertizani tayinlagan subyektga iltimosnoma kiritish orqali murojaat qilishi lozimligini uqtiradi⁷. Fikrimizcha, olimlarning bu qarashlari ekspertning xolisligini kafolatlash uchun chuqur ahamiyatga ega, zero materiallarni mustaqil ravishda to‘plash ekspertning tergov funksiyasini o‘zlashtirib olishini anglatadi.

Professor V.Kurtenok ekspertning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini o‘rganish bilan bir qatorda, uning protsessual maqomiga qo‘yilgan cheklovlar ham uning kasbiy faoliyatining ajralmas qismi ekanligini ta‘kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, ekspert sud va tergovning ruxsatisiz protsess ishtirokchilari bilan muzokaralar olib borishi yoki axborot almashishi mumkin emas⁸. Biz V.Kurtenokning ekspertning protsessual maqomidagi cheklovlarning zarurligi haqidagi pozitsiyasini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Ekspertga qo‘yilgan ushbu cheklovlar uning javobgarlik maqomining

6 Зайцева Е.А. Концепция развития института судебной экспертизы в условиях состязательного уголовного судопроизводства. Дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2008 г. – С. 137.

7 Ткаченко А.А. Использование специальных судебно-психиатрических знаний в деятельности адвоката: Лекция в рамках вебинара ФПА РФ. – Москва, 14.12.2020 г. – URL: <https://fparf.ru/news/fpa/ekspert-v-labirintakh-sudebnoy-psixiatrii/> (murojaat sanasi: 24.05.2025-y.)

8 Куртенок В.С. Права, обязанности и ответственность судебного эксперта // Вестник науки. – 2024 г. – № 23 (72).



ajralmas qismi bo‘lib, xulosaning mustaqilligi va ishonchligini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Aynan shu qoidaning amaliy ifodasi sifatida T.Moiseeva ekspert faoliyatidagi cheklovlariga oid qarashlarini ilgari suradi. Professor Moiseeva sud ekspertining asosiy funksiyasi faqatgina unga taqdim etilgan obyektlarni tadqiq qilish va ushbu tadqiqot asosida ilmiy asoslangan xulosa chiqarish ekanligini ta‘kidlaydi⁹. Uning fikricha, sud eksperti ekspert tadqiqoti uchun materiallarni mustaqil to‘plashga haqli emas. Bu faoliyat, ya‘ni dalillarni aniqlash, qayd etish va olib qo‘yish – tergovchi yoki u tomonidan jalb qilingan mutaxassis-kriminalistning vakolatiga kiradi.

Biz T.Moiseevaning ekspert vakolatining kriminalistik faoliyatdagi noaniq chegaralari haqidagi fikriga to‘liq qo‘shilamiz. Aynan ekspertning “mustaqil to‘plashga haqli emasligi” haqidagi taqiqni amalda izchil qo‘llash uning xolisligi va betarafiligini ta‘minlashning muhim shartidir.

Ushbu nazariy mulohazaning amaliy ahamiyati va uning qonunchilikda mustahkamlanish zarurati o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarida ham o‘z tasdig‘ini topdi. “Sizningcha, JPKda ekspert tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lmagan harakatlar (taqiqlar) ro‘yxatini aniq belgilash kerakmi?” degan savolga respondentlarning mutlaq ko‘pchiligi – 68 foizi buni “ekspert vakolatlarining chegarasini aniq belgilab, suiiste‘molliklarning oldini oladi” deb ijobiy baholagan. Bu natijalar amaliyot xodimlarining aksariyati ekspert faoliyatiga aniq taqiqlar o‘rnatish tarafdori ekanligini va buning protsessual intizom uchun muhimligini ko‘rsatadi.

Aynan shu huquqiy bo‘shliqni bartaraf etish va amaliyot xodimlarining talablarini inobatga olgan holda, qiyosiy-huquqiy tahlil muhim ahamiyatga egadir. Xususan, Qozog‘iston Respublikasining jinoyat-protsessual qo-

nunchiligida ekspertga bir qator harakatlarni amalga oshirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlanganligi milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun asos bo‘ladi. Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 79-moddasi 4-qismi ekspertning vakolat doirasiga aniq chegaralar qo‘yadi. Unga ko‘ra, ekspert tergovni olib boruvchi organning ruxsatisiz protsess ishtirokchilari bilan muzokaralar olib borishga, tadqiqot uchun materiallarni mustaqil ravishda to‘plashga va ekspertizani tayinlagan organning maxsus ruxsatisiz obyektlarni to‘liq yoki qisman yo‘q qilishga olib kelishi mumkin bo‘lgan tadqiqotlarni o‘tkazishga haqli emasligi belgilab qo‘yilgan¹⁰.

Yuqoridagi nazariy mulohazalardan va xalqaro tajribadan kelib chiqib, ekspertning protsessual maqomi buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik va uning vakolatlarini aniq chegaralash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 68-moddasi 3-qismini quyidagi mazmundagi taqiqlovchi normalar bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Ekspertga quyidagilar taqiqlanadi:

“surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning ruxsatisiz protsess ishtirokchilari bilan ekspertiza o‘tkazishga oid masalalar bo‘yicha muzokaralar olib borish;

ekspertiza tadqiqoti uchun mustaqil ravishda materiallar to‘plash;

ekspertizani tayinlagan organning maxsus yozma ruxsatisiz taqdim etilgan obyektlarning to‘liq yoki qisman yo‘q bo‘lishiga yoxud ularning tashqi ko‘rinishi yoki asosiy xususiyatlarining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tadqiqotlarni o‘tkazish”.

Fikrimizcha, taklif etilayotgan taqiqlar ekspertning o‘z vakolat doirasidan chiqib tergovchining funksiyalarini bajarishiga yo‘l qo‘ymaydigan huquqiy to‘siq vazifasini o‘taydi. Pirovardida bu sud ekspertining obyektivligi va xolisligini ta‘minlashning qo‘shimcha kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

#

9 Моисеева Т.Ф. Криминалистическая деятельность судебного эксперта: возможности и ограничения // Вестник Московского университета МВД России. – 2022 г. – № 3. – С. 174-176. DOI: 10.24412/2073-0454-2022-3-174-176.

10 Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (04.07.2014-y. № 231-V QPQ), 79-modda. // URL: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231#z2241> (murojaat sanasi: 20.05.2025-y.)



Sarvarbek IBADULLAYEV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi o'qituvchisi

XORIJIY MAMLAKATLARNING JINOYAT-HUQUQIY MASALALARIDA SUDLANGANLIK HOLATI VA MUSTAQIL HUQUQIY INSTITUT SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA. Maqolada muallif tomonidan xorijiy davlatlar va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi ayrim mamlakatlarning jinoyat qonunlarida ozodlikdan mahrum qilishning muddatlari hamda ijtimoiy xavflilik darajasi va sudlanganlik holatining tugallanish qoidalarining ayrim masalalari tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ. В статье автором проанализированы отдельные вопросы, касающиеся сроков лишения свободы, степени общественной опасности, а также правил прекращения судимости в уголовном законодательстве зарубежных государств и некоторых стран, входящих в Содружество Независимых Государств.

ABSTRACT. The article analyzes certain issues related to the terms of imprisonment, the degree of social danger, and the rules for the expiration of a criminal record in the criminal legislation of foreign countries and several member states of the Commonwealth of Independent States.

Kalit so'zlar: amnistiya va afv etish akti, sudlanganlik, muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqi, sudlanganlik holati muddatlarini belgilash, sudlanganlik holati tugallanmagan va olib tashlanmagan shaxslar.

Ключевые слова: амнистия и акт помилования, судимость, право заниматься определённой деятельностью, установление сроков судимости, лица с непогашенной и неснятой судимостью.

Key words: amnesty and pardon acts, criminal record, the right to engage in certain activities, determination of the duration of a criminal record, persons with an unspent and unexpunged criminal record.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi ayrim mamlakatlarning jinoyat qonunlarida sudlanganlik muddati ozodlikdan mahrum qilishning muddatlariga qarab emas, balki sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish faktiga qarab olingan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 86-moddasida sudlanganlik muddatlari sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab belgilangan. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan ozodlikdan mahrum qilishning qancha muddati o'tganligidan qat'i nazar, sudlanganlik muddati uch yil, og'ir jinoyatlar uchun sakkiz yil belgilangan. Sudlanganlik holati muddatlarini belgilashning bunday tartibi ma'lum mavhumlik va noaniqlikni keltirib chiqaradi. Masalan, bir necha uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun jinoyatlar jami tariqasida uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning sudlanganlik muddati

ham uch yil, bir jinoyatda yordamchi sifatida ishtirok etib ozodlikdan mahrum etilganining ham sudlanganlik muddati uch yil. Ayniqsa, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishning turli muddatlari belgilanganda sudlanganlik holati muddatini hisoblashda adolatsizlik yuz beradi. Aytaylik, o'ta og'ir jinoyatlari uchun jinoyatlar jami tariqasida uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlangan shaxsning sudlanganligi ham sakkiz yil, birinchi marta jinoyatda ishtirokchi sifatida (masalan, yordamchi sifatida) ayblanib, qisqa muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning sudlanganlik muddati ham sakkiz yil belgilangan.

Agar sudlanganlik muddatlarini hisoblashning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan tartibi bilan Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida belgilangan sudlanganlik holati muddatlarini hisoblash qiyosiy solishtirilsa, O'zbekiston Jinoyat kodeksida ozodlikdan mahrum qilishning



haqiqatda o‘talgan qismidan hisoblanganligi to‘g‘ri va bu boradagi adolat prinsiplarining to‘g‘ri amalga oshirilganligini ko‘ramiz¹.

Modomiki, sudlanganlikning huquqiy tabiati jinoyat sodir etilishi va u uchun jazo tayinlanishi bilan bog‘liq ekan, sudlanganlikning tugallanish muddatlari jinoyatning ijtimoiy xavfiligi, shuningdek, jazoning ko‘rinishi va muddatiga bog‘liq bo‘ladi. Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasiga ko‘ra, sudlanganlik holatining tugallanish muddati aybning shakli, jinoyatning tasnifi, jinoiy javobgarlik choralarining ko‘rinishi va boshqa holatlar bilan bog‘liq. Masalan, ehtiyotsizlikdan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilingan shaxsga nisbatan sudlanganlik asosiy va qo‘shimcha jazoning o‘talishi (ijro etilishi) bilan tugallanadi. Shuningdek, Belarus Respublikasi JKning 97-moddasi 4-qismiga asosan, ehtiyotsizlik orqasidan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinib, jazodan qonunda belgilangan tartibda muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan yoki yengilroq ko‘rinishdagi jazo bilan almashtirilgan holda, shaxsning sudlanganlik holati jazoning o‘talmagan qismi yoki yengilroq jazoning o‘talishi muddatlari o‘tgandan keyin tugallanadi. Qasddan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilingan shaxsga nisbatan jazodan muddatidan ilgari ozod qilinganda yoki yengilroq ko‘rinishdagi jazo bilan almashtirilganda sudlanganlik holati JKning 97-moddasi 1-qismi 2–5-bandlariga ko‘ra, jazoning o‘talmagan qismi yoki yengilroq jazoning o‘talishi muddatlari o‘tgan kundan boshlab tugallanadi.

Ta‘kidlash joizki, sudlanganlik holatining tugallanish qoidalari Belarus Respublikasi JK bo‘yicha o‘ta xavfli retsidiv deb topilgan shaxslardan tashqari barcha mahkumlarga nisbatan tatbiq etiladi (JK 97-moddasi 3-qismi).

Shuningdek, Belarus Respublikasi JKning 121-moddasida belgilangan 18 yoshga-

cha bo‘lgan jinoyat sodir etgan shaxslarning sudlanganligini olib tashlashning o‘ziga xos jihatlari to‘xtalish zarur. Unga ko‘ra, 18 yoshgacha ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan jinoyati uchun jamoat ishlari, jarima, muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etish, axloq tuzatish ishlari, qamoq, ozodlikni cheklash jazolarini yoxud ozodlikdan mahrum etish ko‘rinishidagi jazoni o‘tagan shaxslar sudlanmagan hisoblanadi. O‘n sakkiz yoshgacha sodir etgan jinoyati uchun jazo tayinlamasdan hukm chiqarilgan shaxslarning sudlanganligi ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat uchun sudning hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan olti oy o‘tgach; uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun bir yil o‘tgach tugallanadi. O‘n sakkiz yoshgacha qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning sudlanganligi asosiy va qo‘shimcha jazolar o‘talgandan so‘ng ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat uchun olti oy o‘tgach, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun bir yil o‘tgach, og‘ir jinoyati uchun uch yil o‘tgach, o‘ta og‘ir jinoyati uchun besh yil o‘tgach tugallanadi².

Ozarbayjon Respublikasi JKning 77-moddasi 5-qismida belgilangan qoidaga ko‘ra, sudlanganlikning sud tomonidan olib tashlanishi og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan, shuningdek, xavfli yoki o‘ta xavfli jinoyatlar sodir etganligi uchun jazo tayinlangan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Ukraina Jinoyat kodeksining 89-moddasida sudlanmagan deb hisoblash asoslari batafsil sanab o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra, shartli hukm qilingan shaxslar sinov muddati davomida ular tomonidan yangi jinoyat sodir etilmasa va ushbu muddat davomida shartli hukm qilish bilan jazodan ozod qilish to‘g‘risidagi qaror qonunda belgilangan boshqa asoslar bo‘yicha bekor qilinmasa, shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi. Agar

1 M.Usmonaliyev "Sudlanganlik, uning huquqiy oqibatlarini va liberallashtirish muammolari". T. "Yangi asr avlodi", 82-bet.

2 Додонов В.Н. Сравнительное уголовное право. Общая часть. М., 2010 г. – С. 347.



qo'shimcha jazoning muddati sinov muddati davomiyligidan oshib ketsa, shaxs ushbu qo'shimcha jazo o'talgandan keyin sudlanmagan deb hisoblanadi.

Sinov muddati bilan shartli hukm qilingan ayollar sinov muddati davomida yangi jinoyat sodir etmasa va bu muddat davomida sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash uchun jo'natish to'g'risida qaror qabul qilinmasa, sudlanmagan deb hisoblanishi belgilangan. Agarda mahkum qo'shimcha jazodan ozod qilinmagan va uning (qo'shimcha jazoning) muddati sinov muddati davomiyligidan oshib ketsa, shaxs ushbu qo'shimcha jazo o'talgandan keyin sudlanmagan deb hisoblanadi.

Sudlanganlikning bekor bo'lishi Ukraina Jinoyat kodeksida MDH davlatlari jinoyat qonunchiligiga xos bo'lgan jinoyatlarning tasnifiga ko'ra tugallanishi ko'rsatilgan va boshqa MDH davlatlari qonunida belgilangan qoidalarga o'xshashdir.

Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 111-moddasida shaxs jinoiy jazodan ozod qilinganda, amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganda, shartli hukm qilinganda sinov muddati davomida shartli hukm bekor qilinmasa, shaxs sudlanmagan deb hisoblanishi belgilangan. Moldova Jinoyat kodeksi bo'yicha ham sudlanganlik holatining tugallanish muddatlari MDHga a'zo davlatlar jinoyat qonunchiligiga xos bo'lgan jinoyatning tasnifiga asosan tugallanishi belgilangan.

Moldova Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, sud tomonidan sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi iltimosnomani qabul qilishning shartlari mavjud bo'lib, ular: mahkum tomonidan yangi jinoyatning sodir etilmasligi; sudlanganlik tugallanish muddatlarining kamida yarmi o'talgan bo'lishi; mahkumning ijobiy xulq-atvori; shuningdek, mahkum tomonidan sud qarorida ko'zda tutilgan fuqarolik tartibidagi zararlarni hamda

sud xarajatlari to'liq qoplanganligi va boshqa shartlar belgilab qo'yilgan.

Sudlanganlikning (yoki shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilganda ilgarigi hukm qilish faktining) jinoyat-huquqiy va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashda xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida jinoyat huquqimiz uchun an'anaviy hisoblangan yondashuvlardan farqli ravishda o'ziga xos yondashuvlar mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida sudlanganlik mustaqil huquqiy institut sifatida ko'rsatilmaydi. Ko'pincha sudlanganlik tushunchasining umumiy ta'rifi yo'q, sudlanganlik holatining tugallanish muddatlari va oqibatlari hisoblab chiqish tartibi haqida alohida holatlar qayd etilmagan. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida belgilangan ilgarigi hukm qilish faktiga aloqador qoidalar aniq bir muammolarni hal qilish bilan "bog'langan" (muayyan jinoyatlarni sodir etgan muayyan shaxslarga jazo tayinlash, "odatlanib qolgan" jinoyatchilar uchun jazoni og'irlashtirish, "xavfsizlik choralari"ni qo'llashning asoslari va boshqalar).

Bizning jinoyat qonunchiligimizga yaqin bo'lgan Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, sudlanganlikning ijtimoiy mohiyati shundaki, sudlangan shaxs muayyan vazifalarni bajara olmaydi (sudya, prokuror, tergovchi, militsiya xodimi va boshqa lavozimlarni egallay olmaydi). O'ta og'ir jinoyati uchun sudlangan shaxs "Harbiy xizmat va harbiy majburiyatlar to'g'risida"gi federal qonunning 23-moddasi bo'yicha harbiy xizmatga chaqirilmaydi³. Fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan shaxsning farzandlikka olish huquqiga ushbu sudlanganlik holati to'sqinlik qiladi. Sudlanganlik holati tugallanmagan yoki belgilangan tartibda olib tashlanmagan shaxsning o'qotar qurolga ega bo'lish va saqlash-

3 Федеральный Закон РФ от 28.03.1998 г. "О воинской обязанности и военной службе" (с изменениями от 7 марта 2005 г.) // Российская газета. № 48. 2005 г. 11 марта.



da unga muayyan cheklovlar yuklanadi⁴.

Ba'zi davlatlarda, masalan, AQSHda muayyan jinoyati uchun sudlanganligi bor shaxslarning shtatlar hududidan chiqishi cheklanadi. Sudlangan shaxsning xulqi ustidan ular tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida turli shakldagi nazorat o'rnatilishi mumkin. Shaxsning sudlanganligi uning oila a'zolari, yaqinlarining manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Fuqaro turli xildagi so'rovnoma (anketa) va hujjatlarni to'ldirishda, saylanadigan mansablarga nomzodini ko'rsatishda va boshqa holatlarda sudlanganligi haqida ma'lum qilishi zarur.

Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligi bo'yicha sudlanganlik – bu shaxsning jinoyat sodir etishi va unga jazo tayinlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'ziga xos jinoyat-huquqiy holat hisoblanadi. U o'zi bilan jinoyat-huquqiy va ijtimoiy mazmunga ega salbiy oqibatlariga olib keluvchi jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning shakllaridan biri hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasining jinoyat huquqida sudlanganlik institutining mavjudligiga sabab bo'luvchi asosiy omillarga ozodlikdan mahrum etish ko'rinishidagi jazoni o'tayotgan shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish va retsidiv jinoyatchilik bilan kurashning samaradorligini oshirish zaruriyati tegishlidir. Rossiya Federatsiyasining sud statistikasiga ko'ra, har yili jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tab turib, 8500 nafar atrofidagi mahkum jinoyat sodir etmoqda; ozodlikdan mahrum qilishga sinov muddati bilan shartli hukm qilingan 62 ming nafar atrofidagi shaxs yana jinoyat sodir etadi. Sudlanganlik holati tugallanmagan va olib tashlanmagan shaxslar miqdori 2010-yilda salkam 256 ming kishini tashkil qilgan⁵.

Bugungi kunda Rossiyada jinoyatchilik "yosharmoqda", tarbiya koloniyalarida jazoni o'tagan shaxslarning jinoyatchiligi kabi g'ayriijtimoiy holatga qarshi jinoiy-huquqiy ta'sir vositalarini topish muammosi o'ta muhim hisoblanadi. Retsidiv jinoyatchilikning oldini olishda sudlanganlik institutining ahamiyati ushbu holatda nol darajaga tushadi, chunki Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligi bo'yicha shaxs tomonidan 18 yoshgacha sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik nafaqat retsidiv deb topishda, balki jazo tayinlashda ham hisobga olinmaydi. Biroq, shuni aytish kerakki, voyaga yetmaganlar uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi kamdan-kam holatlarda qo'llaniladi⁶.

Belarus Respublikasi jinoyat qonunchiligida ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilingan alohida toifadagi shaxslar tomonidan retsidiv jinoyatlarning oldini olishda sudlanganlik institutining ahamiyatini oshirishga yo'naltirilgan bir qancha normalar mavjud. Masalan, Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksi o'ta xavfli retsidiv deb topilgan shaxslar ustidan ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod bo'lgandan so'ng sudlanganlik olib tashlangunga qadar oldini oluvchi nazorat o'rnatilishini ko'zda tutadi (Belarus Respublikasi JKning 80-moddasi 1-qismi). Shuningdek, Belarus Respublikasi JKning 80-moddasi 2-qismiga ko'ra, oldini oluvchi nazorat quyidagi shaxslar ustidan o'rnatilishi mumkin: og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlangan yoxud qasddan sodir etgan jinoyati uchun ikki va undan ortiq marta ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar ustidan, agar ozodlikdan mahrum etish ko'rinishidagi jazoni o'tash davomida ularning xulqi tuzalish yo'liga o'tishni qat'iy xohlamaslik haqida darak bergan hollarda yoxud ushbu toifadagi shaxslar ustidan, shuning-

4 Федеральный Закон РФ от 13.11.1996 г. "Об оружии" (с изменениями от 29.06.2004). Собрание законодательства РФ. 2004 г. № 27. Ст. 2711.

5 Преступность и правопорядок в России. Статистический аспект. Статистический сборник. – М. 2011 г. –С-34.

6 Маршенов А.Ю. Развитие института судимости в уголовном праве Российской Федерации: Автореф. дис. канд. юрид. наук. Ростов-на-Дону, 2002 г. – С. 22.



dek, ular tomonidan jazoni o‘tagandan keyin ma‘muriy huquqbuzarlik uchun qonunda ko‘zda tutilgan tartibda ma‘muriy qamoq ko‘rinishidagi javobgarlikka muntazam tortilgan hollarda o‘rnatiladi.

Belarus Respublikasi JKning 80-moddasi 8-qismiga ko‘ra, sud oldini oluvchi nazorat o‘rnatishda yoki uni amalga oshirishda oldini oluvchi nazorat o‘rnatilgan shaxs zimmasiga quyidagi majburiyatlarni yuklashi mumkin:

- 1) muayyan joylarda hozir bo‘lmaslik;
- 2) sutkaning muayyan vaqtida turar joyini tark etmaslik;
- 3) oyda bir martadan to‘rt martagacha ro‘yxatdan o‘tish uchun ichki ishlar organlariga kelish;
- 4) Belarus Respublikasi hududidan chiqib ketmaslik.

Ushbu moddaning 11-qismida shaxs oldini oluvchi nazorat talablariga rioya qilib, jinoyat va ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etmagan hollarda uning ustidan nazorat olib boruvchi organning taqdimnomasiga ko‘ra muddatidan ilgari sud tomonidan oldini oluvchi nazoratning tugatilishi tartibga solingan.

Belarus Respublikasi JKning 81-moddasiga ko‘ra, profilaktik kuzatuv sudlanganlik muddati davomida og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilingan shaxslar ustidan ham o‘rnatiladi. Sudlanganlikning barcha noxush oqibatlarini o‘z ichiga olgan shunga o‘xshash qoidaning maxsus qonunda mustahkamlab qo‘yilishi jinoyatchilik bilan kurashning barcha bosqichlarida sudlanganlik institutining samarali ta‘sirini sezilarli darajada oshirishi mumkin⁷.

O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgust kungi yangi tahrirda qabul qilingan “Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma‘muriy nazorati to‘g‘risida”gi qonuni

4-moddasiga ko‘ra, ma‘muriy nazorat og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ularning jazoni o‘tash davridagi xulq-atvori tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo‘liga o‘tishni aslo istamaganliklaridan dalolat bersa; og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazo muddatini o‘tab bo‘lganlaridan so‘ng ichki ishlar idoralarining jamiyat uchun zararli kun kechirishni to‘xtatish to‘g‘risidagi ogohlantirishiga qaramay, jamoat tartibini muntazam buzayotgan va fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazayotgan bo‘lsalar; shuningdek, o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga nisbatan 6 oydan 1 yilgacha o‘rnatiladi.

Shuningdek, ma‘muriy nazorat muddati ichki ishlar idoralarining taqdimnomasiga binoan har safar yana olti oyga uzaytirilishi mumkin, lekin uzaytirilgan nazorat muddati mazkur jinoyat uchun belgilangan sudlanganlik muhlatining tugashi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi uchun qonunda nazarda tutilgan muddatlardan oshmasligi lozim. Nazorat ostidagi shaxs o‘ziga belgilangan vaqt ichida tuzalish yo‘liga o‘tmagan, jamoat tartibini buzayotgan, fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazayotgan yoki o‘ziga nisbatan qo‘llanilayotgan cheklashlarga rioya etmayotgan taqdirda ma‘muriy nazorat muddatini uzaytirishga yo‘l qo‘yiladi⁸.

MDH davlatlari jinoyat qonunchiligini kuzatadigan bo‘lsak, amnistiya yoki afv etish asosida jazodan ozod qilishning qonun bilan tartibga solinishida bizning qonunchiligimizdan farq qiluvchi jihatlarga

7 Уголовный Кодекс Республики Беларусь. 9 июль 1999 г. N 275-3.

8 O‘zbekiston Respublikasining “Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma‘muriy nazorati to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi 832-l-son qonuni tahririda. Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda.



duch kelishimiz mumkin. Masalan, Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 107-108-moddalariga 2013-yil 22-martda kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, amnistiya yoki afv etish akti voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxslarga qo'llanilmasligi belgilab qo'yilgan bo'lsa, 109-moddasi 4-qismida yarashuv asosida jazodan ozod qilish ham voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxslarga tatbiq etilmasligi ko'rsatilgan⁹.

Qirg'iziston Respublikasi JKning 75-moddasida afv etish akti asosida jazodan ozod qilish tartibga solingan bo'lib, ushbu moddaning 3-qismida belgilab qo'yilgan qoidaga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxs hukm qonuniy kuchga kirishi bilan afv etish to'g'risida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega¹⁰.

Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksida

amnistiya va afv etish akti asosida jazodan ozod qilish jabrlanuvchining jinoiy qilmish oqibatida kelib chiqqan zararining qoplashini talab qilish huquqini amalga oshirish uchun to'sqinlik qilmaydi¹¹.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi ba'zi bir mamlakatlarning Jinoyat kodekslari Maxsus qismining ko'pgina moddalarida muayyan jinoyat uchun sudlangan shaxslar tomonidan yana o'sha jinoyatga aynan o'xshash jinoyatni sodir etish kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi sifatida jinoyat tarkibi doirasiga kiritilgan. Afsus bilan aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi JKning Maxsus qismi moddalarida muayyan jinoyat uchun oldin sudlanganlik o'sha jinoyat tarkibi doirasiga kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi sifatida ko'rsatilmaganligi tufayli ayrim hollarda adolatsiz jazo tayinlanishiga sabab bo'lmoqda¹².

9 Уголовный Кодекс Республики Молдова. Кишинёв.: 18 апрель 2002 г. № 985-хв.

10 Уголовный Кодекс Кыргызской Республики. Принят Законодательным собранием Жогорку Кенеша Кыргызской Республики 18 сентября 1997 года.

11 Уголовный Кодекс Республики Таджикистан. 21 май 1998 год. № 574.

12 M.Usmonaliyev "Sudlanganlik, uning huquqiy oqibatlari va liberallashtirish muammolari". T. "Yangi asr avlodi", 20-bet.



O'tkirxon BAHODIROV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi

O'ZLASHTIRISH VA RASTRATA YO'LI BILAN TALON-TOROJ QILISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA XORIJIY TAJRIBANI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETISH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatlarini tergov qilishga doir AQSH, Germaniya Federativ Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasi qonunchilik hujjatlari tahlil qilingan. Xorijiy tajribani O'zbekiston Respublikasi tergov amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье проанализированы законодательные акты Соединённых Штатов Америки, Федеративной Республики Германия, Российской Федерации и Китайской Народной Республики, касающиеся расследования преступлений, связанных с хищением путём присвоения и растраты. Рассмотрены возможности внедрения зарубежного опыта в следственную практику Республики Узбекистан, а также разработаны практические предложения.

ABSTRACT. This article analyzes the legislative acts of the United States of America, the Federal Republic of Germany, the Russian Federation, and the People's Republic of China concerning the investigation of crimes related to embezzlement and misappropriation. The possibilities of implementing foreign experience into the investigative practice of the Republic of Uzbekistan are considered, and practical proposals are developed.

Kalit so'zlar: o'zlashtirish, rastrata, tergov, moliyaviy monitoring, korrupsiyaga qarshi kurash.

Ключевые слова: присвоение, растрата, следствие, финансовый мониторинг, борьба с коррупцией.

Key words: embezzlement, misappropriation, investigation, financial monitoring, anti-corruption.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi va davlat mulki boshqaruvidagi o'zgarishlar o'zlashtirish va rastrata jinoyatlarini aniqlash va tergov qilishni yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ushbu jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasida "talon-torojlik" tarkibi sifatida belgilangan bo'lib, javobgarlik choralari vakolatli shaxs tomonidan sodir etilishi yoki ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga qarab og'irlashadi¹.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida hamda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida² moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish, sud-huquq tizimini takomillashtirish, davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlikni oshirish, shuningdek, xalqaro standartlarni milliy huquqiy maydonga izchil joriy etish davlat siyosa-

ting ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgan. Ushbu maqsadlar amalda faqat umumiy deklarativ yondashuvlar bilan emas, balki moliyaviy jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishning samarali huquqiy-institutsional mexanizmlarini shakllantirish orqali ta'minlanadi. Shu bois xorijiy davlatlar tajribasini, ayniqsa, moliyaviy oqimlarni nazorat qilish, dalillar bazasini tezkor yig'ish va transchegaraviy hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan modellarni o'rganish hamda ularni milliy tizimga moslashtirish masalasi ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur talablarni amalga oshirishda eng ko'p o'rganilgan va andoza olingan tizimlardan biri AQSH modeli hisoblanadi.

AQSH tajribasi moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda ikki muhim ustunlikka ega:

a) jinoyat tarkiblarini aniq va qo'llanish doirasi keng bo'lgan federal normalar bilan

1 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2026-y., 03/26/1114/0047-son.

2 O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. 03.01.2017-y., O'RQ-419-son.



belgilash;

b) moliya sektorini “erta ogohlantiruvchi” (early warning) institut sifatida jalb qilish orqali tergov organlarini ma’lumot bilan ta’minlash.

Xususan, AQSHda davlat mablag‘lari ishtirokidagi tashkilotlarda sodir etiladigan o‘zlashtirish va korrupsiya qilmishlari federal darajada AQSH Jinoyatlar va jinoiy ish yuritish kodeksining 18-jildi (“Crimes and Criminal Procedure” “Title 18”), Federal mablag‘lar ishtirokidagi tashkilotlardagi o‘zlashtirish, pora olish va korrupsiya deb nomlangan 666-moddasi bilan tartibga solinadi³. Mazkur norma davlat grantlari, subsidiyalari yoki boshqa federal mablag‘lar bilan bog‘liq barcha tashkilotlar qamrovini ta’minlab, moliyaviy resurslarning maqsadli sarflanishi ustidan qonuniy nazoratni kengaytiradi. Normaning muhim jihati shundaki, u davlat mablag‘lariga aloqador tashkilotlarda mansabdor shaxslar tomonidan bir yil davomida 5 000 AQSH dollari dan ortiq mablag‘ni o‘zlashtirish yoki talon-toroj qilishni jinoyat deb belgilaydi hamda tergov uchun “me’yoriy chegara”ni (threshold) belgilash orqali huquqni qo‘llash amaliyotida bir xil yondashuvni ta’minlaydi. Bu esa jinoyat-huquqiy kvalifikatsiyada aniqlik, tergov resurslarini maqsadli yo‘naltirish va sud amaliyotida barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, AQSHning moliyaviy jinoyatlarni aniqlashdagi institutsional tajribasi “Bank Secrecy Act”⁴ bilan bevosita bog‘liq. Ushbu qonun moliya muassasalari (banklar, ayrim to‘lov servislari va boshqa moliyaviy institutlar) zimmasiga shubhali operatsiyalar haqida “Shubhali faoliyat to‘g‘risidagi hisobot”ni (Suspicious Activity Report – SAR) maxsus vakolatli organ – FinCEN (Financial Crimes Enforcement Network)ga taqdim etish

majburiyatini yuklaydi. Ilmiy jihatdan bu mexanizm “ma’lumotga asoslangan tergov” (intelligence-led investigation) konsepsiyasining huquqiy ifodasi hisoblanadi: tergov organlari jinoyat sodir bo‘lganidan keyin dalil izlash bilangina cheklanmay, moliyaviy sektordan kelib tushgan SAR xabarlarini asosida xavf indikatorlarini aniqlaydi va operatsiyalar zanjirini rekonstruksiya qiladi. Bundan tashqari, tergov organlari manfaatdor shaxslarni belgilash va aktivlar harakat yo‘nalishini kuzatish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

Amaliyot nuqtayi nazaridan SAR ma’lumotlar bazasi tergovda to‘rtta asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, signal funksiyasi – shubhali tranzaksiyalar haqida dastlabki ma’lumot shakllantirib, tergovni boshlashga turtki beradi. Ikkinchidan, tahliliy funktsiya – mablag‘lar oqimini “izchil karta” qilish, shubhali aloqalarni aniqlash va pul yuvish sxemalarini modellashtirish imkonini oshiradi. Uchinchidan, dalil to‘plashga yordam beruvchi funktsiya – keyinchalik amalga oshiriladigan protsessual harakatlar (hujjatlarni talab qilish, hisobvaraqlar bo‘yicha ma’lumot olish, tintuv va olib qo‘yish) uchun asoslangan yo‘nalishni belgilaydi. To‘rtinchidan, transchegaraviy hamkorlikka xizmat qiluvchi funktsiya – agar operatsiyalar bir necha yurisdiksiyaga tegishli bo‘lsa, tegishli xalqaro huquqiy yordam mexanizmlarini ishga tushirish uchun huquqiy asos va amaliy turtki vazifasini bajaradi.

Shu tariqa AQSH tajribasi moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda faqat jinoyat tarkibini belgilash bilan cheklanmasdan, moliya bozori ishtirokchilarini komplains va xavfni boshqarish tizimiga integratsiya qilish, davlat organlari o‘rtasida institutsional hamkorlikni kuchaytirish va tergovni axborot-analitik resurslarga tayanish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan

3 United States Code. Title 18, § 666 – Theft or embezzlement from programs receiving Federal funds. <http://www.uscode.house.gov/>

4 Bank Secrecy Act, 31 U.S.C. §§ 5311–5336 (1970, as amended). FinCEN Regulations. <https://www.fincen.gov/>



nini ko‘rsatadi.

AQSH tajribasi bilan bir qatorda kontinental Yevropa huquq tizimida ham o‘zlashtirish va rastrata jinoyatlariga qarshi kurashning o‘ziga xos va ilmiy jihatdan e‘tiborga molik modeli shakllangan. Jumladan, Germaniya Federativ Respublikasi tajribasi jinoyat-huquqiy normalarning aniqligi, prokurorlik nazoratining markazlashganligi va xalqaro standartlarga integratsiyalashgan institutsional tuzilma bilan ajralib turadi.

Germaniya Federativ Respublikasida o‘zlashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar jinoyat huquqining aniq tartibga solingan normalari asosida belgilangan bo‘lib, mazkur munosabatlar Jinoyat kodeksining 246-moddasida nazarda tutilgan o‘zlashtirish tarkibi hamda 266-moddasida ifodalangan ishonchni suiiste‘mol qilish jinoyati orqali huquqiy jihatdan qamrab olinadi⁵. Ushbu normalar mulkiy manfaatlarni muhofaza qilishning muhim kafolati sifatida xizmat qilib, ayniqsa, ishonch asosida topshirilgan mol-mulk yoki moliyaviy resurslardan noqonuniy foydalanish holatlariga nisbatan jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Xususan, 266-modda qoidalariga ko‘ra, ish beruvchi, davlat yoki boshqa vakolat beruvchi shaxs manfaatlarini himoya qilish maqsadida unga ishonib topshirilgan mol-mulknii boshqarish vakolatini suiiste‘mol qilgan shaxsga nisbatan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanilishi mumkin. Mazkur jinoyat tarkibining huquqiy mazmuni ishonch munosabatlariga putur yetkazish orqali mulkiy zarar keltirish xavfining oldini olishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Germaniya jinoyat-protsessual tizimida moliyaviy jinoyatlarni tergov qilish jarayoni markazlashgan prokurorlik nazorati ostida amalga oshiriladi. Jinoyat-protsessual kodeks qoidalariga muvofiq, tergov

harakatlarini boshqarish va ularning qonuniyligini ta‘minlash prokuratura organlarining vakolatiga kiradi⁶. Ayniqsa, mazkur kodeksning 161-a moddasi prokurorga tergov doirasida bank va boshqa moliya tashkilotlaridan hisobvaraqlar hamda moliyaviy operatsiyalarga oid ma‘lumotlarni talab qilish huquqini beradi. Bu norma moliyaviy jinoyatlarni fosh etishda dalillar bazasini shakllantirish, mablag‘lar harakatini kuzatish va noqonuniy aktivlarni aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, Germaniya xalqaro moliyaviy xavfsizlik tizimining faol ishtirokchisi sifatida pul yuvishga qarshi kurash sohasidagi milliy mexanizmlarini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirgan. Mamlakat Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruhning (FATF) asoschi davlatlaridan biri hisoblanib, milliy qonunchilik va institutsional amaliyot mazkur tashkilotning 40 ta tavsiyasi talablariga mos ravishda shakllantirilgan⁷. Bu holat moliyaviy monitoring, xavflarni baholash, shubhali operatsiyalarni aniqlash hamda davlat organlari o‘rtasida axborot almashinuvini ta‘minlash kabi institutlarning yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Germaniya tajribasi moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda jinoyat-huquqiy normalarning aniqligi, prokurorlik nazoratining markazlashganligi va xalqaro standartlarga integratsiyalashgan tizim mavjudligi bilan tavsiflanadi hamda bu jihatlar milliy huquqiy amaliyotni takomillashtirish uchun muhim qiyosiy-huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi jinoyat-huquqiy normalarning aniq tarkibi, tergov vakolatlarining institutsional jihatdan

5 Strafgesetzbuch (StGB). § 246 Unterschlagung; § 266 Untreue. Stand: 2023. <http://www.gesetze-im-internet.de/>

6 Strafprozessordnung (StPO). § 161a. Stand: 2023. <http://www.gesetze-im-internet.de/>

7 FATF (2012, updated 2023). The Forty Recommendations. – Paris: FATF/OECD. <http://www.fatf-gafi.org/recommendations>



mustahkam taqsimlanishi hamda tezkor-qidiruv faoliyati bilan tergov jarayonining birgalikda amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi.

Rossiya Federatsiyasida o‘zlashtirish va rastrata bilan bog‘liq jinoyatlar jinoyat huquqining mustaqil tarkibi sifatida Jinoyat kodeksining 160-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, unga muvofiq, ishonib topshirilgan boshqaning mol-mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish jinoiy qilmish sifatida e‘tirof etiladi⁸. Mazkur norma mulkiy munosabatlarni muhofaza qilishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa, xizmat vazifasi yoki ishonch munosabatlari doirasida mol-mulkni boshqarish vakolatiga ega shaxslar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jinoyat vakolatli shaxs tomonidan, uyushgan guruh tarkibida yoki yirik miqdorda sodir etilgan hollarda javobgarlikning og‘irlashtirilishi jinoyatning ijtimoiy xavfilik darajasiga mutanosib huquqiy ta’sir choralarni qo‘llash tamoyilini ifodalaydi. Bu esa mulkiy manfaatlarga qarshi jinoyatlar profilaktikasi va ularni samarali fosh etish mexanizmini mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Rossiya Federatsiyasi jinoyat-protsessual tizimida mazkur toifadagi jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergov vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Jinoyat-protsessual kodeksining 151-moddasiga muvofiq, 160-moddada nazarda tutilgan jinoyatlar yuzasidan tergov ishlari belgilangan protsessual tartibda Tergov qo‘mitasi yoki ichki ishlar organlari tomonidan olib boriladi⁹. Bu tartib jinoyatlarni tergov qilish vakolatlarini aniq taqsimlash, protsessual nazoratni ta‘minlash hamda dalillar yig‘ish jarayonining qonuniyligini kafolatlashga xiz-

mat qiladi. Tergov vakolatlarining institutsional jihatdan ajratilishi, ayniqsa, iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlar bo‘yicha ixtisoslashgan yondashuvni ta‘minlab, ishlarning tezkor va xolis ko‘rib chiqilishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasida jinoyatlarni fosh etishning muhim bosqichi sifatida tezkor-qidiruv faoliyati instituti alohida huquqiy tartibga solingan. 2001-yildan buyon amal qilayotgan “Operativ-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi federal qonun tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishning huquqiy asoslarini belgilab, jinoyat sodir etilishiga oid ma‘lumotlarni dastlabki bosqichda aniqlash, moliyaviy operatsiyalar haqida axborot to‘plash hamda jinoiy faoliyat izlarini hujjatlashtirish imkonini beradi¹⁰. Mazkur institut tergovgacha bo‘lgan jarayonda dalillar manbasini shakllantirish, yashirin moliyaviy sxemalarni ochish va jinoyat ishtirokchilarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharqiy Osiyo huquq maydonida esa Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi markazlashgan davlat nazorati, jinoyat-huquqiy sanksiyalarning qat‘iyiligi hamda korrupsiyaga qarshi kurashda maxsus institutsional mexanizmlar yaratilganligi bilan ajralib turadi.

Xitoy Xalq Respublikasida davlat mablag‘larini o‘zlashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar jinoyat huquqining alohida muhofaza obyekti sifatida Jinoyat kodeksining 382-383-moddalarida mustahkamlangan bo‘lib, ushbu normalar davlat mulki va budget mablag‘larini noqonuniy egallash holatlariga nisbatan qat‘iy javobgarlik choralarni belgilaydi¹¹. Mazkur moddalarga muvofiq, jinoiy javobgarlik sodir etilgan qilmishning miqdori, og‘irlik darajasi va keltirilgan zarar hajmiga qarab bosqichma-bosqich ku-

8 Уголовный кодекс Российской Федерации. Статья 160. «Присвоение или растрата». — М., 1996 (ред. 2023 г.). <http://www.consultant.ru>

9 Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации. Статья 151 «Подследственность». <http://www.consultant.ru>

10 Федеральный закон РФ «Об оперативно-розыскной деятельности». № 144-ФЗ от 12.08.1995 г. <http://www.consultant.ru>

11 中华人民共和国刑法 (Уголовный кодекс КНР). Стат 1 382-383. — Пекин, 1979 (ред. 2023 г.). <http://www.npc.gov.cn>



chayib boradi. Xususan, yirik miqdordagi o‘zlashtirish holatlarida uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish, ayrim hollarda umrbod qamoq jazosi, alohida og‘ir holatlarda esa o‘lim jazosigacha bo‘lgan sanksiyalar qo‘llanilishi mumkin. Bu yondashuv davlat moliyaviy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yuqori darajadagi preventiv va jazolovchi mexanizm mavjudligini ko‘rsatadi hamda korrupsiyaviy jinoyatlarga nisbatan “nol bag‘rikenglik” (ya’ni mutlaqo toqat qilmaslik, qat’iy choralar ko‘rish siyosati) siyosatining huquqiy ifodasi hisoblanadi.

Korrupsiya va davlat mablag‘larini o‘zlashtirish bilan bog‘liq qilmishlarni tergov qilish sohasida esa institutsional islohotlar muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, 2018-yilda qabul qilingan milliy nazorat to‘g‘risidagi qonun asosida maxsus konstitutsiyaviy-huquqiy organ – Milliy nazorat komissiyasi tashkil etilgan bo‘lib, u davlat xizmatchilari faoliyati ustidan nazorat qilish, korrupsiya holatlarini aniqlash va surishtiruv olib borish vakolatlariga ega¹². Mazkur organning o‘ziga xos jihati shundaki, u jinoyat-protsessual tizimdan ma’lum darajada mustaqil tarzda harakat qilib, davlat xizmatchilariga nisbatan maxsus protsessual chora – “lyu chji” deb ataluvchi ma’muriy ushlab turish institutini qo‘llash huquqiga ega. Ushbu chora doirasida shaxs prokuror sanksiyasiz muayyan muddatgacha, qonunchilikda belgilangan tartibda esa olti oygacha ushlab turilishi mumkin.

Ilmiy-huquqiy nuqtayi nazardan mazkur mexanizm davlat xizmatchilari o‘rtasida korrupsiyaviy xavflarni tezkor bartaraf etish, dalillarni yo‘q qilish ehtimolini kamaytirish va surishtiruv samaradorligini oshirishga qaratilgan institutsional vosita sifatida baholanadi. Shu bilan birga, ushbu

tizim inson huquqlari kafolatlari, protsessual nazorat va shaxs erkinligini cheklashning mutanosibligi kabi masalalar yuzasidan xalqaro huquqshunoslikda turlicha bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgani ham qayd etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘zlashtirish va rastrata bilan bog‘liq jinoyatlar jinoyat-huquqiy tartibga solishning mustaqil instituti sifatida Jinoyat kodeksining 167-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, unga muvofiq ishonib topshirilgan mulkni o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toraj qilish jinoiy qilmish deb e’tirof etiladi¹³. Mazkur norma jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, keltirilgan zarar miqdori hamda jinoyat subyekting huquqiy maqomiga qarab javobgarlikni differentsiatsiya qilish tamoyiliga asoslanadi. Xususan, oddiy tarkib, ko‘p miqdorda sodir etilgan holat yoki vakolatli shaxs tomonidan amalga oshirilgan qilmishlar uchun jazo choralarining bosqichma-bosqich kuchaytirilishi mulkiy munosabatlarni samarali muhofaza qilishga qaratilgan jinoyat-huquqiy mexanizmning mavjudligini ko‘rsatadi.

Xalqaro huquqiy majburiyatlar nuqtayi nazaridan O‘zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan davlat sifatida korrupsiyaviy va mulkiy suiiste‘mol bilan bog‘liq jinoyatlarni kriminalizatsiya qilish hamda jinoiy yo‘l bilan olingan aktivlarni qaytarish mexanizmlarini joriy etish majburiyatini olgan¹⁴. Konvensiyaning tegishli qoidalari milliy qonunchilikni takomillashtirish, aktivlarni muzlatish, musodara qilish va qaytarish tartib-taomillarini rivojlantirishni talab qiladi. Shu bilan birga, xalqaro huquqiy yordam ko‘rsatish amaliyotida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda: jumladan, xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi organla-

12 中华人民共和国监察法 (Закон КНР о государственном надзоре). Prinyat 20.03.2018 g. <http://www.npc.gov.cn>

13 O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2025-y., 03/25/1081/0738-son.

14 United Nations Convention against Corruption (UNCAC). Adopted 31.10.2003. UN Doc. A/58/422. Ratified by Uzbekistan: 07.07.2008. <http://www.unodc.org/unodc/en/corruption/uncac>



ri bilan axborot almashinuvi va protsessual so‘rovlarni bajarish jarayoni ko‘p vaqt talab etishi hamda amaliy samaradorlikning nisbatan pastligi transchegaraviy moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda qo‘shimcha institutsional choralarni talab etadi. Bularga quyidagicha yochim beramiz.

*Birinchi*dan, rivojlangan huquqiy tizimga ega davlatlarda moliyaviy monitoring organlari va tergov tuzilmalari o‘rtasidagi axborot almashinuvi qonunchilik darajasida majburiy, avtomatlashtirilgan va tezkor tarzda tashkil etilgan. Xususan, AQSH-da moliyaviy axborotlarning markazlashgan tarzda yig‘ilishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga zudlik bilan taqdim etilishi moliyaviy jinoyatlarni erta bosqichda fosh etish imkonini beradi. Germaniyada esa prokuratura nazorati ostida bank ma’lumotlarini olish vakolatining protsessual jihatdan aniq belgilangani tergov samaradorligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda ham milliy moliyaviy monitoring tizimi shakllangan bo‘lib, u shubhali operatsiyalar haqida ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish funksiyasini bajaradi. Biroq, xalqaro baholashlar ma’lumot almashinuvining avtomatlashtirilishi va idoralara integratsiya darajasi hali to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatadi. Demak, mazkur sohadagi asosiy muammo huquqiy mexanizmlarning mavjudligida emas, balki ularning texnologik va institutsional samaradorligida namoyon bo‘ladi.

*Ikkinchi*dan, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlar tajribasi moliyaviy jinoyatlarni tergov qilishda ixtisoslashgan organlar va mutaxassislar ishtirokining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Ushbu davlatlarda moliyaviy tahlilchilar, auditorlar va tergovchilardan iborat kompleks tuzilmalar jinoyatlarning murakkab iqtisodiy sxemalarini ochishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlar bilan shug‘ullanuvchi maxsus

bo‘linmalar mavjud. Biroq, ularning funksional integratsiyasi, doimiy ixtisoslashgan guruhlar shaklidagi institutsional model va moliyaviy tahlil imkoniyatlari xalqaro standartlar darajasida to‘liq rivojlanmagan. Bu esa milliy tizimni takomillashtirishda kadrlar ixtisoslashuvi va institutsional hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

*Uchinchi*dan, xorijiy davlatlar amaliyoti, ayniqsa, Yevropa davlatlari va AQSH tajribasi jinoiy mol-mulkni qaytarishda xalqaro huquqiy yordam mexanizmlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Aktivlarni qidirish, muzlatish va qaytarish jarayonlari ko‘p tomonlama shartnomalar, tezkor axborot almashinuvi hamda maxsus institutlar orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda xalqaro huquqiy hamkorlik bo‘yicha shartnomaviy baza mavjud va u bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Shu bilan birga, amaliyotda aktivlarni qaytarish jarayonlarining davomiyligi va protsessual murakkabligi saqlanib qolmoqda. Bu holat transchegaraviy moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda institutsional mexanizmlarni yanada soddalashtirish va raqamlashtirish zarurligini anglatadi.

*To‘rtinchi*dan, xalqaro moliyaviy xavfsizlik tizimida FATF tavsiyalari asosiy mezon hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda ushbu standartlar milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga to‘liq integratsiya qilingan.

O‘zbekistonda ham AML/CFT tizimini xalqaro talablarga moslashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmogda va ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori muvofiqlik darajasiga erishilgan. Biroq, xalqaro baholashlar ayrim yo‘nalishlarda “qisman muvofiq” darajasi saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Demak, milliy tizimni yanada rivojlantirish uchun institutsional va huquqiy islohotlarni davom ettirish zarur.

Olib borilgan qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashtirish va rastrata jinoyatlariga qarshi samarali kurash



birinchi navbatda jinoyat-huquqiy norma-
larning aniqligi, tergov vakolatlarining ix-
tisoslashganligi, moliyaviy monitoring va
tergov organlari o‘rtasidagi ma’lumot alma-
shinuvining tezkorligi hamda xalqaro ham-
korlik mexanizmlarining amaliy ishlash da-
rajasi bilan belgilanadi. AQSH, Germaniya
Federativ Respublikasi, Rossiya Federatsi-
yasi va Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi
mazkur omillarning turli huquqiy tizimlarda
qanday amalga oshirilishini namoyish etadi.

O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy
monitoring tizimi, ixtisoslashgan tergov
tuzilmalari va xalqaro hamkorlik mexa-

nizmlari institutsional jihatdan mavjud
bo‘lsa-da, ularning amaliy samaradorligi,
idoralararo integratsiya darajasi va raqam-
lashtirish darajasi yanada takomillashti-
rishni talab etadi. Shu munosabat bilan
xorijiy tajribani milliy amaliyotga tatbiq
etishda uni mexanik ko‘chirish emas, balki
huquqiy an’analar, institutsional salohiyat
va milliy sharoitlarga moslashtirish orqali
lokalizatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.
Bunday yondashuv davlat mulki va fuqaro-
lar manfaatlarini himoya qilishda samarali
va barqaror huquqiy tizimni shakllantirish
imkonini beradi.

.....

.....



Maqsud YULDASHEV,

Bojxona qo'mitasi Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi xodimi,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

BOJXONA ORGANLARIDAGI KORRUPSIYA: QARSHI KURASHISH VOSITALARI, USULLARI VA SO'NGGI TENDENSIYALAR

ANNOTATSIYA. Maqolada bojxona organlaridagi korrupsiyaning huquqiy va institutsional jihatlarini tahlil qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi, shaxsiy xavfsizlik tuzilmalari va komplaens-nazorat mexanizmlari yoritilgan. Bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash va imtiyozlardan maqsadsiz foydalanish holatlari statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Moliyaviy sanksiyalar qo'llash amaliyoti va uni takomillashtirish zarurati asoslangan. Ilg'or xorijiy tajriba asosida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlari tahlil qilingan. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va profilaktika qilishning zamonaviy yondashuvlari taklif etilgan. Bojxona qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье рассмотрены правовые и институциональные аспекты коррупции в таможенных органах. Освещены механизмы противодействия коррупции, деятельность подразделений личной безопасности и комплаенс-контроль. Проанализированы случаи уклонения от уплаты таможенных платежей и нецелевого использования льгот. Обоснована необходимость совершенствования практики применения финансовых санкций. Изучен международный опыт внедрения цифровых технологий и искусственного интеллекта. Предложены современные подходы к оценке и профилактике коррупционных рисков. Разработаны рекомендации по совершенствованию таможенного законодательства.

ABSTRACT. The article examines legal and institutional aspects of corruption within customs authorities. It highlights anti-corruption mechanisms, including internal security units and compliance control. Cases of customs payment evasion and misuse of benefits are analyzed based on statistical data. The need to improve the application of financial sanctions is substantiated. International experience in implementing digital technologies and artificial intelligence is reviewed. Modern approaches to assessing and preventing corruption risks are proposed. Practical recommendations for improving customs legislation are developed.

Kalit so'zlar: bojxona organlari, korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, moliyaviy jarima, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, xavfni baholash, komplaens-nazorat, budjet daromadlari, tezkor-qidiruv tadbirlari.

Ключевые слова: таможенные органы, коррупция, противодействие коррупции, финансовые санкции, цифровые технологии, искусственный интеллект, оценка рисков, комплаенс-контроль, доходы бюджета, оперативно-розыскная деятельность.

Key words: customs authorities, corruption, anti-corruption policy, financial penalties, digital technologies, artificial intelligence, risk assessment, compliance control, budget revenues, operational-search activities.

Bojxona organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari vakolatlarini takomillashtirish masalasi korrupsiyaga qarshi samarali kurashishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tuzilmalarning funksiyalari va vazifalari aniq belgilanishi, ularning huquqiy va institutsional asoslari mustahkamlanishi, xodimlarning mas'uliyati va vakolatlari to'liq tartibga solinishi zarur.

Shu bilan birga, tuzilmalarning ichki hamda tashqi kuzatuv mexanizmlari, jumladan, tezkor-qidiruv tadbirlari, profilaktik chora-tadbirlar va komplaens-nazorat funksiyalari samarali integratsiya qilinishi lozim.

Vakolatlarni takomillashtirish, shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etishda tizimli yondashuvni ya-

ratish, sohadagi ish faoliyatini shaffof va hisobdor qilish xodimlar va rahbarlar uchun aniq huquqiy yo'nalishlar va me'yorlarni belgilash imkonini beradi. Bu esa bojxona tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini sezilarli darajada oshirish va ushbu tuzilmalarning institutsional salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyatida chuqur ilmiy tahlillarga asoslangan chora-tadbirlar va amaliy topshiriqlarni to'liq ijro etilishi yotadi.

Ijro etuvchi tuzilmalarni joriy etishda institutsional yondashuvga tayanilgan holda barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimliklarida hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari tashkil etilgan. Ushbu tuzilmalar turli tashkilot va idoralarda turlicha nomlanadi. Masalan, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat, komplaens-nazorat, shaxsiy xavfsizlik, ichki xavfsizlik kabi.

Shunga ko'ra, ushbu maqolada bojxona organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va uning o'ziga xos jihatlari, ilg'or davlatlar bojxona ma'muriyatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga oid xorijiy tajriba, tizimda kuzatilayotgan so'nggi tendensiyalar ilmiy asosda tahlil qilinib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bojxona organlarida korrupsiyaga kurashuvchi tuzilma tomonidan joriy etiladigan tizim uning muhim vazifalarini o'zida mujassamlashtirgan tizim osti elementlardan iborat bo'lishi, tegishli kompleks chora-tadbirlarni qamrab olishi lozim bo'ladi.

Shunga ko'ra, bojxona organlarida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tuzilma tomonidan joriy etiladigan tizim nafaqat korrupsiyaning turli ko'rinishlarini aniqlash va oldini


olish, balki ularga qarshi samarali chora-tadbirlar tizimini ham o'z ichiga olishi lozim. Bu tizim bir qator tarkibiy qismlar va elementlardan iborat bo'lib, har biri o'z vazifasi va maqsadini aniq belgilashi zarur.

Bojxona organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi kuch va vositalar, qonunchilik bazasi, qarshi kurashish chora-tadbirlar (preventiv va profilaktika), ta'lim tizimi va hamkorlik kabi tizim osti elementlarga ega (1-rasm). Ular orasida eng muhimi va asosiysi kuch va vositalar hisoblanadi.

Bugungi kunda Bojxona qo'mitasining Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi hamda uning joylardagi bo'lim va shubalarida bojxona organlarida korrupsiyaviy va boshqa g'ayrihuquqiy harakatlarning barvaqt oldini olish, shaxsiy tarkib va ularning oila a'zolarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, shuningdek, xizmat jamoalarida axloqiy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish kabi muhim vazifalar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, mazkur boshqarma xodimlarining kasbiy faoliyati doirasida zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

1-rasm. Bojxona organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi¹



1 Muallif ishlanmasi



Bu esa korrupsiya xavflarini tezkor aniqlash, ularning sodir bo‘lish sabablarini va sharoitlarini tahlil qilish hamda profilaktika choralari samarali amalga oshirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi xodimlarining muntazam ravishda malakasi va kasbiy kompetensiyasi oshirib boriladi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro tajribalar va standartlar tahlili natijasida ish yuritish tartibi takomillashtirilmoqda. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yagona va integral mexanizmga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi faoliyati nafaqat xodimlarning shaxsiy xavfsizligini ta’minlaydi, balki bojxona organlari ichki muhitini nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi samarali chora ko‘rish va tizimli kurashish mexanizmlarini yaratishda asosiy element sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy xavfsizlik tuzilmalari vakolatlarining takomillashtirilishi qonun hujjatlari bilan belgilanishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar chegarasidan chiqqan holda tizim samaradorligini oshirish imkonini beruvchi ichki imkoniyatlarni oshirishni talab etadi. Inson resurslarini boshqarish jarayonlarida to‘liq ishtirok etish, rahbar kadrlar vakolatlarini nazorat qilish va soha uchun uzoq muddatli kadrlar zaxirasini tayyorlab borish bo‘yicha vakolatlarining joriy etilishi iqtisodiy yoki boshqa turdagi bojxona qonunchiligi bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha vazifalardan ko‘ra ko‘proq foyda keltirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona ma’muriyatchiligi va tashqi

savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga² muvofiq, ayrim bojxonaga oid huquqbuzarliklar uchun protsessual harakatlarni soddalashtirish, tartibga solinmagan ayrim huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari belgilash uchun huquqiy ta’sirchan choralarni oshirishga qaratilgan yangi turdagi normalarni amaliyotga kiritishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 51-moddasida Respublika budjeti daromadlari bojxona bojlari, aksiz solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa soliqlar hamda boshqa daromadlardan shakllanishi ko‘rsatib o‘tilgan³.

2025-yilda bojxona organlari tomonidan davlat budjetiga 76,19 trln (2024-yilda 63,03 trln so‘m) to‘lovlar o‘tkazilgan. Xususan, 2025-yilda davlat budjetiga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari tarkibining 78,9 foizi (60,1 trln so‘m) qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i hissasiga hamda 21,1 foizi (16,06 trln so‘m) bojxona boji va boshqa tushumlar hissasiga to‘g‘ri kelgan⁴.

2024-yilda bojxona organlari tomonidan davlat budjetiga jami 63,03 trln so‘m (2023-yilda 58,4 trln so‘m) to‘lovlar o‘tkazilgan. Xususan, 2024-yilda davlat budjetiga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari tarkibining 79,8 foizi (50,4 trln so‘m) qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i hissasiga hamda 20,2 foizi (12,8 trln so‘m) bojxona boji va boshqa tushumlar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2023-yilda 79 foizi (46,3 trln so‘m) qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i hissasiga hamda 21 foizi (12,1 trln so‘m) bojxona boji va boshqa tushumlar hissasiga to‘g‘ri kelgan⁵.

Yuqoridagi statistik ma’lumotlar tahlili

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona ma’muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. Toshkent sh., 2025-yil 17-dekabr, PF-250-son // <https://www.lex.uz/uz/docs/7934915>.

3 O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. 01.01.2014 // <https://lex.uz/uz/docs/2304138> (murojaat sanasi 01.12.2025-yil.)

4 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 1-dekabrda 32/201pm-sonli ma’lumotnomasi.

5 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 1-dekabrda 32/201pm-sonli ma’lumotnomasi.



bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq holatlar ko‘payib borayotganligini ko‘rsatmoqda.



2025-yilda bu kabi xatti-harakatlarining oldini olish borasida amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 42 834 ta holatda 1 trln 138,7 mlrd so‘mlik tovarlar ushlanib, 347,1 mlrd so‘m qo‘shimcha bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlanganligi aniqlangan. (2024-yilda 29 705 ta holatda 838,6 mlrd so‘mlik tovarlar ushlangan va 333,8 mlrd so‘m qo‘shimcha to‘lovlar hisoblangan)⁶.

Achinarlisi, xo‘jalik yurituvchi subyekt vakillari sodir etgan qilmishlari uchun qo‘llangan jazolardan o‘zlariga tegishli xulosa chiqarimasdan noqonuniy harakatlarini davom ettirishmoqda. Xususan, 2024-2025-yillarda 341 ta xo‘jalik yurituvchi subyekt vakillari tomonidan takroran huquqbuzarliklar sodir etilgan⁷.

Bundan tashqari, bojxona rasmiylashtiruvidan keyin o‘tkazilgan bojxona nazorati natijasida aniqlangan qo‘shimcha bojxona to‘lovlarini to‘lashdan qochishga bo‘lgan urinishlar hajmi yillar kesimida barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi tahliliy ma‘lumotlar orqali kuzatildi. Jumladan, 2021-yilda qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari hajmi 375 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda mazkur ko‘rsatkich 246 mlrd so‘mga teng bo‘lgan. 2023-yilda qo‘shimcha bojxona to‘lovlari miqdori 324 mlrd so‘mga yetgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib esa ushbu summa keskin oshib, 840 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Mazkur holat bojxona nazorati samaradorligining ortib borayotganini hamda yashirin iqtisodiy urinishlarni aniqlash imkoniyatlari kengayayotganini ko‘rsatadi⁸ (2-rasmga qarang).

2-rasm. 2021 – 2024-yillarda qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari summasi (mlrd so‘mda)⁹



Shuningdek, 2024-yilda bojxona to‘lovlariidan 52 trln 607 mlrd so‘m imtiyozlar berilgan bo‘lsa, shundan 327 mlrd so‘mlik imtiyozlardan maqsadsiz foydalanilgan. 2023-yilning mos davriga nisbatan 4 barabarga ortgan.

2022-yilda berilgan 56 trln 553,4 mlrd so‘mlik imtiyozlarning 80,3 mlrd so‘midan, 2023-yilda berilgan 57 trln 370 mlrd so‘mlik imtiyozlarning 82,9 mlrd so‘midan maqsadsiz foydalanilgan.

Garchi huquqni muhofaza qiluvchi or-

6 Bojxona qo‘mitasining 12/3556-2025-sonli ma‘lumotnomasi.

7 Bojxona qo‘mitasining 12/3556-2025-sonli ma‘lumotnomasi.

8 O‘sha manba

9 2-rasm. 2021 – 2024-yillarda qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari summasi (mlrd so‘mda).



ganlari sirasiga kirmasa-da, bugungi kunda Soliq kodeksi bo‘yicha soliqlardan bo‘yin tovlash holatlari aniqlanganda soliq organlarida moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash huquqi mavjud. Xususan, Soliq kodeksining VIII bo‘limida soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etgan soliq to‘lovchi subyektlar uchun moliyaviy jarimalar belgilangan¹⁰.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrda “Bojxona ma‘muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 250-sonli farmoniga muvofiq, bojxona sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibi moliyaviy jarimalar faqat yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan qo‘llanilishi, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan moliyaviy jarimalar qo‘llanganda ularning mansabdor shaxslari yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar ma‘muriy javobgarlikka tortilmasligi qoida sifatida belgilandi¹¹.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjat talabiga muvofiq, bojxonaga oid huquqbuzarliklar uchun jazo choralarini mutanosiblik prinsipiga muvofiqlashtirish, nohalol tadbirkorlik subyektlariga nisbatan odilona jazo choralarini qo‘llash orqali halol tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga hamda mamlakatdagi yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishi, ayrim turdagi ma‘muriy

qilmishlar uchun ish yuritish tartibotlarini soddalashtirish, bojxona to‘lovlarining o‘z vaqtida undirilishiga erishish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga bojxona sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibini tegishli qo‘shimchalar sifatida kiritish lozim, deb hisoblaymiz.

Ayrim davlatlarda bojxonaga oid huquqbuzarliklar uchun moliyaviy sanksiyalar belgilangan. Moliyaviy sanksiyalar jumlasiga ogohlantirish, jarimalar va tovarlarni musodara qilish mexanizmlari kiritilgan. Jumladan, Gruziya¹², Armaniston¹³ va Moldova¹⁴ davlatlarining Bojxona kodekslarida mazkur qilmishlar uchun bojxona to‘lovlarining miqdoridan kelib chiqib jarima belgilangan. Shuningdek, Rossiya¹⁵, Qozog‘iston¹⁶ va Belarus Respublikasining¹⁷ Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida huquqbuzarlik subyekti sifatida yuridik shaxslar va kichik biznes vakillari ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu bilan birga, tovarlarni deklaratsiyalarni bog‘liq huquqbuzarliklar uchun jazo turi sifatida to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlari miqdoridan kelib chiqib jarima jazosi yoki tovarlarni musodara qilish nazarda tutilgan. Armaniston¹⁸ Bojxona kodeksida tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilganidan so‘ng faqat jarima jazosi qo‘llanilgan holda tovarlar qaytarib berilishi belgilangan. Boj-

10 O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // <https://lex.uz/mact/4674902> (murojaat sanasi 01.12.2025-yil.)

11 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona ma‘muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. Toshkent sh., 2025-yil 17-dekabr, PF-250-son // <https://www.lex.uz/uz/docs/7934915>.

12 Gruziya Bojxona kodeksi: 2019-yil 28-iyundagi 4905-IIs-sonli qonun bilan tasdiqlangan. – Tbilisi, 2019. – [Elektron resurs]. URL: matsne.gov.ge (murojaat sanasi: 19.01.2026-y.)

13 Armaniston Respublikasining Bojxona kodeksi: 2000-yil 3-iyuldagi 83-sonli qonun. – Yerevan, 2000. – [Elektron resurs]. URL: www.arlis.am (murojaat sanasi: 19.01.2026-y.)

14 Moldova Respublikasining Bojxona kodeksi: 2021-yil 24-avgustdagi 95-sonli qonun. – Kishinyov, 2021. – [Elektron resurs]. URL: www.legis.md (murojaat sanasi: 19.01.2026-y.)

15 Rossiya Federatsiyasining Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi: 2001-yil 30-dekabrda 195-FZ-sonli federal qonun: [2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra tahrir]. – Moskva: Eksmo, 2026-yil, 608-bet.

16 Qozog‘iston Respublikasining Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi: 2014-yil 5-iyuldagi 235-V-sonli qonuni: [2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra o‘zgartishlar bilan]. – Ostona, 2026-y. – [Elektron resurs]. URL: adilet.zan.kz (murojaat sanasi: 19.01.2026-y.)

17 Belarus Respublikasining Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi: 2021-yil 6-yanvardagi 91-Z-sonli qonun. – Minsk: Milliy huquqiy internet-portal, 2026. – [Elektron resurs]. URL: pravo.by (murojaat sanasi: 19.01.2026-y.)

18 Armaniston Respublikasining Bojxona kodeksi: 2000-yil 3-iyuldagi 83-sonli qonun. – Yerevan, 2000. – [Elektron resurs]. URL: www.arlis.am (murojaat sanasi: 19.01.2026-y.)



xona qonunbuzarliklari bilan bog‘liq (kont-rabanda huquqbuzarligi bundan mustasno) ishlar bojxona organlari tomonidan ko‘rib chiqilib, qaror qabul qilish amaliyoti mavjud. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227²²-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni birinchi marotaba sodir etgan shaxslarga nisbatan ish hujjatlarini rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish; bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini yanada yaxshilash, bu boradagi huquqbuzarliklarning oldini olishga, bojxona to‘lovlarining o‘z vaqtida undirilishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga bojxonaga oid huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan moliyaviy jarimalar qo‘llash tartibotlarini alohida XI bo‘lim sifatida kiritish¹⁹; to‘lanmagan bojxona to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni undirish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan Bojxona kodeksiga kirim qo‘yish tartibotlariga o‘zgartirish kiritish; bojxona nazorati shakllarini yanada optimallashtirishga qaratilgan Bojxona kodeksidagi ayrim normalarga o‘zgartirish kiritish; bojxona organlarining faoliyatini yanada tartibga solish va ijtimoiy himoyasini mustahkamlashni nazarda tutuvchi normalarni “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi qonuniga kiritish taklif etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash belgilangan bo‘lib, mazkur maqsadga erishish tom

ma‘noda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to‘liq tashkil etishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to‘liq tashkil etish yagona umummajburiy mexanizmlarni, ya‘ni huquqiy normalar, tizimli nazorat va monitoring vositalari, profilaktik chora-tadbirlar hamda xodimlar va rahbarlar uchun mas‘uliyatni aniq belgilashni o‘z ichiga olishi kerak. Bu tizimning samaradorligi korrupsiyaviy xatti-harakatlarni faqatgina aniqlash bilan cheklanmay, ularga asos soluvchi institutsional va tashkiliy kamchiliklarni bartaraf etishga ham qaratilgan bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning qonuniy javobgarlikka tortilishi va barcha chora-tadbirlarning ochiq, shaffof hamda samarali amalga oshirilishi korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining muvaffaqiyatini ta‘minlaydi.

Kelgusida bojxona organlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashishda ma‘lumotlarni tahlil qilish jarayonlariga raqamli texnologiyalarning joriy etilishida bu sohada erishayotgan natijalari yuqori va bojxona xizmatlari korrupsiyalashganlik darajasi past bo‘lgan Daniya, Yangi Zelandiya, Finlyandiya, Shvetsiya va Norvegiya kabi davlatlar tajribasini amaliyotga joriy etish lozim. Ushbu davlatlar ilg‘or tajribalaridan biri bojxona posti va boshqaruv apparatlari xodimlarining xizmat xonalari videokuzatuv tizimiga ulangan bo‘lib, bojxona postlari faoliyatini onlayn translyatsiya qilish rejimi joriy etilishi xodimlarning shaxsiy mas‘uliyatini oshirishi bilan birga, ushbu audio va videomateriallarni tahlil qilish jarayonlari ham inson omilisiz raqamlashtirilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada qo‘llanilgan texnologiyalar 30 mln dona hujjatni qayta ishlash orqali korrupsionerlarni aniqlashga imkon yaratgan²⁰.

Lekin, ilg‘or davlatlar tajribasida bojxo-

19 Milliy qonunchilik bazasi: <https://www.lex.uz/acts/3088008> // murojaat sanasi 01.12.2025-yil.

20 Internet ma‘lumotlari: <https://anticor.world>.



na organlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlariga raqamli texnologiyalar joriy etilishida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tuzilmalar faoliyatiga emas, umuman bojxona rasmiylashtiruv va nazorati jarayonlariga e'tibor qaratilib, xodimlar faoliyatining shaffofligini ta'minlash orqali ularni moddiy va boshqa turdagi manfaatdorlik evaziga o'z xizmat mavqelaridan foydalanmaslik va boshqaruvga oid jinoyatlarni sodir etmasliklarini ta'minlashga ahamiyat berilganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha hamkorlik dasturi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida korrupsiyaga qarshi kurashishda qo'llaniladigan raqamli texnologiyalarning minimum imkoniyatlari quyidagilar bo'lishi kerakligi ta'kidlangan²¹:

- korrupsiyaviy jinoyatlarga oid ma'lumotlarni aniqlash, tahlil qilish, tekshirish, monitoring qilish va istiqbolini belgilash orqali bevosita foydalanish;
- ma'lumotlarning shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligi prinsiplari asosida qayta ishlash orqali bilvosita foydalanish.

Bojxona qo'mitasining “Korrupsiyaviy xavf-xatarlar” AAT tizimi tarkibida o'tkazilgan barcha oshkora va nooshkora tekshiruvlar natijalari, profilaktik suhbatlar va ularning bayonnomalari, xizmat tekshiruv natijalari, xodimlarning faoliyatiga oid kelib tushgan arizalar va ularning tekshiruv natijalari, qo'lga kiritilgan ochiq va yopiq ma'lumotlarni jamlash, ushbu ma'lumotlarni inson omilisiz BIG DATA va blokcheyn texnologiyalarini sun'iy intellekt elementlarini qo'llagan holda tahlil qilish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. E.Dyurkgeymning “jinoyat ustidan nazorat” termini mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak²², bojxona organlaridagi korrupsi-

ya ustidan nazorat nafaqat qarshi kurashuvchi tuzilmaning samarador mehnatiga, balki korrupsiyaga qarshi kurashishda foydalanilayotgan texnologiyalarning imkoniyatlariga ham bog'liq jarayon hisoblanadi. Shu o'rinda korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tuzilma xodimlarining axborot xavfsizligini ta'minlashga oid majburiyatlarini oshirish ham muhim masala hisoblanadi. Korrupsiонерligi hali isbotlanmagan shaxs “Xabeas corpus” prinsipiga ko'ra jinoyatchi hisoblanmaganligi sababli, tahlillar asosida shubha uyg'otgan shaxslarga doir ma'lumotlarning oshkor qilinishi ularning jamiyatdagi mavqeiga ta'sir o'tkazishi va konstitutsiyaviy huquqlarini cheklab qo'yishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bojxona organlaridagi korrupsiyaga oid ma'lumotlarni raqamli texnologiyalar asosida tahlil qilish korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tuzilma faoliyatining samaradorligini oshirishi bilan bir qatorda mas'uliyat ham yuklashini inobatga olgan holda, tuzilmaning funksional modelini taklif etilganidek shaklda qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bojxona sohasida yuzaga keladigan korrupsiyaga oid jinoyatlar tahlili tizimda korrupsiyaning deyarli barcha turlarini (poraxo'rlik, tamagirlik, kronizm, nepotizm, manfaatlar to'qnashuvi, lobbizm) uchratish mumkinligini ko'rsatadi.

Bojxona organlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashishda ma'lumotlarni tahlil qilish jarayoni bojxona organlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaga oid axborotlarni yetarli bo'lishi talab etiladi. Shu bilan birgalikda, yig'ilgan axborotlarni tahlil qilish uslubini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, bojxona organlarida korrupsiyaga oid ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali korrupsiyaning

21 Anga R Timilsina, Charlene Lui. New Technologies for Sustainable development: perspectives on integrity, trust and anti-corruption. UNDP 2021. 64 pp

22 Безвиконная Е.В. Цифровые технологии в противодействии коррупции в органах публичной власти / Теневая экономика. – 2024 г. – Т. 8, №2. – С. 195-206. DOI 10.18334/tek. 8. 2. 121323



turli shakllari va mexanizmlarini aniqlash, ularning tarqalish tendensiyalari va xavf-xatar darajasini baholash imkoniyati yaratiladi.

Bojxona organlari faoliyatiga oid ma'lumotlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- bojxona yuk deklaratsiyalariga oid ma'lumotlar;
- yo'lovchilar va ular tomonidan olib o'tilayotgan tovar va transport vositalariga oid ma'lumotlar;
- chegara bojxona postlari orqali harakatlanayotgan tovar va transport vositalariga oid ma'lumotlar;
- bojxona qoida buzilishi holatlarini sodir etgan tadbirkorlik subyektlariga oid ma'lumotlar;
- bojxona organlari xodimlariga oid ma'lumotlar;
- tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari asosida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar;
- xizmatga doir boshqa ma'lumotlar.

Hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bojxona organlarining ham asosiy xizmatga oid vositasiga aylanib bormoqda. Shu sababli bojxona organlaridagi korrupsiyani tahlil qilish uchun tizimga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishidan oldingi holatni va avtomatlashtirish siyosati natijalarida yuzaga kelgan vaziyatni alohida ko'rib chiqish talab etiladi.

Bojxonada yuzaga keladigan korrupsiyaviy holatlar tahlili quyidagi maqsadlar uchun mo'ljallangan axborot tizimlarini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi:

- 1) bojxona organlari faoliyatiga oid jinoyatlar hamda ularni sodir etayotgan, sodir etishni rejalashtirgan shaxslarni aniqlash, oldini olish va ularga chek qo'yish;
- 2) bojxona organlaridan yashirinib yurgan shaxslarni qidirib topish;
- 3) davlat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladigan holatlarga doir ma'lumotlarni

jamlashga yo'naltirilgan.

Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonlarini korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining barcha bosqichlarida uchratish mumkin. Birgina bojxona organlari misolida olinsa, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida:

- korrupsiya va unga oid jinoyatlarining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda;
- korrupsiya va unga oid jinoyatlarni aniqlash va chek qo'yishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini ma'lumot bilan ta'minlashda;
- korrupsiya va unga oid jinoyatlarni sodir etgan xodimlarga nisbatan qaratilgan jinoiy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishda ma'lumotlar tahlilidan keng foydalaniladi.

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan kuch va vositalardan unumli foydalanmaslik natijasida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tuzilma faoliyatining samaradorligi pasayadi. Kuch va vositalardan unumli foydalanish esa ularni maqsadli yo'naltirishni taqozo etadi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashishda xoh profilaktik, xoh tezkor-qidiruv tadbiri bo'lsin, barcha jamlangan ma'lumotlarning chuqur tahlillariga asoslangan holda qabul qilingan qarorlar bilan olib borilishi lozim.

Shu o'rinda Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi tomonidan o'tkaziladigan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tezkor-qidiruv jarayonlarining barcha bosqichlarida: qidiruv, tekshiruv, ishlov va nazorat axborot-tahliliy faoliyatni talab etadi.

Ko'p hollarda tezkor xodimlar²³ tomonidan olingan birlamchi ma'lumotlarni tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi xodimlar yoki tahlilchilar tomonidan qayta tekshirilmasligi yoki jamlanmasligi tezkor ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarning o'z vaqtida qo'llanilmay qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Korrupsiyaga oid ma'lumotlarni tahlil qilishda raqamli texnologiyalarni qo'llash

23 Tezkor xodim – tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishga vakolat berilgan mansabdor shaxs



uchun ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish lozim. Bu yo'nalishda Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 122-sonli farmoni bilan joriy etilgan "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash" axborot tizimi asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu dasturni sun'iy intellektga asoslangan holda faoliyat yurituvchi tahlil tizimiga aylantirish va amaliyotda qo'llash dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur tizim o'ziga kiritilgan ma'lumotlar, belgilab berilgan mezonlar va joriy etilgan algoritmlar asosida barcha bojxona rasmiylashtiruv jarayonlari ishtirokchilarini xavf guruhlarga ajratish, xodimlar faoliyatini tahlil qilish va rejalashtirilgan tezkor tadbirlar uchun axborot manbasi vazifasini bajarishi lozim.

Ta'kidlash joizki, bojxona organlarida aniqlangan korrupsiyaga oid jinoyatlarning aksariyati jinoiy qilmish sodir etib bo'linganidan so'ng tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida aniqlangan. Bunday holat postfaktum deb ataladi. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etilish vaqtida aniqlash holatlari esa faqatgina bojxona xodimlari tomonidan ularni korrupsiyaga undash holatlari sodir bo'layotganligi haqida murojaat qilinganda kuzatilmoqda. Bojxona xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish va butun tizimda korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirish uchun shaxsiy mas'uliyat qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, haligacha ushbu illat sohadan yo'qolmayotganligi yangi metodologiya asosida faoliyatni takomillashtirishni taqozo etadi.

Bevosita mazkur yangi metodologiya bojxona organlaridagi korrupsiyaga oid ma'lumotlar tahlilini raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirishni joriy etish hisoblanadi. Bojxona organlarida korrupsiya – bu davlatning iqtisodiy suvereniteti va

xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan subyektlarning noqonuniy xatti-harakatlari bo'lib, u tovar va transport vositalarining transchegaraviy harakati ustidan o'rnatilgan nazorat mexanizmini shaxsiy, guruhiy yoki tashqi iqtisodiy subyektlar manfaatlarini yo'lida suiiste'mol qilish, raqamli va ma'muriy algoritmlarni chetlab o'tish yoki ularni qasddan buzish orqali davlatning fiskal va notarif tartibga solish tizimiga tizimli zarar yetkazishda ifodalanuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisadir.

Kriminologik (demografik) tahlillar natijasida bojxona sohasidagi korrupsioner jinoyatchi shaxsi – bu xizmat vakolatlaridan xabardor, institutsional zaifliklardan foydalanish imkoniyatiga ega, ko'pincha oliy ma'lumotli, jinoiy qilmishini og'ir huquqbuzarlik emas, balki xizmat jarayonining bir qismi sifatida qabul qilishga moyil bo'lgan maxsus subyekt hisoblanadi.

Bojxona organlaridagi korrupsiya boshqa sohalardagi korrupsiyadan ushbu jinoyatning yuqori darajadagi latentligi, tomonlarning har ikkisi ham jarayondan manfaatdor ekanligi, tizimli shaklda yo'lga qo'yilganligi, jinoyatlar sodir etilishida transmilliy omillar ham ishtirok etishi va davlat budjetiga zararining yuqoriligi kabi xususiyatlari bilan farq qilishida namoyon bo'lmoqda.

Bojxona organlarida korrupsiya va boshqa turdagi jinoyatlarning sodir etilishiga qarshi kurashishda eng muhim yo'nalish aholi va tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e'lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekanligi qayd etilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, bojxona xodimlarining noqonuniy boyish ho-



latlarini aniqlash va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish maqsadida 2018-yil 18-oktabrda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi qonuni 8-moddasini (Bojxona organlarining majburiyatlari) *“bojxona organlari xodimlari o‘zlarining daromadlari va mol-mulk-lari to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etishi”* mazmundagi o‘n birinchi xatboshi bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Bojxona qo‘mitasining 2020-yil 22-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va hal etish choralari takomillashtirish to‘g‘risida”gi 238-sonli buyrug‘ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Bojxona xizmati organlarida manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va hal etish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomaning “Shaxsiy manfaatdorlik” tushunchasiga “bojxona xodimining o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan foydalanib, moddiy yoki nomoddiy shaklda naf ko‘rishi”, deb ta’rif berilgan. Ushbu ta’rif xodim tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini sodir etishi bilan bog‘liq bo‘lgan qilmishning predmetini to‘liq qamrab olmaganligi sababli ushbu tushunchaga *“bojxona xodimining bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik”* mazmunida o‘zgartirish kiritish taklif etiladi.

Singapur tajribasi bo‘yicha milliy boj-

xona tizimida mavjud axborot tizimlarini yagona universal axborot tizimiga birlashtirish va uni boshqa davlat organlari bilan integratsiya qilish.

Bojxona organlari tomonidan Bojxona kodeksining 188, 199, 200-moddalari asosida nazorat ostida saqlanayotgan tovarlarni inventarizatsiyadan o‘tkazilishi belgilangan. Inventarizatsiya bojxona organi boshlig‘ining yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxsning qaroriga ko‘ra bojxona organining mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Bu borada omborlarda saqlanayotgan tovarlarni nazorat qilish, ularni inventarizatsiyadan o‘tkazish jarayonlarini “qo‘l boshqaruvi”dan – aniq natijaga ishlaydigan “raqamlashtirilgan tizimli boshqaruv”ga o‘tkazish. Bunda bojxona omborlarida saqlanayotgan tovarlarni inventarizatsiya qilish tartibini ishlab chiqish hamda “Bojxona va yuk operatsiyalari” dasturi negizida bojxona omborlarida saqlanayotgan tovarlarni inventarizatsiya qilishda xavfni boshqarish tizimini qo‘llash, ushbu jarayonni planshet orqali foto va videotasvirga olib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi.

Bojxona tizimini raqamlashtirish jarayonlarida bojxonachi va TIF ishtirokchisi orasidagi real muloqot yoki aloqani kamaytirishni nazarda tutuvchi normalarni joriy etish va bojxona postlarida xodimlarga nisbatan TIF ishtirokchilaridan korrupsiyaga oid so‘rovnomalar o‘tkazish va uning natijalari bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishning zamonaviy usullarini joriy etish.

#



Jurnalda nashr etiladigan maqolaga quyidagi talablar qo'yiladi:

- maqolada jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishning umumnazariy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy masalalari, mazkur sohalarda amalga oshirilgan ishlarning tizimli tahlili hamda aniq yangi nazariy va amaliy takliflar aks etishi;
- matn takrorlarsiz, mantiqiy izchil, bayon qilingan fikrlar aniq, qisqa va lo'nda bo'lishi;
- keltirilayotgan ma'lumotlar ishonchli va to'g'ri bo'lishi;
- maqolaga jurnalda nashr qilish mumkinligi haqida shu sohadagi yetakchi huquqshunos olim va mutaxassisning, muallif ishlaydigan yoki tadqiqotchi hisoblanadigan oliy o'quv muassasasi kafedrası yoki instituti rahbari taqrizi;
- matn o'zbek va rus tilida taqdim etilishi;
- matn kompyuterda Wordning "Times New Roman"ida 14 shriftda 1,5 intervalda A4 formatli standart oq qog'ozning bir tomonida yozilishi, elektron nusxada taqdim etilishi hamda matnning chap qismi 3 sm, o'ng qismi 1,5 sm, tepa va pastki qismlari 2 sm bo'lishi;
- maqolada ilmiy bahs-munozara, iqtiboslarning mavjud bo'lishi; iqtiboslar 12 shriftda 1,0 intervalda yozilishi;
- maqolaning hajmi 8 betdan 10 betgacha bo'lishi;
- maqolaning so'nggi sahifasida muallifning ism-sharifi, ilmiy darajasi va unvoni, ish joyi va lavozimi, yashash va xizmat manzili, telefon raqamlari yozilgan;
- o'zbek, rus va ingliz tilidagi qisqa annotatsiya hamda tayanch so'zlar bo'lishi lozim.

На статьи, публикуемые в журнале, распространяются следующие требования:

- обзор общих политических, общественно-политических, правовых и практических вопросов темы, а также систематический анализ работы, проделанной в этих областях, новых теоретических и практических выводов, предложений и рекомендаций;
- постановка проблем, полнота теоретических и методологических аспектов материала, достоверность предоставленной информации, обоснованность проблемы, выводов, предложений и рекомендаций;
- логическое, последовательное, точное и лаконичное изложение идей, предложений и рекомендаций;
- отсутствие информации, не подлежащей публикации в открытой печати.

Статьи публикуются на узбекском, русском и английском языках.

Текст набирается на компьютере, шрифт «Times New Roman», размер шрифта 14 пт, межстрочный интервал 1.5, общий размер не более 8-10 страниц, напечатан на одной стороне стандартного формата бумаги А4, поля слева 3 сантиметра, справа 1,5 сантиметров, сверху и снизу 2 сантиметра;

- научные дискуссии, цитаты (ссылки) на использованные источники, цитаты, написанные шрифтом 12 пт, в однострочном интервале.

Первая страница статьи должна содержать следующую информацию:

- имя, фамилия и отчество (полное) автора (ов), место работы и должность, ученая степень и звание, почетное звание, номер телефона (сотового), адрес электронной почты;
- краткая аннотация и ключевые слова на узбекском, английском и русском языках.

Статья не будет принята к рассмотрению и публикации в следующих случаях:

- статья не соответствует вышеуказанным требованиям;
- наличие отрицательных рецензий;
- в случае принятия на заседаниях редколлегии решение не публиковать научную статью;
- если выявлено научное мнение другого автора, выводы и взгляды (плагиат).

Авторы и рецензенты несут ответственность за содержание представленных статей и достоверность фактов. Рукописи не рассматриваются и не возвращаются.